



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023, № 4

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **J.K. Fozilov**
Ta'lim jarayonida qadriyatli yondashuvlar va ularning ahamiyati
- 7 **L.M. Qaraxonova**
Biologiyadan xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltirish – muhim pedagogik muammo sifatida
- 13 **I.E. Shernazarov**
Kimiyo fanini o'qitishda milliy o'quv dasturining ahamiyati
- 17 **B.M. Xushvaktov**
Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yinni modellashtirishning pedagogik imkoniyatlari – pedagogik muammo sifatida
- 20 **B. Abduvahitov**
Uzluksiz ta'limda o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari
- 25 **D.A. Utanbayeva**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari
- 29 **E.O. Sharipov**
OTMda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari
- 34 **S. Karimova**
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiatni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik mazmuni
- 38 **T.X. Xalikov**
Uzluksiz ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini ilmiy-uslubiy mazmuni va shakllari

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 42 **P.X. Джуреев**
Развитие исследовательской деятельности методом проектов
- 47 **Sh.N. Taylakova**
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mediakontentlarning ma'rifiy funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlari
- 52 **D.S. Urunova**
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish
- 56 **M.E. Мамуазарова**
Теоретико-методологические основы исследования интеллектуальной мобильности будущих специалистов в педагогической науке
- 61 **H. Tursinboeva**
Ta'limda raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik mazmuni («Odam anatomiyasi va fiziologiyasi») fani misolida)

MA'NAVIY TARBIYA

- 64 **F.F. Xidirov**
Uzluksiz ta'limda pedagogik tolerantlik muloqoti: muammolar va tavsiyalar
- 68 **M.M. Ishanova**
Islom dini manbalari – yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun muhim tarbiya vositasidir
- 71 **A.A. Abdurashidov, M. Karimova**
Ta'lim jarayonida tadbirkorlikning mazmun-mohiyati, tashkiliy shakllari, rivojlantirish va asosiy qoidalarining ilmiy mazmuni
- 75 **D.B. Mamadjanova**
Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish (Alixonto'ra Sog'unuy risolalarini o'qitish misolida)
- 80 **X.A. Abdullaliyeva**
Bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish – psixologik-pedagogik tadqiqot muammosi sifatida
- 84 **H.A. Kodupova**
Социально-психологические аспекты формирования у молодежи представлений о туризме
- 88 **A.B. Mamanazarov**
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 92 **B. Xusanov**
Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 96 **E.Y. Davletov**
O'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni hosil qilishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari
- 101 **D.R. Sharipova**
O'quvchilarda tayanch va biologik kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari
- 104 **N. Abdullayeva**
Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish
- 108 **B.P. Джуреева**
Работа специалистов в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной среды



TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUVLAR VA ULARNING AHAMIYATI

J.K.FOZILOV,

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tadqiqotchisi (DSc)*

Qadriyatlarga yondashishda uzviylik va uzluksizlik ularning yutuqlari, ta'sir doirasi kengayadi. Bu esa voqea-hodisalarga qadr va qadrsizlanish darajasida qarashga yo'llaydi. Bunday yondashishda qadarning ahamiyati yuzaga chiqadi. Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini obyektiv dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda qadriyatli yondashuvlardan foydalanish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, qadriyatlar falsafasi, aksiologiya, aksiologik yondashuv, o'quvchilar, umumiy o'rta ta'lim maktablari, ta'lim tizimi, uzluksizlik tamoyili, qadriyatli yondashuv, obyektiv dunyoqarash, o'quvchining obyektiv dunyoqarashini rivojlantirish.

Consistency and continuity in the approach to values will expand their achievements and influence. This leads to look at the events at the level of value and depreciation. In this approach, the importance of value emerges. This article focuses on the use of value approaches in the formation and development of the objective worldview of students of general secondary schools.

Key words: values, philosophy of values, axiology, axiological approach, students, general secondary schools, educational system, principle of continuity, value approach, objective worldview, development of student's objective worldview.

Falsafa va pedagogik tadqiqot bilan bog'liq ko'pgina ilmiy manbalarda qadriyatlar mavzuing tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalarga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha – Aksiologiya (aksio – qadriyat, logos – ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Arastu va Hegellar katta e'tibor bergan bu mavzuning G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz[2].

Ta'kidlash joizki, ushbu mavzu ko'hna va navqiron Sharq, xususan o'zbekiston uchun begona emas! Uning eng teran jihatlari faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan xoli bo'lmas kerak. Nomlari sivilizatsiyamiz tarixiga abadiy bitilgan Xorazmiy, Forobiy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil,



Behbudiy, Avloniy kabi mutafakkirlar ijodida ham bu mavzuning izlari bor, teran qirralari ochilgan. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmashlikda, sayqallab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadir[3].

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardo'shtiyligining muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalari yorqin ifodalangan[3].

Bugungi kunda barcha ta'lim oluvchilar, ya'ni talaba va o'quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e'lon qilgan qadriyatlarining ahamiyatini to'g'ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir. Shunday ekan, yoshlar, xususan o'quvchilarni ma'naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksiologiya, ya'ni qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim berishda aksiologik yondashuv ham asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'limning yuqori sinflarida o'qish jarayonida mavjud asosiy xususiyatlardan biri o'quvchi shaxsining kamolga yetishining jadal shakllanishidir. Mazkur davrda o'quvchini ijtimoiy kamolotga yetishi uchun zarur aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, ijtimoiy hayotga tayyorlab borish muhim hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilar xarakterida yetuklikka intilish rivojlana borsam ham, lekin bu borada ichki qarama-qarshiliklar ham paydo bo'lib turadi. O'quvchilarning ba'zilarida loqaydlik, befarqlik xususiyatlari ham paydo bo'ladi. Ana shunday vaziyatda o'quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg'otish, o'z-o'zini anglash, faollashish kabi xislatlarni paydo qilish muhim. Lekin bu jarayon juda murakkabligi bilan ajralib tursa-da, eng muhim xislatlar: tashabbuskorlik, mustaqillik, zukkolik, tirishqoqlik, bilim olishga chanqoqlik kabi sifatlarni tarkib toptirish o'ta zarur[1].



Ta'lim samaradorligiga erishishda, o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligi muhim omillardan sanaladi. Zero, bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirishning muhim vositasidir. Ba'zi psixologlar esa, masalan V.Ya.Lyaudis guruhi yangi psixik fazilatlarining shakllanishida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining rolini ifodalashda o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir deb ta'riflaydi. Lekin barcha olimlarning fikrini jamlaganda, hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi xatti-harakatlarining tizimi tushuniladi. Bu esa o'qituvchining o'quvchini boshqarishidan boshlanib, o'quvchi faolligi orta boradi va ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatga aylanadi hamda o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi munosabat hamkorlik xususiyatiga ega bo'ladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarni majbur qilish tarzida emas, balki har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, ularga har bir ishda namuna bo'lish, talab va ehtiyojlarni tushunish, maktab ichki intizomga qat'iy rioya etishiga, darsda nazariy bilimlarini to'liq egallashga, kerak bo'lgan paytda g'amxo'rlik qilish, tajriba va an'analar, qadriyatlarni o'rganish hamda ulardan ijodiy foydalangan holda amalga oshirish muhimdir. Dastlab o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda avvalo o'quv predmet-lari doirasidagi bilimlar bilan obyektiv dunyoqarashni shakllantirishga nisbatan munosabatni tarbiyalash lozim. Ta'limda talabchanlik o'quvchilarning saviyasini hisobga olgan holda pedagogik odobga mos holda olib borilishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'qitishning pedagogik-psixologik tamoyillari, o'qituvchilarning pedago-gik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarni obyektiv dunyoqarashini shakllantirishda qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilishini inobatga olib, bu boradagi bilimlarni egallash bilan birga yuksak jamoaviy tarbiya, shu bilan birga har bir o'quvchi shaxsi psixikasini o'rganish, ularning imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, har bir o'quvchining psixikasi, ongi, faoliyatini o'rganib, uni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi va eng muhimi rivojlantiruvchi funksiyaga ham ega bo'lib, har bir o'quvchining ongi, atrof-muhit, boshqalar bilan muomala-munosabatni tahlil qilishga o'rgatadi va nihoyat o'quvchining o'zlashtirishini, qadriyatli munosabatini shakllantiradi va takomillashtiradi. O'quvchilar ham darsda, ham amaliy mashg'ulotda, ham tarbiyaviy ishlar jarayonida, shuningdek, sinfdan tashqari faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilar ekan, yuqoridagi ta'kidlangan psixologik xususiyatlarni hisobga olish talab etiladi[1].



Umuman olganda, mavzu doirasidagi pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlilini o‘rganish jarayonida jarayonida birinchidan, o‘quvchilarni bo‘lajak kasblarni tanlash va yo‘naltirish bo‘yicha bilim bilan qurollantiriladi, ikkinchidan, o‘quvchi shaxsi psixikasi bilan bog‘liq uning ongi, faoliyatining tarkibiy qismlari bilan tanishtiradi, uchinchidan esa, o‘quvchilarga inson psixologiyasining o‘zgaruvchanligi, uning qonuniyatlari, mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Chunki aynan o‘spirinlik davrida o‘quvchi shaxsida bo‘ladigan o‘zgarishlar bevosita obyektiv dunyoqarashni shakllantirishga aksiologik yondashuv asosida e‘tibor qaratilib, ularni ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quv faoliyatiga ham ruhan, ham jismonan tayyorlash qonuniyatlarini bilishga yo‘naltiriladi. Bu esa quyidagilarni hisobga olishni taqozo etadi:

- ta‘lim jarayonidagi har bir o‘quvchi shaxsiga ta‘siri;
- ta‘lim muhitida o‘quvchilar faoliyatining holatini hisobga olish;
- o‘quvchilarni aksiologik yondashuv asosida obyektiv dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik va psixologik qonuniyatlarini aniqlash;
- o‘quvchilarga obyektiv olamdagi mavjud qadriyatli munosabatning mohiyatini tushuntirish;
- o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tavsifnomasini tayyorlash va boshqalar.

Ta‘kidlash joizki, bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun o‘quvchilarda birinchidan, bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, ikkinchidan, nazariy va amaliy tayyorgarlik natijasida intellektual salohiyatni rivojlantirishga psixologik tayyorlash zarur. Psixologik tayyorgarlikda o‘quvchilarni psixologik-pedagogik sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қозиев Э. Психология/ Ёш психологияси: -Т.: Ўқитувчи, 1994. -Б.178.
2. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). -Т.: Ўзбекистон файласуфлар Миллий жамияти, 2004. -Б.53.
3. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14345-2021-07-28-05-57-45>



BIOLOGIYADAN XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIKKA YO'NALTIRISH – MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

L.M. QARAXONOVA,

O'zPFITI, «Tabiiy fanlarni o'qitish texnologiyalari»
bo'limi mudiri, p.f.f.d (PhD) katta ilmiy xodim

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi yani hayotiy muommoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlarni mustaqil ravishda hal eta oladi. Mazkur maqola o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining samarali imkoniyatlariga bag'ishlanadi.

Tayanch so'z va iboralar: xalqaro baholash dasturi, ta'lim tizimi, iqtidorli o'quvchilar, tadqiqotchilikka yo'naltirish, ilmiy savodxonlik, tabiiy savodxonlik, o'quvchilarni savodxonlik darajasini baholovchi ta'lim tadqiqotlari, PISA, TIMSS xalqaro dasturlari, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, tadqiqotchilik kompetensiyasi.

A person who is literate in natural sciences can participate in the discussion of problems related to natural sciences and technologies based on scientific evidence, that is, he can independently solve tasks that reflect critical life situations. This article is devoted to the effective possibilities of international assessment programs in the development of students' research competence.

Key words: international assessment program, educational system, gifted students, research orientation, scientific literacy, natural literacy, educational research that assesses the literacy level of students, PISA, TIMSS international programs, research skills development, research competence.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektiyasi qoshida «Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi» tashkil etildi. Aynan shu qarorga



kura quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish vazifa etib belgilangan:

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan yurtimizda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

O'z navbatida, «Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi»ga ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovation metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi. Shu bilan bir qatorda, Milliy markaz direktori – Xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etishi belgilab qo'yildi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20-yil to'ladi. Bu tadqiqotlarni o'rganib chiqib ayrimlaridan ilmiy tadqiqot ishlarimizda foydalanishni lozim topdik. Masalan:

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-



sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun o'tkaziladi.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dasturlar zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkazilishi lozim bo'lgan (pandimiya sababli 2022-yilda o'tkazildi) tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rindir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PISA (Programme for International Student Assessment) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi mamlakatlarga ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta'lim siyosati sohasida qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimida ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni to'g'ri, samarali va obyektiv o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA xalqaro baholash dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi, o'quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergan taklif



va echimlarni baholaydi. PISA–xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. PISA hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi yoki targ‘ib qilmaydi yoki umumiy e‘tirof etishni taqozo etmaydi.

Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o‘quvchilarda tabiiy fanlardan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e‘tirof etadi.

PISA-ni so‘ngi yillardagi vazifalarining asosiy jihati nimalardan iborat? Bu proektda test sinovlari o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi, bunda o‘quvchining bilimlari asosiy o‘rin tutmaydi, faqatgina bolaning ongini ishlatishni talab qiladi.

Umumta‘lim fanlari bo‘yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribadan foydalanish,

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) – matematik va tabiiy-ilmii ta‘lim sifatini tadqiqot etadigan xalqaro monitoringdan iborat. Unda 4-, 8-, 11- sinf o‘quvchilari ishtirok etadilar. 1995 y., 1999 y., 2003 y., 2007 y., 2008., 2011 y., 2015 yillarda o‘tkazilgan. 2008 yilda TIMSS Advanced monitoring tadqiqotlari matematika va fizikani chuqur o‘rganadigan maktablarning o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazgan. Bu ikki predmet o‘sib kelayotgan avlodning yangi texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish qobiliyatlarini hamda mamlakatning intellektual potensialini baholashda ustuvor soha hisoblanadi.

Tadqiqotda savodxonlik, hayot davomida o‘rganish ham ko‘rib chiqiladi.

Savodxonlik: PISA muayyan maktab o‘quv dasturlarining ustunligini o‘rganish o‘rniga, o‘quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, muloqot qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi.

Hayot davomida o‘rganish: O‘quvchilar maktabda o‘rganishi lozim bo‘lgan hamma narsani to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Samarali o‘rganuvchi bo‘lish uchun nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ular qanday hamda nima uchun o‘rganilishi haqida xabardor bo‘lishi lozim.

PISA va TIMSS o‘rtasidagi asosiy farq. PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o‘tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA 15 yoshli o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo‘lsa, TIMSS esa muayyan yoshdagi o‘quvchilarning emas, balki to‘rtinchi va sakkizinchi



sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o'quv dasturlariga asoslangan bo'lsa, PISA esa, o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi.

Xalqaro baholash dasturlari ya'ni xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ishtirok etish ko'pgina afzalliklarga ega bo'lib, avvalo ta'limning xalqaro standart va talablariga moslashuv jarayoni yuz beradi. Ta'limni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, monitoring qilish, boshqa davlatlar ta'lim tizimi va darajasi bilan solishtirish orqali ta'limdagi kamchiliklar aniqlanadi va o'rganiladi, kelgusidagi ta'lim rivojlanishi uchun rejalar tuziladi. Ta'lim tizimimiz uchun muhim bo'lgan milliy baholash tizimini yaratish va ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanova N.D. Innovatsion texnologiyalar iqtidorli bolalarni o'qitishni takomillashtirishda / N.D. Ivanova, A.S. Satvaldieva // Maktab o'quvchilarining tadqiqot ishlari. - 2005. - 3-son. - S. 160-168.

2. A.A. Korzenkova Tadqiqot faoliyati jarayonida o'smirlarning tadqiqot pozitsiyasini rivojlantirish. / A.A. Korzenkova // Zamonaviy o'quv makonida o'quvchilarning tadqiqot faoliyati: Maqolalar to'plami. - M., 2006. - S. 81-87.

3. Leontovich A.V. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy va mazmunli muammolari. / A.V. Leontovich // Zamonaviy ta'lim makonida o'quvchilarning tadqiqot faoliyati: Maqolalar to'plami. - M., 2006. - S. 112-116.

4. Leontovich A.V. Maktab o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy xaritaning ishlab chiqish bo'yicha qo'llanma / A.V. Leontovich. - M.: Ed. Moskva shahar bolalar (yoshlar) ijod saroyi, 2003. - 19 p.

5. Leontovich A. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish modeli / A. Leontovich // Maktab direktori. - 2008.-№7.-S.69-74



KIMYO FANINI O'QITISHDA MILLIY O'QUV DASTURINING AHAMIYATI

I.E. SHERNAZAROV,

Nizomiy nomidagi TDPU

«Kimyo va uni o'qitish metodikasi» dotsent v.b. (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 - maydagi «2022 - 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi PF-134-sonli farmonida qo'yidagi bandlar keltirilgan:

- maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash;
- o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish;
- darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish;

- maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish;

- maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

- jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

- o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab qo'yilgan.

Milliy o'quv dasturida yuqorida keltirilgan barcha vazifalar hisobga olingan holda barcha fanlardan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarori bilan Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Ushbu ilovaning 4-bandiga ko'ra Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga yuklatilgan.

Bu borada Ta'lim inspeksiyasi Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan hamkorlikda 21 ta fandan ta'limning barcha bosqichlaridan 334 nafar tajribali ekspertlarni jalb qilgan holda amaldagi o'quv dasturlarini tahlil qilish ishlari olib borildi.



«Kimyo» fanidan umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun tayyorlangan Milliy oʻquv dasturi ham tahlil qilindi. Tahlil natijalariga koʻra kimyo fanidan umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun tayyorlangan Milliy oʻquv dasturi yuqorida keltirilgan barcha vazifalarni bajarishga xizmat qilishi va fanlardagi mavzularni uzviyligini taʼminlagan holda tayyorlanganligi aniqlandi.

Kimyo fanidan tayyorlangan Milliy oʻquv dasturida kimyo kursini oʻqitishda zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanishning konseptual asoslariga oid tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar, kimyo dasturlarining mazmun mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini taʼminlash hamda oʻquvchi va talabalarda shakllanishi zarur boʻladigan bilim va koʻnikmalar darajasini aniq belgilashda hamda «Kimyo mazmuniga oid umumiy kompetensiya», «Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi)»larini shakllantirishga, oʻquvchi va talabalarda nazariya bilan amaliyotni bogʻlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ekspertlar tomonidan tasdiqlandi. Masalan, biz kimyo fanidagi ayrim mavzularni ketma-ketligi va uzviyligi taʼminlanganligini misollar yordamida keltirib oʻtamiz. Shu bilan birga oʻquvchilarimizga har bir sinf kesimida fanga oid mavzularni uzviyligi qanday metodlar yordamida mavzuning qaysi qismlari oʻqitilish kerakligini tushuntirib oʻtamiz.

Kimyo fanidan Milliy oʻquv dasturining 7-sinfida «Atom. Atom tuzilishi haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi» mavzu yoritishda ilmiy savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda «Atom va uning tuzilishi, tarkibi haqida biladi» maʼlumotlarni oʻzlashtirishi, amaliy kompetensiyani shakllantirishda «Atomda elektronlarning harakatlanishiga koʻra atomlarning modellarini yasaydi va undan maqsadli foydalaniladi» bu kabi maʼlumotlar asosida yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirish 7-sinf darsligida Atom tuzilishi haqidagi bilimlarning rivojlanish tarixi, atom nazariyasining asosiy jihatlari yoritib berilgan.

«Atom va uning tuzilishi, proton, neytron va elektronlar» mavzulari berilgan boʻlib bunda oʻquvchilarimizga J. Dalton atomni qanlay tasovvur qilgani, Atom tarkibi, Subatom zarrachalarning tabiati va joylashishi haqida maʼlumotlar rangli tasvirlar asosida 7-sinf darsligida ifodalangan. Aynan darslikda keltirilgan maʼlumotlarni axborot texnologiyalar yordamida avdiovizual namoyishlar orqali tushuntirish oʻquvchilarga qizishi uygʻ otadi va shu bilan birga tushunmay qolgan maʼlumotlarni qayta koʻrish, tahlil qilish, fikrlash, atom haqida tushunchalarini boyitish imkonini beradi.

8-sinf oʻquvchilarga Atom tarkibi, izotop, izobar, atomning elektron qavatlarining tuzilishi, energitik pogʻonachalar va mavzularga oid masala va mashqlarni bajarish mavzulari berilgan boʻlib bu mavzularni yoritishda 7-sinfda oʻtilgan mavzularni qisqacha takrorlab tushunchalarni oʻzlashtirganimizdan keyin oʻquvchilarga yangi maʼlumotlarni berishimiz lozim.

Milliy oʻquv dasturida ilmiy savodxonlik kompetensiyasi «Kimyoviy



elementlar tabiiy oilalarini izohlab beradi;

kimyoviy elementlarning elektromanfiyligi, kimyoviy bog‘lanishni biladi va izohlaydi».

Amaliy kompetensiya qo‘yidagi mavzularni yoritish torqali shakllantiriladi: atomda elektronlarning harakatlanishi tasavvuri orqali atomlarning modellarini yasaydi;

moddalarning formulalari va kimyoviy reaksiya tenglamalari, ta’sirlashuvchi modda massasining tengligini biladi, qonun va qonuniyatlardan amaliyotda foydalanadi.

Masalan: Atom tarkibini o‘quvchilarga tushuntirishda oddiygina qaynatilgan tuxum yoki xuddi shunga o‘xshash modellardan yoki analoglardan tayyorlanib tushuntirishimiz mumkin. Nima uchun aynan qaynatilgan tuxum misolida atom tushunchasini tushuntiramiz, sababi kimyo darslarida qaynatilgan tuxumni olib kelish va uning pustloq chiqmi, yumqa pustlog‘i, tuxumning oq rangli oqsil kurinishlarini elektron qavatlar, tuxumning sariq rangli qismini yadrosi deb tushuntirish juda o‘rinli bo‘ladi. Atom tarkibi va uning tarkibidagi proton, neytron va elektronlarni tushuntirishda STEAM ta’limi asosida tayyorlangan «Atom tuzilishi» modellardan foydalanishimiz ham mumkin.

Izotop, izobar, izoton hamda izoelektron tushunchalarini AKT va internet manbalaridan foydalanib avdeovizual namoyishlar tayyorlab tushuntirishimiz mumkin.

Vizual vositalar – bu vizual (ko‘rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san’at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o‘simliklar, tabiat obyektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko‘rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo‘llanilishi talaba-o‘quvchilarga o‘rgatish kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmuni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali tez, aniq va to‘g‘ri tushuntirish imkoniyatini beradi.

Audio vositalar – bu eshitish orqali axborotni o‘rganish, o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko‘proq audiovizual vositalar, ya’ni bir vaqtda eshitish va ko‘rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovoqli video tasvirlardan foydalaniladi. Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

Atom elektron qavatlarining tuzilishi va enegetik pog‘onalarni vizual vositalar yordamida tushuntirish o‘quvchilarga mavzuga oid bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishi osonlashadi. Ya’ni mavzuga oid tushunchalardan foydalanib AKT vositasida yordamida avdeovizual namoyishlar (elektron konfiguratsiyasiga oid



videonamoyishlar tayyorlanib unga ovoqli effekt qo'shiladi) tayyorlanadi va dars davomida foydalaniladi. Agarda o'quvchilar bu ma'lumotlarni tushuna olmasalar videonamoyishlarni takroran ko'rib mavzuni tushunishlari mumkin.

9-sinf o'quvchilari uchun «Atom» tushunchalariga oid ma'lumotlar qo'yidagi kompetensiyalardagi mavzularni shakllantirish orqali tushuntiriladi.

Milliy o'quv dasturida ilmiy savodxonlik kompetensiyasi:

Elementlarning nisbiy elektomanfiyligi, oksidlanish darajasini biladi, oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini farqlaydi; misollarda tushuntiradi;

Amaliy savodxonlik kompetensiya:

Elementlarning oksidlanish darajasi aniqlashni biladi; oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini tuzadi, elektron balans usuli bilan oksidlanish qaytarilish reaksiyalarni tenglashtiradi;

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni o'rganishda qo'yidagi metodlardan foydalanamiz.

Interfaol metodlar: «Keys-stadi» (yoki «O'quv keyslari»), «Blits-so'rov», «Modellashtirish», «Ijodiy ish», «Munosabat», «Reja», «Suhbat» va boshqalar.

Strategiyalar: «Aqliy hujum», «Bumerang», «Galereya», «Zig-zag», «Zinama-zina», «Muzyoran», «Rotatsiya», «T-jadval» va hokozolar.

Grafik organayzerlar: «Baliq skeleti», «B/B/B», «Konseptual jadval», «Venn diagrammasi», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va boshqalar.

Shu bilan birga o'quvchilarni olgan bilimlarini qay darajada yuqori ekanligini ularga berilgan savollar orqali kreativ fikrlashlari yordamida bergan javoblariga ko'ra aniqlash mumkin. Bu borada eng zo'r metodlardan biri bu 2Muammoli vaziyat metodlari»dan foydalanish. Bu metod yordamida ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar va o'qituvchilar tomonidan bu metod orqali o'quvchilarni mavzuga oid kompetensiyalar shakllanganligi aniqlab olishlari mumkin.

«Muammoli vaziyat» usulining bosqichlari: bo'lajak kimyo o'qivchilar 2 guruhga ajratiladi. Har bir guruh muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh o'z yechimlarini taklif qiladi. Barcha guruhlar o'z yechimlarini taklif qilganlaridan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

11-sinf o'quvchilariga atom tuzilishiga oid manbalar umumlashtirib, mavzular to'liqligicha tushuntiriladi. Milliy o'quv dasturida o'quvchilarni ilmiy va ilmiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun mavzular qo'yidagicha berilgan.

Atom tuzilishi. Atom tarkibidagi elektronlarni pog'ona va pog'onachalarga



joylashishi. (s, p, d elementlar misolida). Elektron ko'chish hodisasi. Kvant sonlari. Pauli prinsipi. Hund qoidasi. Klechkovskiy qoidasi. Atom va ionlarni elektron formulalari. Valent elektronlar tushunchasi. Atom tarkibi. Izotop, izobar haqida tushuncha. Yadro reaksiyalari. α -yemirilish, β -yemirilish.

Yuqorida keltirilgan metodlardan foydalangan holda o'quvchilarni oldingi o'zlashtirgan bilimlarini yodga olishlari va ularni mavzuga oid ma'lumotlarni kompleks jihatdan o'zlashtirishlari ularda ilmiy va amaliy ko'nikmalarga bo'lgan talablarni to'g'ri bajarilishi hamda bu kompetensiyalarni o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga to'g'ri shakllantirilganligidan dalolatdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'rtta ta'lim tizimida o'quvchilarga qo'yiladigan mavzularga oid tushunchalar va kompetensiyalar shakllantirilishi har bir davlatning ta'lim tizimidagi dasturlariga bog'liqdir. Aynan bizni yurtimiz o'quvchilari uchun tayrlangan Milliy o'quv dasturi ham o'quvchilarga mavzularni o'zlashtirishda tushunchalardan foydalanishda uzviylik asoslangan bo'lib o'quvchilarimizni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi hamda ularga ilmiy va amaliy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rtta ta'limning Milliy o'quv dasturi 7-11-sinf kimyo.//Toshkent-2023.
2. Алимова Ф.А. Повышение эффективности обучения химии с использованием компьютерных технологий.: Автореф. дис. канд. пед. наук. - Тошкент, 2009. - 22 с.
3. Елена Раткевич Юрьевна. Повышение эффективности формирования химических знаний школьников при использовании информационной технологии обучения: Дис. канд. пед. наук. - Москва: РГБ ОД, 1998. - 158 с.
4. Емельянова Е.О. Формирование у учащихся способов самоконтроля при обучении химии.: Автореферат. дис.канд.пед.наук.- Москва:-1998. - 18 с.
5. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы: Автореф. дис. канд. пед. наук. - М.: ГНУ ИСМО РАО, 2004. - 35 с.
6. Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълим ва тарбияда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш услубиёти: Тошкент. Истеъдод, 2014. 5-105 б.
7. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. - Тошкент. Фан, 2007. - 164 б.
8. Гузей Л.С., Сорокин В.В., Суровцева Р.П. Химия 9 класс: Учеб. для общеобразоват. - Москва. Дрофа, 2002. - 288 с.



OLIY HARBIIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI BO'LAJAK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O'YINNI MODELLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

B.M.XUSHVAKTOV,

*O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi kadrlar
Bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, polkovnik*

Maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini tayyorlash jarayonida o'yin modellashtirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

***Kalit so'zlar:** o'yinni modellashtirish, talabalar, kasbiy faoliyat, jarayon, ta'lim, oliy ta'lim tashkiloti.*

The article reveals the pedagogical possibilities of game modeling in the process of training cadets of higher military educational institutions.

***Key words:** game modeling, students, professional activity, process, education, higher educational organization.*

В статье раскрыты педагогические возможности игрового моделирования в процессе подготовки курсантов высших военных образовательных учреждений.

***Ключевые слова:** игровое моделирование, обучающиеся, профессиональная деятельность, процесс, образование, высшая образовательная организация.*

Jahon oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini kasbiy professional kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, kursantlar sifatida Vatanga xizmat qilish yo'lini tanlagan yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, kasbiy fanlarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, jahon harbiy ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, kursantlarni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish borasida loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonning ilg'or ilmiy tadqiqot muassasalarida mamlakatlar xavfsizligini mustahkamlash, harbiy sohani ongli ravishda tanlash ko'nikmasini shakllantirish, kursantlarning mohiyatini va unga qo'yiladigan qat'iy intizom hamda yuksak talablarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga yoshlarni harbiy sohaga yo'naltirish, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish modelining samaradorligini oshirish, interfaol ta'limni joriy etish, oliy harbiy ta'lim tizimini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.



Respublikamizda so'nggi yillarda oliy harbiy ilm-fanni rivojlantirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yinni modellashtirishga e'tibor qaratish hamda bu jarayonni tashkil etishda pedagogik imkoniyatlarni takomillashtirish, kursantlarning harbiy mahoratini oshirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. Ayni paytda jahon harbiy ta'lim tizimidagi jadal o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat va harbiy kadrlarni tayyorlashga davlatimizda katta e'tibor qaratilayotganligi ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llanilishi ta'minlamoqda. Kadrlar tayyorlashning yuqori darajasiga erishish kursantlarning kasbiy ta'limining strategik maqsadi hisoblanadi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri kursantlarni bo'lajak kasbiy faoliyatiga samarali tayyorlashga qaratilgan yo'llar va vositalarni izlash bilan an'anaviy o'qitish usullarini uyg'unlashtirish bilan bog'liq.

Tadqiqotning pedagogik darajadagi dolzarbligi jamiyatning ijtimoiy tartibi va ta'lim sohasidagi mehnat bozorining ehtiyojlari, shuningdek, zamonaviy pedagogik ta'limning o'quv-uslubiy ta'limni tayyorlashning predmetli-mazmunli natijasiga yo'naltirilishi kursantlarning bo'lajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq.

Ilmiy-nazariy darajada tadqiqotning dolzarbligi keyingi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyor kursantlarni tayyorlashga ilmiy va uslubiy yondashuvlarni izlash zarurati bilan belgilanadi, shuningdek, zamonaviy pedagogika fanida mavjud bo'lgan nisbiy o'yin modellashtirish qarashlari, yondashuvlari va pozitsiyalaridagi farqlar kiradi. Bir qator tadqiqotchilar o'yinni modellashtirishni bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydigan ta'lim ma'lumotlarini olish jarayoni sifatida, boshqalari borliqning ma'nosini olish jarayoni sifatida, boshqalari esa, o'yin orqali kasbiy madaniyat bilan tanishish jarayoni sifatida izohlaydilar. Ilmiy va uslubiy darajada tadqiqotning dolzarbligi kursantlarni tayyorlashning uslubiy masalalarini ko'rib chiqish zarurati bilan kursantlarni keyingi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash. Shu munosabat bilan o'yinni modellashtirishni o'rganish alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tajribasini o'rganish asosida falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligini aniqladik.

Model – bu asl obyekt yoki dizayn obyektining bizni qiziqtirgan xususiyatlari va xususiyatlarini takrorlaydigan obyektning soddalashtirilgan o'xshashligi.

Modellashtirish deganda modellarni, mavjud yoki loyihalashtirilgan obyektlarni (jarayonlar va hodisalarni) qurish, takomillashtirish, o'rganish va qo'llash tushuniladi.



Biz L.E. Levonyukning fikriga qoʻshilamiz, u oʻyinni modellashtirish usulini «oʻquvchining haqiqatni oʻzgartirish va qayta yaratish qobiliyatida ifodalangan faoliyat turi sifatida» aniqlash mumkin deb hisoblaydi. Ushbu usulning koʻp qirraliligi, birinchi navbatda, maqsadni belgilashning barcha bosqichlarida modellashtirishdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligida, obyektning oʻrganishda, vositalar va harakatlar usulini tanlashda, belgilangan maqsadni amalga oshirishda va erishilgan natijani baholashda namoyon boʻladi.

Bizning fikrimizcha, oʻyinni modellashtirish haqiqiy kasbiy faoliyatga imkon qadar yaqin boʻlgan maʼlum bir vaziyatni qayta yaratishni va kursantlar tomonidan ushbu vaziyatni oʻynashni oʻz ichiga oladi. Oʻyin holatining oʻzi kursantlarni qiziqitirishi va ularning aqliy faoliyatini faollashtirishi kerak. Amaliy vaziyat dinamikasining asosi turli xil mantiqiy tuzilgan vazifalar boʻlishi kerak. Shundagina oliy harbiy oʻquv yurtlarida oʻqitish jarayonida kursantlarning boʻlajak kasbiy faoliyati uchun zarur boʻlgan fazilatlar muvaffaqiyatli shakllana boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kursantlar u yoki bu rolda harakat qilib, yuzaga kelgan vaziyatni hal qilishlari va asosli hamda yagona toʻgʻri qaror qabul qilishlari kerak. Oʻyin holatining dastlabki natijasi oldindan aniqlanmagan va kursantning harakatlariga bogʻliq. Shu munosabat bilan, har bir kursantning roli muhim ahamiyatga ega va har bir kursant maʼlum bir rolda unga berilgan funktsiyani qanchalik malakali va sifatli bajarishiga umuman simulyatsiya qilingan vaziyatning natijasiga bogʻliq. Bundan tashqari, har bir individual oʻyin simulyatsiya qilingan vaziyatda kursant oʻz qarorlari uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olishi muhim, ammo bu javobgarlik faqat namunaviy vaziyat bilan cheklangan, shuning uchun yoʻl qoʻyilgan xatolar kimgadir yoki biror narsaga haqiqiy zarar etkaza olmaydi, bu esa, diqqatni jamlashga imkon beradi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning dolzarbligi oliy harbiy taʼlim tashkilotlari oldida turgan sifatli taʼlimni taʼminlash boʻyicha vazifalar bilan belgilanadi; kursantlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati; oʻyinni modellashtirish orqali kursantlarni tayyorlash yoʻnalishi boʻyicha mavzuning etarli darajada rivojlanmaganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Левонюк Л.Е. Роль игрового моделирования в формировании иноязычной коммуникативной компетенции будущих специалистов // Языковая личность и эффективная коммуникация в современном поликультурном мире: Сборник статей по итогам III международной научно-практической конференции. - М., 2018. - С. 189-195.



UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

B.ABDUVAHITOV,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Ma'lumki, o'quvchilar uchun bilimlar bellashuvining eng yuqori darajasi fan olimpiadalari hisoblanib, ayni paytda fan olimpiadalarini rivojlantirish borasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmogda. Iqtidorli o'quvchilar o'zlashtirish va mantiqiy fikrlash jihatidan o'z tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Shu ma'noda o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirish uchun turli murakkablik darajasidagi savollar bilan ishlash lozim. Mazkur maqolada o'quvchilarni biologiya fan olimpiadalariga tayyorlashda tanqidiy fikrlash qobiliyati va muammoli savollar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, shu bilan birgalikda ilmiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Fan olimpiadasi, iqtidor, tanqidiy fikrlash, muammoli savollar, kreativlik, IBO(Xalqaro hiologiya olimpiadasi), ko'p javobli testlar, bir javobli testlar, yashirin taxmin, korrelyatsiya, taxmin qilish, taqqoslash.*

It is known that science olympiads are the highest level of knowledge competition for students, and at the same time, many practical works are being carried out to develop science olympiads. Gifted students clearly differ from their peers in terms of acquisition and logical thinking. In this sense, it is necessary to work with questions of different levels of complexity in order to further improve the knowledge of students. This article is devoted to the development of critical thinking skills and the ability to work with problematic questions in the preparation of students for the biology Olympiads, along with scientific recommendations.

Key words: *Science Olympiad, talent, critical thinking, problem questions, creativity, IBO (International Olympiad of Science), multiple-choice tests, single-choice tests, implicit assumption, correlation, prediction, comparison.*

Ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimi o'ziga xos murakkablik tomoni bilan ajralib turadi. Iqtidorli o'quvchilarda katta malumotlarni tez o'zlashtirish, muammoni tahlil qilishda kreativ yondashuv, hamda, olingan bilimlarni yuqori darajada integratsiyalash qobiliyatlari mavjud. Iqtidorli o'quvchilar o'z tengdoshlaridan ko'plab qobiliyatlari bilan ajralib turganligi va ular kam sonli ekanligini inobatga olib, ular bilan alohida ishlash tizimini va samarali yo'llarini pedogogik jarayonga qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumki, biologiya olimpiadasidagi ma'lumotlarni qanday eslab qolish



o'qituvchi va o'quvchilarning eng katta muammolaridan biri hisoblanadi. Bu mavzularning kattaligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biologiya olimpiadasi o'quvchilarning qanchalik ko'p ma'lumotlarni o'lashtirganlik darajasini emas, balki bilimlarni turli notanish vaziyatlarda qo'llash, ma'lumotlarni tushunish, ilmiy tajribalar natijalarini sharhlash va berilgan ma'lumotlardan oqilona xulosalar chiqarish qobiliyatini sinash uchun mo'ljallangan.

Aslida, IBO (International biology olympiad – ingliz tilidan Xalqaro biologiya olimpiadasi deb tarjima qilinadi. Lekin sistema birliklari sifatida IBO atamasi qabul qilinganligi sababli, maqolada shu qisqartmadan foydalanish ma'qul ko'rildi) dagi imtihon savollarining aksariyati asosan fikrlash, muammolarni hal qilish va tushunishga qaratilgan. Shu sababli, hamma narsani oldindan bilish talab qilinmaydi va IBO imtihonlari ishtirokchilarni musobaqa davomida yangi bilimlar o'rganishga undaydi. O'quvchilarga IBODA faqat bir marta ba'zan ikki marta (milliy terma jamoa tarkibiga qabul qilinsa) qatnashish imkoniyati beriladi.

O'quvchiga tanqidiy tahlil qilish uchun avvalo tanqidiy fikrlashni o'zlashtirish zarur bo'ladi. Tanqidiy fikrlash – fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu – o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish orqali samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni talab qiladi[3].

O'quvchi berilgan savoldagi ma'lumotlardan foydalanib, ko'pincha ba'zi bayonotlarni istisno qilishi yoki javob variantlarini qisqartirishi mumkin. Variantlardagi quyidagi bayonotlardan ehtiyot bo'lish lozim:

– Asosiy tushunchaga yoki grafik va jadvallardagi ma'lumotlarga zid, mutanosib bo'lmagan, ya'ni savoldan tashqari, realligi ko'rsatilmagan, qo'shimcha ma'lumotlarga chalg'imaslik talab etiladi.

– Oddiy, ya'ni javoblari juda aniq yoki juda oddiy ko'ringan mantiqsiz bunday tushunchalar noaniq yoki umumiy biologik haqiqatlarga qarshi bo'ladi.

Olimpiada ba'zi holatlarda o'quvchi uchun murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammoli savol-topshiriqlar variantlari beriladi. O'quvchi o'z bilimko'nikmalaridan foydalangan holda savolda keltirilgan ma'lumotlarni echishda o'yalashi, tahlil qilishi va taxmin qilishi lozim. Keyingi bosqichda noto'g'ri javoblarni



saralashi va qoldirilgan to'g'ri deb taxmin qilingan variantlar haqida o'ylashi talab etiladi. Shundagina, yangi, hali duch kelmagan muammoli savollarni echimini topishda imkoniyatlar tug'ilishi mumkin. Ushbu tavsiyalarning barchasini amalda qo'llash uchun ilgari foydalanilgan olimpiada savollarini olib, har bir savolni bosqichma-bosqich tahlil qilish zarur. Keyingi ko'nikma, ya'ni «Muammo echish qobiliyatlari» tanqidiy fikrlash haqidagi tavsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Darhaqiqat, bu ikki ko'nikma biologiyadan fan olimpiadasida bir-biridan ajralmas va bir-birini to'ldiradigan va bir vaqtning o'zida o'quvchida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun berilgan masalalarni amalda samarali echishga xizmat qiladi.

Ko'pincha biologiya fan olimpiadasida o'quvchilarni ko'p tanlovli savollarga javob berish imkoniyati qiyinligini payqash qiyin emas. Agar biologiyadan fan olimpiadasida so'nggi yillarda berilgan olimpiada savollarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ehtimol, savollar o'quvchilarning bilim darajalarini aniqlash uchun yaratilganini bilish mumkin. Shu ma'noda o'quvchilarni murakkab savol-topshiriqlarga tayyorlash uchun maxsus ilmiy manbalar bazasi mavjud. Medical College Admission Test (MCAT), Graduate Record Examination (GRE), amaliy biologiya testlari, IBOning eski savollari, ingliz tilidagi turli xil biologiya olimpiadalarining eski savollari, MIT OpenCourseWare imtihonlari va baholashlari, International Baccalureate (IB) biology, Advanced Placemant (AP) va biologiyaning A-Leveliga oid ma'lumotlar muammoli savollarni echish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi[7].

Topshiriqlar va savollarni o'rganish jarayonida uni tushunish va tahlil qilish davomida birinchi galda muammoni hal qilish talab etiladi. Muammoni hal qilish ikki komponentdan iborat:

- muammolarni hal qilish strategiyalarini bilish;
- biologiyaga tegishli bilimlar (ayni holatimizdagi).

Ikkinchi komponent darsliklarni o'qish va asosiy biologik tushunchalarni shakllantirish orqali rivojlantirilishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, bilimni yod olish emas, balki tushunib, anglab o'rganish muhim. Bu erda o'quvchining qancha kitob yoki ma'lumotlarni o'rganishi emas, balki olingan bilimlarni yodda saqlab qolish ko'nikmasiga ega bo'lishidir.

Muammoni hal qilish – bu muammolarni hal qilish strategiyalarini bilishdir. Ilgari foydalanilgan olimpiada savollarini va ish varaqlarini echish uchun sarflangan soatlar o'quvchiga mos keladigan biologiyadavn fan olimpiadalari uchun turli xil test banklarini to'plashga yordam beradi. Bu o'quvchini muammoni



hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchini ilgari foydalanilgan olimpiada masalalarini echish orqali to'g'ri javoblarni topishga yordam beradigan strategiyalarni topishga o'rgatish zarur. Bunda, savolni qanday hal qilish haqidagi fikrlarni yozma tavsiflarini ishlab chiqishga bosqichma-bosqich tayyorlab borish talab etiladi. Bu ko'p vaqt talab qiladigan strategiya, lekin, bu o'quvchi uchun mo'jizalar yaratadi. Misolni tahlil qilishdan oldin, odatda to'g'ri javobni topishga yordam beradigan bosqichlarni quyida ko'rib chiqamiz.

1. Savolni tahlil qilish kerak! Avvalo, savolni diqqat bilan o'qib, kalit so'zlarni ajratib olish, tagiga chizish yoki aylanaga olish lozim. O'quvchi savolda nima haqida gap ketayotganligi va nima so'ralayotganini haqiqatan ham tushunganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Agar kerak bo'lsa, uni ikkinchi marta o'qish zarur. Ko'p xatolar savolni noto'g'ri tushunganlikdan kelib chiqadi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash lozim. Savolda berilgan barcha grafiklar, jadvallar, chiziqli diagrammalar, rasmlarga e'tibor berish va ularni o'rganish kerak. Ushbu vizual usul tasvirlardagi asosiy fikrlarni ajratishga yordam beradi. Shakllarga, munosabatlarga va tendensiyalarga e'tibor berish zarur.

3. Javobni taxmin qilish kerak. Berilgan variantlarni ko'rib chiqishdan oldin, javobni taxmin qilish uchun mantiq va biologik bilimlardan foydalanish samara beradi. Savolni o'qiyotganda, qanday biologik obyekt tekshirilayotganini aniqlash muhim omil hisoblanadi. Keyin orttirilgan bilimlar asosida bu mavzuga tegishli asosiy faktlar va tushunchalarni yodga olish kerak. Agar javob bo'lsa, variantlarni ko'rib chiqish va to'g'ri javobni topish osonroq bo'ladi. Aslida, variantlarni ko'rib chiqishdan oldin javob haqida o'ylash neyronlarni qo'zg'atadi va savolni tushunishga yordam beradi.

4. Javob variantlari uchun dalil topish lozim. Har bir ko'p tanlovli variant uchun dalillarni tekshirib olish zarur:

5. Qaror qabul qilish kerak. Bu eng oson qism bo'lib, bu nuqtaga etganda, savol nima haqida ekanligini, har bir rasm nimani anglatishini, qanday tushunchalar tekshirilayotganini va har bir variantda nimalar haqida yozilganini tushunish muhim hisoblanadi. Barcha dalillarni o'zlashtirish, agar bu bir javobli tanlanadigan topshiriq bo'lsa, har bir variantga e'tiborni qaratish yoki agar bu to'g'ri (TRUE)/ noto'g'ri (FALSE) savol bo'lsa, alohida-alohida belgilab chiqib, oxirida bir qarorga kelish kerak. Agar savol bitta yoki bir nechta javobni tanlashni so'rasa, ehtiyot bo'lish zarur.

Fikrlash jarayonlarini ko'rish, tavsiflash va tartibga solish miyaning qanday ishlashini o'rganishning samarali usulidir. Bundan tashqari, bu muammoni bartaraf etishning yagona yo'li, ko'p ma'lumotlar bilan ishlash texnikasini rivojlantirish zarur.



Yetarli darajada bilim va ko'nikma bo'lsagina, yaxshi natijaga erishish mumkin. Shuningdek, ovoz chiqarib o'ylash ham muammoli savollar echimini topishga xizmat qiladi va mukammal strategiya hosil bo'ladi. Ya'ni shoshilinch fikrlar va tahlillar chalg'itmasligi uchun, keng ma'nodagi bilim talab etiladi (masalan, yuqoridagi qurbaqalar haqidagi savolga javob topishda tur tushunchasining turli ta'riflari haqidagi biologiyada olgan bilimlarni ishlatish zarurligini ko'rib chiqdik). Quyida o'quvchilar tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan xatoliklar ro'yxatini va ularni qanday qilib oldini olish mumkinligi haqida tavsiyalarni ko'rib chiqamiz.

Yuqorida keltirilgan usullardan foydalanish asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati hamda muammoni echish ko'nikmasini samarali shakllantirish mumkin. Albatta bu kabi xususiyatlar o'quvchilar ongida qisqa muddat oralig'ida rivojlanib ulgurmaydi. Shu sababdan o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ya'ni, tayyorgarlik mashg'ulotlarida differensial topshiriqlarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish maqsadga muvofiq. Tayyorgarlik jarayonida o'quvchilarning bilim va fikrlash darajasi, qabul qilish imkoniyatlari, intellektual salohiyati va eng muhimi o'quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'iyosiddin Sa'dullayevich Bozorov, Dilnoza Tangriberdiyevna Samanova - Talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda bifunksional masalalardan foydalanish // «Tafakkur ziyosi» jurnali 2023-yil 2-son 155-bet
2. Abduvokhidov B. Modern methods of the preparation plan for the international biology olimpiad (IBO) // «Frontline social sciences and history journal» 2023, volume-03, page-62-74
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash.
4. Баишева, Марина Ивановна. Совершенствование методики подготовки учащихся к олимпиадам по математике // диссертация -С. 98.
5. Xalqaro biologiya olimpiadasi nazariy A imtihon savollari IBO - 2014, Bali 9-bet
6. Xalqaro biologiya olimpiadasi nazariy A imtihon savollari IBO - 2008, Mumbai 12-bet
7. Martyna Petruyte- How to prepare for the biology olympiad and science competitions // Copyright 2018 ISBN: 978-1-5272-2722-4 page-57



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

D.A.UTANBAYEVA,

Guliston davlat universiteti

«Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrası o'qituvchisi

Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganadi. Maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, o'qish savodxonligi, o'quvchilar bilan matn ustida ishlashda ahamiyat qaratish lozim bo'lgan jihatlar, xalqaro baholash dasturlariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlarning bu boradagi fikrlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturi, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, matn, badiiy matn, axborot matni, o'qish savodxonligi, tushunish darajalari, baholash tizimi, o'quv materiallari, grammatik sintaktik metod.

This study explores the possibilities of improving the methodology of preparing primary school students for PIRLS international assessment program. In the article, the PIRLS international assessment program, the specific features of preparing primary school students for the PIRLS international assessment program, reading literacy, aspects that should be focused on when working with students on the text, research on international assessment programs are discussed. the opinions of the visiting scientists are stated.

Key words: international assessment program, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, text, artistic text, informational text, reading literacy, comprehension levels, assessment system, teaching materials, grammatical syntactic method.

В этом исследовании изучается возможность улучшения методологии подготовки учащихся начальной школы к программе международной оценки PIRLS. В статье излагаются особенности подготовки учащихся начальных классов к программе международной оценки PIRLS, грамотность чтения, аспекты, на которые следует обратить внимание при работе с учащимися над текстом, мнения ученых, проводивших исследования по международным программам оценки

Ключевые слова: международная программа оценивания, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, текст, художественный текст, информационный текст, грамотность чтения, уровни понимания, система оценивания, методические материалы, грамматико-синтаксический метод.

Ta'lim tizimidagi islohotlarlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli qarorini keltirish mumkin. Bu qarorda xalqaro baholash dasturlari PIRLS - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun, TIMSS - 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish



darajasini baholash uchun, PISA – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun hamda TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish va ta‘lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha eng aniq va zarur bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnini o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan. Ushbu xalqaro tadqiqotda qatnashish mamlakatimiz ta‘lim tizimining salohiyatini, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini hamda bizning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarimizning boshqa davlatlardagi tengdoshlaridan matnini o‘qish va tushunish darajasi bo‘yicha qanday farqlarga egaligini aniqlashga imkon beradi.

O‘qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O‘quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o‘rganish, maktab va kundalik hayotda o‘zlari kabi boshqa o‘quvchilar jamoasiga qo‘shilish va vaqtini samarali o‘tkazish uchun o‘qiydilar.

Belina Elena Vladimirovna ilmiy izlanishlari davomida 1-4-sinf o‘quvchilarida badiiy matnini o‘qish madaniyatini shakllantirishni o‘rganish kitobxon-kichik maktab o‘quvchisining adabiy rivojlanishi va shaxsiy o‘shida hissiy-majoziy idrokning yetakchi rolini ochib beradi, degan xulosaga kelgan.

Matn ustida ishlash mohiyat e‘tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma‘naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni matndagi asosiy so‘zlarni qiyinchiliksiz ongli ravishda, tushunib tanlashga o‘rgatish ham matn ustida ishlashning muhim jihatidir. «O‘quvchi asar matn ustida ishlash jarayonida undagi fikr-g‘oyaning mag‘zini chaqishga harakat qiladi. Unda mustaqil fikrlash malakasi shakllanib, yangicha o‘quv-biluv sifatleri ham tarkib topadi». Bizningcha, PIRLS xalqaro baholash dasturiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini samarali tayyorlashda 1-sinfdanoq matnlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish zarur.

PIRLS xalqaro tadqiqotiga matnlarni tanlashda bir qator mezonlarga amal qilinadi. PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

Uzunligi: 1000 ta so‘z gacha.

Mavzu: badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo‘lib, u berilgan matndan tashqari o‘quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborot matnlari o‘quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

Til: 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo‘lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so‘zlari tanlanadi. Hech qanday so‘zlashuvga



oid soʻz yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

Mazmuni: matnning mazmuni 9-10 yoshdagi oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos boʻlgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab oʻquvchilari uchun qiziqarli va zavqli boʻlishi, hamda oʻquvchi uchun unchalik tanish boʻlmashligi lozim.

Bogʻliqlik va ketma-ketlik: syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnda matnning tuzilishi va maʼlumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi visual elementlar bilan bogʻliqligini kuzatish shartdir.

PIRLS tadqiqotida oʻqish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

– eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – oʻquvchilar matnni yaxlit oʻzlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bogʻliq holda tushunadi. Muallifning gʻoyasini izohlashda oʻz fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi;

– yuqori daraja (550 ball) – oʻquvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asosan oʻz xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga eʼtibor qarata oladi;

– oʻrta daraja (475 ball) – oʻquvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining baʼzi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan oʻz xulosalarini chiqaradi;

– quyi daraja (400 ball) – oʻquvchilar atnda aniq berilgan va cheklash oson boʻlgan xabarni ajratib oladi.

PIRLS tadqiqotida tushunib oʻqishni baholashga yoʻnaltirilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida aniq koʻrinishda berilgan maʼlumotni topish 20%ni, toʻgʻridan-toʻgʻri xulosalar chiqarish 30%ni, gʻoyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uygʻunlashtirish 30%, kontent va matn elementlarini baholash va tanqidiy yondoshuv 20%ni tashkil etuvchi muhim omil hisoblanadi. Bizningcha, boshlan-gʻich sinf oʻquvchilari bilan matn ustida ishlash jarayonida ushbu omillarga alohida eʼtibor qaratish zarur.

F.X.Aminova «Asar birinchi marta oʻqilgandan soʻng oʻtkaziladigan suhbat, birinchidan, oʻquvchilarga qanday taʼsir etganini bilish, ikkinchidan, bolalar matnni tahlil qilishga qiziqtirish bilan darsda faol ishlashga sharoit yaratish maqsadini koʻzda tutadi» – deya olib borgan tadqiqot ishida izohlab oʻtgan. Shunga koʻra PIRLS xalqaro tadqiqotiga oʻquvchilarni tayyorlashda har bir badiiy matn ustida ishlashda oʻquvchilar bilan oʻtkaziladigan suhbatlar nihoyatda samarali hisoblanadi.

Matn ustida ishlashda oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish nazarda tutiladi. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq oʻstirish jarayonida oʻquvchilar quyidagi kommunikatsion malakalarni oʻzlashtirishga muvaffaq boʻladi:

1. Mavzuni oʻz mulohazalari asosida ochib berish malakasi.
2. Mulohaza bildirishda asosiy fikrni ochib berish malakasi.
3. Mulohaza bildirish uchun materialni yigʻish malakasi.



4. Yig'ilgan materiallarni tizimlashtirish malakasi.
5. Yozma nutqni rivojlantirish malakasi.
6. Alohida kompozitsion shaklda mulohazalarni bildirish malakasi.

Matnni o'qish va tushunish jarayonida, sinfdagi o'quvchilar turli xil o'qish tezligiga ega ekanligini yodda tutish kerak. Shuning uchun, bir xil hajmdagi matndan parchani so'ramaslik kerak va shu vaqt oralig'iga e'tibor qaratish yaxshiroqdir. Yangi hikoya boshlanganidan so'ng o'qituvchi o'qiydi va bolalar ongli ravishda tushunishadi, o'qituvchi barchaga bir vaqtning o'zida o'qishni boshlashni va uni bir daqiqaga davom ettirishni taklif qiladi. Bir daqiqadan so'ng, o'quvchilarning har biri u qaysi so'zni o'qiganini payqadi. Keyin o'sha matnning ikkinchi parchasi o'qiladi. Bunday holda, o'quvchi yana matnini va uni birinchi o'qishning natijalari bilan taqqoslaydi. Tabiiyki, ikkinchi marta u bir nechta so'zlarni ko'proq o'qidi. O'qish sur'atining o'sishi o'quvchilarning ijbiiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, ularda yana o'qish uchun motiv oshib boradi. Biroq, bir xil parchani uch martadan ko'proq o'qimaslik kerak.

Ovoz chiqarib o'qish tezligini bir vaqtning o'zida tez rivojlantirishga o'rganish kerak.

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'quvchidan faqatgina og'zaki nutqning rivojlanishi emas, balki yozma nutqqa ham e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki shunday topshiriqlar borki, o'quvchilardan gap qurilishiga e'tibor berish talabi qo'yiladi. To'g'ri va to'liq tuzib, yozilgan javoblarga yuqori ball qo'yiladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bir qator interfaol metodlarni qo'llash zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni ta'kidlash lozimki, PIRLS xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishi davlatimizning qatnashuvchi davlatlar o'rtasidagi o'rinni ko'rsatib berar ekan bu jarayonga har birimizning mas'uliyat bilan yondashishimizni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-sonli Farmoni. 2018-yil 5-sentabr. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnini tushunish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. -T.: Sharq, 2019, -B. 14-15
4. Aminova F. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: ped. fan.nom. ... diss. -Toshkent, 2007. -B. 19-21.
5. Belina Elena Vladimirovna. Adabiy ta'limning bosqichi bosqichida o'quvchilar o'rtasida badiiy matn o'qish madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyaga avtoreferat. Qozon-2020.



OTMDA MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BOQICHLARI

E.O.SHARIPOV,

QarMII «Oliy matematika» kafedrasida mudiri, dosent

Ushbu maqolada ma'ruza mashg'uloti qanday tashkil etilmog'i kerakligi haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda «nimani o'qitish kerak?» emas, balki «nimani o'qitish mumkin va buni qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq?» ko'rinishda ta'lim jarayonini tashkil etishga yondashuv, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishning o'ziga xosliklari, amalga oshirish bosqichlari maqolada ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investisiyalar, ilg'or ta'lim texnologiyalari, o'quv mashg'ulotlari, interaktiv, muammoli jarayon, fan va amaliyot, ixtirolar, fikrlash.

В данной статье рассматривается, как должно быть организовано лекционное обучение. В настоящее время «чему следует учить?» а не «чему можно научить и как это следует делать?» В статье раскрываются подход к организации учебного процесса, специфика организации лекционно-практических занятий, этапы реализации.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, передовые образовательные технологии, обучение, интерактив, проблемный процесс, наука и практика, изобретения, мышление.

This article discusses how lecture training should be organized. Nowadays, «what should be taught» rather than «what can be taught and how should it be done» The approach to the organization of the educational process, the specifics of the organization of lectures and practical training, and the stages of implementation are disclosed in the article.

Key words: foreign investments, advanced educational technologies, training, interactive, problem-solving process, science and practice, inventions, thinking.

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida tamoyil sifatida qayd etilgan. Uzluksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri (Ta'limning milliy modeli), O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida talabalarga sifatli ta'lim berish bilan bir qatorda taraqqiyot bilan hamqadam bo'lib kelayotgan mutaxassislarni tayyorlash borasida ham izchil ishlar amalga oshirilishida Oliy ta'lim sohasidagi



islohotlarning yangi bosqichi oliy ta'lim qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi; ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda Oliy o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlatjamiyat tizimiga o'tilishi; ta'limning insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi; ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish; ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi,

Biz bu maqolada o'quv mashg'ulotlari qanday tashkil etilmog'i kerakligi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Hozirgi kunda ham ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari Oliy ta'lim tizimida o'qitishning (bilim berishning) yetakchi shakllari bo'lib kelmoqda. Ma'ruza dastlab qadimgi Gretsiyada yuzaga kelgan bo'lib, talabalarga nazariy bilim berishni, o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlashni nazarda tutadi.

2020 yilgi pandemiya bilan bog'liq voqyealar, shubhasiz, butun dunyodagi barcha shaxslar hayoti va faoliyatining turli sohalariga ta'sir ko'rsatdi. Oliy ta'lim tizimida ham boshqa sohalar qatori masofaviy ta'lim olishga majburan o'tishni va unga tez moslashishni taqozo etdi. Shuni ta'kidlash kerakki, Respublikamiz masofaviy ta'lim shakli uchun puxta tayyorgarlikka ega emas edi. Masofaviy ta'lim shaklidan foydalanishning asosiy maqsadi "ta'limning uzluksiz mavjudligini ta'minlash va ta'lim sifatini yaxshilash edi" [4].

Pandemiya davrida talabalar va o'qituvchilarning eng yaqin yordamchisiga aylangan masofaviy o'qitish tizimlari o'qish siklini uzilib qolishdan saqlovchi asosiy vosita bo'lib, uning ajralmas qismi ya'ni mustaqil ishni to'g'ri tashkil etishdan iborat [5].

Hozirgi kunda talaba fanlarni chuqur o'zlashtirishi uchun o'quv rejada ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ishga soatlar ajratilgan. Talaba auditoriyada egallagan nazariy bilimlarini amaliy va laboratoriya ishlarini bajarishda va yanada mustahkamlash maqsadida o'z ustida ko'proq mustaqil ishlashi zarur [6].

O'quv mashg'ulotlarni tashkil etish to'g'risida turli fikrlar yuzaga kelmoqda. O'quv mashg'ulotlari qanday tashkil etilsa o'z oldiga qo'yan maqsadiga to'laqonli erishishi bugungi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Asosan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ikki tomonlama fikrlar yuzaga kelmoqda, ya'ni an'anaviy va noan'anaviy usullar.

Birinchi fikr tarafdorlari hozirgi kunda o'quv mashg'ulotlari bo'lishi shart,



chunki axborotlar makonida ma'lumotlar juda ko'pligi sababli aynan o'quv mashg'ulotlari talabalarga to'g'ri ma'lumotlarni tanlashda yordam beradi. Shuning uchun ma'ruza mashg'uloti keyingi guruhiy mashg'ulotlarga (amaliy, seminar, laboratoriya) tayyorlanishda, kurs yoki bo'limlar bo'yicha qisqa kirish shaklida olib borilsa yanada ko'proq samara beradi deb hisoblaydilar.

Shuningdek ma'ruza-mavzu bo'yicha tizimli tahlillar berish talab etilgan hollarda maqsadga eltuvchi o'quv mashg'ulot shakli ekanligi, talabalarni ilmiy va amaliyot bilan shug'ullanishiga yo'naltiruvchi, hamda olingan bilimlardan samarali foydalanish uslubini deb ta'kidlaydilar.

Ikkinchi fikr tarafdorlari esa axborot va ma'lumotlar yetarli, mustaqil o'qish va ijod qilishga katta ahamiyat berilayotgan, virtual va animasion ma'ruzalar mavjud bo'lgan bir vaqtda ma'ruzani o'qitishning "nafaol" shakli sifatida ikkinchi o'ringa qo'yish va uni o'quv jarayonidan chiqarish lozimligini yoqlashmoqdalar.

Shuningdek ma'ruza - boshqa shaxs (ma'ruzachi) fikrini nafaol qabul qilishga o'rgatadi, ya'ni mustaqil fikrlashga to'sqinlik qiladi, bu esa mustaqil ta'lim samaradorligini pasaytiradi va nihoyat ayrim talabalar tushunishga ulgurishsa, ayrimlari faqat ma'ruza matnini mexanik yozib oladilar xalos deb ta'kidlaydilar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimni to'g'ri tashkil qilish doimo davlat faoliyatining muhim tarkibiy qismi, ta'lim olish esa muhim kadriyat xisoblanib kelgan, chunki u jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi uchun asos, ijtimoiy barqarorlik omillaridan biri, intellektual resursning usish manbai va axolining ma'naviy-axlokiy salohiyatidir. Hozirgi kunda aholining ta'limga bulgan ehtiyoji ortib, oliy ta'limga talabgorlar soni kupayib bormoqda. Bugungi yangi O'zbekiston sharoitida turli tipdagi ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda, ular urtasidagi alokalar mustaxkamlanmokda, ayni paytda takomillashib, murakkablashib xam bormoqdaki, ta'lim infratuzilmasida boshqaruv, metodik va ilmiy -tadkikot xizmatlarining shakllanishi natijasida kadrlar bazasi mustaxkamlanishiga, ta'limning shakli, mazmuni va usullari yangilanishiga hamda bilimning xayotiy axamiyatini oshirishga karatilgan ta'lim berishga e'tibor qaratilmoqda.

O'quv mashg'ulotlaridan ma'ruza mashg'uloti - aniq mavzu bo'yicha ma'lumotni taqdim etishni umum qabul qilingan usuli hisoblanadi. Ma'ruzadan ma'lum ketma-ketlik asosida nazariy xarakterdagi materiallar o'qituvchi tomonidan talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Ma'lumotlar va axborotlarni qabul qilish talabalarning bilim darajalari, malakasi, tayanch ma'lumotlari va yoshiga bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi.

O'quv mashg'ulotlari an'anaviy uslublar asosida tashkil etilganda, ya'ni matni o'qib yoki og'zaki bayon qilib, slaydlar, tarqatma materiallardan foydalanib, mavzuning asosiy va muhim iboralarini yozdirib olib borilsa talaba qoniqarli darajada o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtiradi.

Bizning xulosamizga hozirgi kunda "nimani o'qitish kerak" emas, balki "nimani o'qitish mumkin va buni qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq" ko'rinishda




ta'lim jarayonini tashkil etishga yondashish Oliy ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu maqsadda o'quv mashg'ulotlaridan ma'ruza mashg'uloti quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi (1-rasm.) [2, 6].

O'quv mashg'ulotlaridan ma'ruza mashg'ulotida ushbu qarama-qarshilikni obyektivlashtiruvchi savol bilan yakunlanadi. Bu yerda ushbu qarama-qarshilikni hal qiluvchi savolga javob noma'lum bo'ladi va u muammo hisoblanadi. Bunda talaba o'quv mashg'ulotida ma'ruzaning yuqoridagi uslublariga qaraganda tezroq va ko'proq o'zlashtiradi.

Yuqoridagi qarama-qarshi fikrlar ma'lum bir ma'noda o'rinni ekanligini va bu fikrlarning yechimi yangi pedagogik texnologiyalar asosida ijobiy hal etilishi lozim [7].

O'quv mashg'ulotlaridan amaliy mashg'ulotni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (2-rasm.).



1-rasm. Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish bosqichlari



2-rasm. Amaliy mashg'ulotini tashkil etish bosqichlari

Ta'limni yaxlitligini ta'minlashda fanlararo ichki va tashqi bog'lanishlarini ta'minlash juda zarur qadam hisoblanadi. Shunday ekan ta'limning o'rtasi umumiy va oliy ta'limda ham bosqichlararo bog'lanishni amalga oshirish ma'lum ma'noda ta'lim sifatiga ta'sir etadi. Zero, har qanday fanni o'rganishda o'tilgan mavzuni bilmaslik yangi mavzuni tushunmaslikka sabab bo'ladi. Ayniqsa, matematikani yaxshi



o'zlashtirish uchun o'tilgan mavzuning asosiy tayanch tushuncha va natijalarini bilish kerak. Buning uchun esa o'z-o'zini tekshirish uchun berilgan savollar bo'yicha o'tilgan mavzuni takrorlash lozim bo'ladi. Shu sababli ta'lim bosqichlararo bog'lanish aniq va tabiiy fanlar ta'limining ajralmas qismini hisoblanishi kerak.

Xulosa sifatida shuni takidlash joizki ijtimoiy sheriklik ta'limiy, ilmiy, uslubiy resurslarni maktabgacha ta'limdan oliy o'quv yurtlarigacha taksimlanishiga, xamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri yunaldirish va rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim soxasini rivojlantirish uchun jamiyat resurslaridan unumli foydalanish, ta'lim subyektlarining ta'lim xizmatlari bozorida rakobatbardoshlik kobilyatini shakllantirish uchun ta'lim jamoasi va klaster xamkor subyektlarining xayotiy tajribasini tuplash, ijobiy jixatlarni ommalashtirish lozim.

Ijtimoiy sheriklik barcha hamkorlar uchun umumiy bo'lgan ustuvor istiqbolni kuzlagan holda samarali va muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy sheriklikka asoslangan tadbirlar majmui xamkorlikka jalb etilgan jamiyat a'zolariga eng samarali va tejamkor yordam kursatish imkonini beradi.

Bunday hamkorlikka asoslangan umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim munosabati mexanizmlariga asoslan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 1992.

2. Шарипов Э.О. Академик лицейларда математик анализ асосларини ўқитиш методикаси.: Пед. фан. фалс. д-ри. ... дисс. - Тошкент: ЎЗМУ. 2019. - 144 б.

3. Шарипов Э.О., Изетаева Г.К. Педагогик технологиянинг таълим жараёнига татбиғи. // Халқ таълими. - Тошкент, 2012. - №1. - Б. 24-28.

4. С.Я.Аллаярова, У.Х.Сайитова Масофавий таълим: мазмуни, имкониятлари ва камчиликлари. Асадемис Ресеарч ин Едусатионал Ссиенсес, 2(1), 930-936.

5. Tursunov Q.Sh., Uzoqova G.S. Fizika ta'limi va ilmiy izlanish metodlari.-Toshkent shahri, j: «Fizika, matematika va informatika».-111-118 б.- №1.-2014.

6. Tursunov Q.Sh. Fanlararo bog'lanish asosida tabiiy-ilmiy g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish yo'llari.-Некус ша'ри, ж: «Муғалим ҳем узликсиз билимлендириў».-74-77 б.- №3.-2014.

7. Тожиев М., Хуррамов А. Таълим жараёнини педагогик технология асосида ташкил қилишда қўлланиладиган замонавий таълим усуллари. Тошкент 2014.-96 б



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA TABIATNI ANGLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MAZMUNI

S.KARIMOVA,
GuLDU tayanch doktoranti

Bolalarni tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ularda tabiat xodisalarini kanday yuzaga kelishi haqida boshlang‘ich tasavvur xosil qilish, ilmiy dunyoqarash ko‘rtaqlarini shakllantirish, tabiatga muxabbat uyg‘otish va undan oqilona foydalanishni o‘rgatish bevosita boshlang‘ich sinfda «Tabiiy fan» orqali amalga oshiriladi. Mazkur maqola o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bugungi kun metodikasi oldiga qo‘ygan vazifalarga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, o‘quvchilar, tabiatni anglash, atrof-muhit, ekologik tushunchalar, tabiatni asrash va unga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiatga qiziqish, o‘qituvchi mahorati.

Introducing children to the environment and nature, forming a basic idea of how natural phenomena occur; forming scientific worldviews, instilling love for nature and teaching it to use it wisely is carried out directly in the primary school through «Natural science». This article is devoted to the tasks of today’s methodology in developing students’ skills to understand nature.

Key words: primary education, students, awareness of nature, environment, ecological concepts, nature conservation and rational treatment, interest in nature, teacher skills.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4805-son Qarorining 1.2 bandida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quv-metodik bazasi holatini yaxshilash, o‘qitish jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy etish masalasiga e‘tibor qaratilgan. Xususan, tabiiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish maqsadida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fanni yagona fan sifatida tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifaga:

- o‘quv rejaga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;
- milliy o‘quv dasturini yaratish;
- tabiiy fanlar (Science) fani uchun darsliklarni yaratish;
- o‘quvchilar uchun mashq daftarlarini yaratish;



- o‘qituvchilarning yagona fan bo‘yicha bilimlarini hamda uslubiy
- ko‘nikmalarini yaxshilash bo‘yicha malakasini oshirish;
- tabiiy fanlar (Science) fanini bosqichma-bosqich joriy etish.

Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risidagi qonun»da ta'kidlanganidek: «Maktabning 1-sinfliga bolalar 6-7 yoshdan kabul kilinadi. «Boshlang'ich ta'lim konsepsiya»sida e'tirof etilganidek, 6 yoshga tulgan har kandy bola aqliy, ruxiy va jismoniy jihatdan maktabga o'qish uchun tayyor bo'lganda maktabning moddiy texnik ba'zasi bunday bolalarga ta'lim berish uchun yetarli deb xisoblaganda hamda o'quvchilar pedagogik hamda psixologik jihatdan olti yoshli bolalarni o'qishga tayyor bo'lganda ularni maktabga kabul qilish mumkin. Buning uchun 6-7 yoshli bolalar, maktabning moddiy texnik ba'zasi hamda o'qituvchilar pedagogik va psixologik talablar asosida kat'iy diagnostika kilinishi shart».

O'zbekiston Respublikasida «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom»da ta'kidlanganidek; «Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va kunikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish o'quvi, nutq va xulk-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush asoslari egallab olishini ta'minlashi da'vat etilgan». Shu asosga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'unikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish saloxiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyo qarashini, komunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash saloxiyatini shakllantirishda, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borlik go'zalliklarini xis eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urfodatlarini xis eta olishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi[23].

Bolalarni tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ularda tabiat xodisalarini kandy yuzaga kelishi haqida boshlang'ich tasavvur xosil qilish, ilmiy dunyoqarash ko'rtaqlarini shakllantirish, tabiatga muxabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish bevosita boshlang'ich sinfda «Tabiiy fan» orqali amalga oshiriladi.

O.A.Doninaning ta'kidlashicha, tabiat ta'lim sohasi bo'yicha standart ko'rsatkichlar bolaning tabiat va undagi hodisalar hakidagi tasavvurlariga ega bo'lishi, ularni farklay olish, qisqacha tavsiflab berish xamda amalda kullay olishga o'rganish nuqtai nazaridan belgilanadi.

«Tabiiy fan» hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarning 1-4 o'qitiladi. 5-sinfda «Biologiyaga kirish» fanidan so'ng, 6-sinfda «Tabiiy fanlar» yana davom ettiriladi.



Boshlang'ich sinflarning 1-2 sinflarida «Tabiiy fanlar» fanining asosiy maqsad va vazifasi bolalarning predmet va tabiat xodisalarini, ijtimoiy xayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, sistemaga solish, ularning axloqiy ko'nikmalarini boyitish, odamlar xayoti va mexnatiga kizikish uyg'otish, oila, maktab, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bolalarning atrof olam xakidagi tasavvur va tushunchalarini shakllantirish bilan boglik xolda ularning so'z boyliklarini oshirish zarur.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarimizni atrofimizdagi olam, tabiat bilan tanishtirish jarayonida asosiy diqqat e'tibor ekologik muammolarga karatiladi. Bunda insonning tabiatga ta'siri, usimliklarning usimlik bilan, o'simliklarning xayvonlar bilan, xayvonlarning xayvonlar bilan o'zaro alokasi va boglikligi o'rganiladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi [67, 78, 94].

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Ushbu mezonlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglashga bo'lgan qiziqishni shakllantiribgina qolmay, ayni vaqtda yuzaga kelgan qiziqishni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga ham yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning olami o'zgacha bo'lib, boshqa bolalar olami bilan bog'liq bo'ladi. Bola yoshi ulg'aygan sari tengdoshlari bilan ko'proq muloqotda bo'ladi. Bolalik davrida bola mustaqil bo'lishni, o'z qiziqish va ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi. Kichik maktab yoshida bolada jamoaviy sifatlarni shakllanishidagi senzitiv davr hisoblanadi, shuningdek, boshqa odamlarga nisbatan insoniy munosabatlarni uyg'otadi. Agarda bu sifatlarning asosi maktabgacha yoshda shakllanmasa, bola shaxsi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning oqibatida



bola rivojlanishida to'siqlar ro'y beradi. Bu yoshda bilish faolligi ortib boradi: idrok, ko'rgazmali tafakkur rivojlanadi, matniiy tafakkur kurtaklari paydo bo'ladi.

Bilish imkoniyatlarining o'sishi xotira, ixtiyoriy diqqat hosil bo'lishiga olib keladi. Maktabgacha bolalik davrida bolada atrof-olam haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo'ladi, atrof-dagi voqeelik va hodisalarning oddiy o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini anglash ko'nikmasi shakllanadi. Shuningdek, olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo'llay oladilar.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni anglashga bo'lgan qiziqishni shakllantirish murakkab pedagogik masala bo'lib, uning ijobiy hal etilishi tegishli ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-2-sinflarida o'qitiladigan «Tabiiy fanlar» darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So'z yuritilayotgan jarayonda bir qator psixologik va pedagogik xususiyatlar ko'zga tashlanadiki, o'qituvchi tomonidan ularning o'z vaqtida ilg'ay olinishi kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гладкова А.Н. Процесс формирования исследовательских умений младших школьников во внеурочной деятельности // Историческая и социально - образовательная мысль. - 2012. - № 4. С. 218-221.

2. Крохина И.Г. Педагогическая технология формирования естественнонаучных компетенций младших школьников. Автореф. дис. канд. пед. наук. Ижевск, 2006. - 20 с.

3. Ниязова Г.Б. Развитие основ исследовательской компетентности учащихся начальной школы // Проблемы современного образования. 2017. №1. - С. 90-98.

4. Sangirova Z.B. Umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim muhitini yaratishda o'quv-loyiha ishlarining o'rni // O'zMU xabarлари// - T.: 2021, № 6. - B.181-183.

5. Sangirova Z.B. STEAM o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida //Uzluksiz ta'lim// - T.: 2020, № 6. - B.54-57.



UZLUKSIZ TA'LIMDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV SALOHİYATINI ILMIY-USLUBIY JIHATDAN MAZMUNI VA SHAKLLARI

T.X.XALIKOV,

TerDU, «Rus va jaxon adabiyoti» kafedrası o'qituvchisi

Makolada «bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyati» toifasini aniqlash bo'yicha qidiruv yo'riqnomalari «kreativlik», «kreativ tafakkur», «kreativ fantaziya», «ijodiy o'zini-o'zi amalga oshirish», «kreativ salohiyat», «o'qituvchining ijodiy salohiyati» tushunchalari bo'ladi. Falsafiy nuqtaiy nazardan, o'qituvchining ijodiy va kreativ salohiyati – bu hech qachon bo'lmagan, sifat jihatidan yangi narsalarni keltirib chiqaradigan faoliyatdir.

Kalits so'zlar: Pedagogik ijodkorlik, kreativ salohiyat, kreativ muloqot, kreativ tasavvur, kreativ qobiliyat, kreativ yo'naltirish, kreativ tafakkur, kreativ fikirlash, ijodiy tafakkur.

In the article, the search guidelines for determining the category «creative potential of future teachers» will include the concepts «creativity», «creative thinking», «creative fantasy», «creative self-realization», «creative potential», «creative potential of the teacher». From a philosophical point of view, the creative and creative potential of a teacher is an activity that creates qualitatively new things that have never existed before.

Key words: Pedagogical creativity, creative potential, creative communication, creative imagination, creative ability, creative orientation, creative thinking, creative thinking, creative thinking.

Bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ madaniyatini rivojlantirish modelining amaliy komponentlari interfaol yondashuv (kreativ, faollik, reflektiv, empatik), kasbiy kompetensiyani bosqichma – bosqich shakllantirishga doir amaliy tavsiyalardan «Pedagogik mahorat» fanini o'tish jarayonida foydalanilgan. Natijada bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda kasbiy kompetensiyasining metodik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish loyihaviy ta'lim texnologiyasi «Ideal o'qituvchi namunasi», «Kelajak maktabi o'qituvchisi» ijtimoiy loyihalarini modulli (bilishga doir va kasbiy) va muammoli (vaziyatlar, keys topshiriqlari) ta'lim jarayonlarida qo'llashning roli, ishbilarmonlik o'yinlari, mustaqil faoliyatni tashkil etishning imitatsion (kontekstli-o'yinli vaziyatlar) usullari 5111700-boshlang'ich ta'lim, sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan. Natijada, loyihaviy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyati takomillashtirilgan.

O'qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosi pedagogika (E.E. Adakin, I.I. Ignatenko, M.Yu. Komarova, T.M. Krivo, A. Yu. Mixaylov, A.A. Perevalova,



V.G.Рындak, N.S.Shumilova, G.S. Yalмурzina va boshqalar) va psixologik (I.V.Davidova, S.V.Pimonoва va boshqalar) fanlari bo'yicha dissertatsiya tadqiqotining predmeti hisoblanadi. «Ijodiy salohiyat» toifasi maktab o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosini (G.M.Mardanova) va bo'lajak dizaynning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosini O.P.Tarasova tadqiqotlarida batafsil ko'rib chiqilgan. Pedagogika fanida «kreativ faoliyat», «kreativ muloqot», «kreativ tasavvur», «ijodiy va kreativ mustaqillik», «kreativ qobiliyat», «kreativ yo'naltirish», «ijodiy va kreativ o'zini-o'zi amalga oshirish», «kreativ tafakkur», «kreativ fikirlash», «kreativ fantaziya», «ijodiy va kreativ faoliyat», «kabi tushunchalar qo'llaniladi». Ularning barchasi o'zaro bog'liq, ba'zilar esa bir-birini almashtiradi.

«Kreativ salohiyat» tushunchasining mazmunini aniqlashtirish uchun belgilangan kategoriyalarning ma'nolarini falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtaiy nazardan ko'rib chiqamiz.

«Potensial» toifasi (lotincha potencia – imkoniyat, kuch) zamonaviy ta'limning barcha pedagogik tushunchalarini qamrab oladi. Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodologiyasida akmeologik, aksiologik, tarbiyaviy, intellektual va boshqa potensiallar mavjud bo'lib, bu toifani rivojlantirishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Faylasuflarning fikricha, «mavjud aktual doimo mavjud potensialdan kelib chiqadi», ya'ni borliq «potensial» yoki «aktual» bo'lishi mumkin, bo'lish esa ikkinchidan birinchisining hosilasidir. Aristotel (miloddan avvalgi 384-322) ontologik taraqqiyotning asosiga aylangan «harakat» va «potensial» kabi tushunchalarni sifat, fazoviy va mazmunli o'zgartirish qobiliyati deb ta'riflagan. Psixologlarning ta'kidlashicha, shaxs ikki yo'nalishda rivojlanadi: potensial va dolzarb. Potensial sohaga insonga xos bo'lgan tabiiy xususiyatlar kiradi; shaxs sifatidagi xususiyatlar, qobiliyatlar, shaxs rivojlanishi uchun foydalanish mumkin bo'lgan jamiyatning ijtimoiy imkoniyatlari. Haqiqiy sohaga sifat jihatidan yangi o'zgartirilgan potensial kiradi, shuning uchun ishimizga haqiqiy faoliyatni olamiz.

S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedova «Rus tili lug'ati»da, potensial «biror narsa uchun zarur bo'lgan vositalarning yig'indisi, qaysidir ma'noda kuch darajasi» deb ta'riflangan, sifatdosh potensial esa «qudratda mavjud mumkin» deyilgan.

V.J.Kellening so'zlariga ko'ra, va biz uning fikriga qo'shilamiz, potensial shunday imkoniyatki, faoliyatda ro'yobga chiqqach, yaxshilanadi va ehtimollik imkoniyati bo'lib qoladi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida «potensial», toifasi noaniq xarakterlanadi. Katta Ensiklopediyasida «potensial» tushunchasi «maq-sadga erishish uchun mavjud va safarbar etilishi mumkin bo'lgan vositalar, zaxiralar, manbalar, ya'ni real resurslar yig'indisi», sifatida ochib berilgan.

Shunday qilib, potensialning muhim xususiyatlari quyidagilar bilan



belgilanadi: harakatga safarbar etilishi va maqsadga erishish, har qanday muammoni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, imkoniyatlar, qobiliyatlar va resurslar.

«O'qituvchining kreativ salohiyati» toifasini aniqlash bo'yicha qidiruv yo'riqnomalari «ijodkorlik», «kreativlik», «ijodiy salohiyat», «o'qituvchining ijodiy salohiyati» tushunchalari bo'ladi.

Falsafiy nuqtaiy nazardan, ijodkorlik – bu hech qachon bo'lmagan, sifat jihatidan yangi narsalarni keltirib chiqaradigan faoliyatdir.

Rossiya psixologlari va o'qituvchilarining tadqiqotlarida (B.G. Ananev, B.D. Bogoyavlenskaya, P.P. Blonskiy, A.N. Leontev, K.K. Platonov, Ya.A. Ponomarev, S.L. Rubinshteyn, V.A. Suxomlinskiy, D.B. Elkonin) va boshqalarning fikriga ko'ra, ijodkorlik ikki nuqtaiy nazardan ko'rib chiqiladi: ba'zi olimlar ijodkorlikning shaxsiy asosini ajratib ko'rsatishadi, ijodkorlik insonning integral sifati, yangi narsalarni kashf etishga ichki yo'naltirilganlik, insonning qobiliyatli bo'lish qobiliyatidir. Xayratda qolish va o'rganish, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati; boshqalari esa ijodkorlikning faoliyat asoslarini ajratib ko'rsatish, uni yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratish jarayoni bilan bog'lash. L.S. Vigotskiy ijodkorlikni «... yangi narsalarni yaratuvchi shunday inson faoliyatiki, uni qandaydir tashqi narsa yaratganligining ahamiyati yo'q, dunyo, yoki ong, yoki tuyg'uning ma'lum bir qurinishidir...» deb ta'riflaydi.

Falsafada ijodkorlik deganda yangi narsani amalga oshirish yoki boshqacha tarzda amalga oshirish qobiliyati tushuniladi: masalaning yangi yechimi, yangi usul yoki vositasi va hokazo. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, inson dunyoni shakillantiradi va yaratadi. Dunyoni o'zgartirish nuqtai nazaridan ijodkorlik «agar subyektning dunyoga va o'ziga bo'lgan fundamental ijodiy munosabati haqiqatan ham maqul bo'lsa, demak, u ushbu mavjudotga (va bilimga) qandaydir qo'shimcha yoki qo'shimchalarning bog'lanishini ham o'z ichiga oladi, nisbatan yangi, misli ko'rilmagan natijani to'ldiradi.

Ijodkorlikni rivojlantirishga oid dastlabki tadqiqotlar D. Simpson (1922) asarlarida uchraydi, unda ijodkorlik stereotipik fikrlash usullarini rad etish sifatida tushuniladi. Ijod nazariyasini rivojlantirishga keyin chet el olimlari J. Gilford va Ye. P. Torrens ijodkorlik konsepsiyasini ishlab chiqarishda xissa qo'shgan. J. Gilfordning fikricha, tafakkur konvergent (analitik fikrlash yoki ehtimoli fikrlash) va divergent (bir muammoning bir nechta yechimlarini izlash) mumkin. U ijodkorlikni aqlning tarkibiy qismi deb hisoblaydi va ijodkorlikning asosini divergent fikrlash tashkil etadi, deb hisoblaydi. Ye. P. Torrenning so'zlariga ko'ra, ijodkorlikning rivojlanishi tashqi tomondan o'tatilgan cheklolar va standartlarni yengib o'tish orqali amalga oshadi. Ijodkorlikni rivojlantirishning uslubiy asosi – bu muammolarni hal qilishga asoslangan o'qitish, anagrammalar va psixo-gimnastika mashqlari. R. Krachfeld ijodkorlikni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqdi, u ijodiy qobiliyatlarini faollashtirishdan iborat bo'lib, ijodiy muammolarni yanada hal qilishga qaratilgan.



1981-yilda Edvard De Bononing «Oltita fikrlash qalpoqlari» nomli kitobi nashr etildi, unda oltita fikrlash shlyapalari usuli tasvirlangan (mashhurlik qozongan va hozircha aql va ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha dars va treninglarda qo'llaniladi).

Mahalliy psixologiya va pedagogikada «ijodkorlik» tushunchasi ijodkorlik qobiliyati sifatida qaralib, «ij odkorlik» yoki «ijodiylik» deb tarjima qilinadi.

Xulosa kilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyati ilmiy-uslubiy jixatdan mazmuni va shakllari, «kreativlik», «kreativ tafakkur», «kreativ fantaziya», «ijodiy o'zini-o'zi amalga oshirish», «kreativ salohiyat», «o'qituvchining ijodiy salohiyati» – bu hech qachon bo'lmagan, sifat jihatidan yangi narsalarni keltirib chiqaradigan faoliyatdir. O'rganilayotgan muammo borasida biz «kreativlik salohiyat»ni ilmiy-uslubiy jixatdan mazmuni va shakllarini kasbiy faoliyatda safarbar qilinadigan ichki zahira deb tushunamiz.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги- Т.:3 боб.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 14-августдаги «Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонийбаркамол этиб тарбиялаш уларга таълим – тарбия бериш тизимини сифат жихатидан янги босқичда кўтаришчора тадбирлари тўғрисида» ПҚ-3907-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси 15.08.2018 й. 07/18/3907/1706-сон.

3. Абдуқодиров А. ва бошқалар. Таълимда инновацион технологиялар. «Истеъдод» жамғармаси - 2008.-145 б.

4. Педагогическое мастерство и педагогические технологии: Учебное пособие. / Под ред. Л. К. Гребенкиной, Л.А.Байковой. - М.: Пед.общество России, 2000. - 250 с

5. Зарипова М.К. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш жараёнларини интегратив ёндашув асосида такомиллаштириш: Пед.фан. фал. док. (PhD) дисс....-Терм.,2022.-140 б.

6. Русакова Л.Н. Пути повышения эффективности контроля учебно-познавательской деятельности студентов: Дисс....канд.пед.наук. - Киев: 1991. - 167 с.

7. Сагаутинова М.И. Педагогические условия формирования готовности будущих учителей к профессиональной самоактуальности: Автореф.-дисс.канд. пед.наук. - Алматы, 1999. - 30 с.



РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕТОДОМ ПРОЕКТОВ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,
академик АНРУз, д.п.н.

В статье представлен подход к исследовательской деятельности младших школьников, рассмотрено обучение их умениям и навыкам исследовательского поиска. Представлена работа, учителя по различным видам проектов и общая структура исследовательских работ. Разработана удобная таблица для ее заполнения обучающимися при подготовке к исследованию. Раскрыта цель исследовательских работ для младших школьников посредством зоны ближайшего развития.

Ключевые слова: младший школьный возраст, зона ближайшего развития, самостоятельности, исследовательская деятельность, метод проектов.

The article presents the author's approach to research activity of younger schoolchildren and considers their training abilities and skills of research. The work of teachers in various types of projects and the overall structure of research is presented. A convenient table has been developed for its filling by students in preparation for the study. The goal of research works for younger schoolchildren through the zone of proximal development is disclosed.

Key words: younger school age, zone of proximal development, independence, research activity, project method.

Взрослым важно знать, что для освоения нового дети подолгу наблюдают за взрослыми, подражают им и лишь потом начинают воспроизводить все самостоятельно. Главное, что должны уяснить взрослые, - ребенку нужно общение и взаимодействие. Деятельность над выстраивать на сотрудничестве взрослого и ребенка. Взрослый не просто осуществляет руководство над действиями обучаемого, он оказывает дозированную помощь, которая поддержит интерес и подтолкнет к дальнейшим действиям. Все, что сегодня ребенок делает совместно со взрослым, завтра он сделает сам. Из зоны ближайшего развития его умения переходят в актуальную зону. Известно [3], что понятие «Зона ближайшего развития» было введено Л. С. Выготским, который считал ее важнейшим фактором развития самого ребенка. Рассмотрим применение этого понятия на примере написания проектно-исследовательских работ младшими школьниками.

Младший школьный возраст является важным периодом жизни ребенка. За 4 года дети усваивают большое количество учебного материала, в



котором заключены основы наук, искусства, морали, права и других развитых форм общественного сознания. В этот период ребенок усваивает специальные психофизические и психические действия, которые обслуживают разные виды учебной деятельности. Период обучения в начальной школе является благоприятным и значимым для выявления и развития творческого потенциала личности. Ребенок в этом возрасте любопытен, ему все хочется знать, изучить, потрогать. Ему все интересно. Учителю требуется развивать заложенную в каждом ребенке творческую активность, воспитывать у него необходимые для этого качества, создавать педагогические условия, которые будут способствовать этому процессу. Наиболее благоприятным условием развития познавательной активности является использование метода проектов. Он формирует у обучающихся умения самостоятельно добывать новые знания, собирать необходимую информацию, выдвигать гипотезы, делать выводы и умозаключения.

Главные идеи этой системы состоят в следующем: с большим увлечением выполняется ребенком только та деятельность, которая им выбрана самостоятельно; деятельность выходит за пределы учебного предмета; опирается на увлечения детей; истинное обучение никогда не бывает односторонним, важны и побочные сведения.

Цель проектного метода – развитие у младших школьников способности работать с информацией, обучение самостоятельному мышлению, умению работать в команде.

Зона ближайшего развития – концептуальное пространство, которое ребенок уже готов освоить с чьей-то помощью. Уровень развития, достигаемый ребенком в процессе его взаимодействия со взрослым, реализуется развивающейся личностью в ходе совместной деятельности со взрослым, но не проявляется в рамках индивидуальной деятельности. Данное понятие было введено в психологический лексикон Л. С. Выготским, с одной стороны, для того, чтобы подчеркнуть принципиальную особенность развития личности на ранних стадиях онтогенеза, когда ребенок усваивает и присваивает накопленный социальный опыт, прежде всего, путем партнерского деятельностного взаимодействия со взрослым, а с другой – для того, чтобы качественно развести актуальный уровень развития ребенка, который проявляется им в индивидуальной деятельности, и тот, более высокий уровень развития, который реализуется развивающейся личностью, но лишь в рам-



ках совместной деятельности со взрослым, выступая как «область не созревших, но созревающих процессов» [5, с. 400]. Л. С. Выготский подчеркивал, что обучение может быть активизирующим развитие детей только в том случае, если оно адекватно для данного ребенка по форме и содержанию.

Рассмотрим виды проектов (по Е. С. Полат [4]). Их принято различать по характеру доминирующей в проекте деятельности:

- исследовательские проекты;
- информационные проекты;
- практико-ориентированные проекты; творческие проекты;
- игровые проекты.

В начальных классах учитель ведет работу по каждому виду проектов. Например, на уроках по предмету «Окружающий мир» ребята готовят информационные проекты, они небольшие и направлены на сбор информации о каком-либо объекте, явлении, на ознакомление участников проекта этой информацией и на ее анализ и обобщение фактов. Работа ведется в паре с соседом.

Творческие проекты. Ребятами изготовлены стенгазеты «Мои первые каникулы», «Наше лето», «Наши мамы», книжки-малышки о пословицах и поговорках, временах года... Сначала написала мы делали их вместе, нам активно помогали родители. В классе у нас работает самоуправление. Ребята разделены на группы, каждую четверть они меняются. Отчет о проделанной работе представляют в виде проекта. В него входят сценарии проведенных мероприятий, результаты конкурсов. Работа проводится совместно с библиотекарем школы. Темы ребятам предлагает фельдшер школы. Она же и дает ребятам первичную информацию. Совместно с учителем физкультуры разрабатывается комплекс упражнений для поддержания осанки и сохранения зрения, которые ребята обязательно проводят с одноклассниками. Конечно, первоклассники сделать сами ничего не смогут. Активно помогают им родители, старшие братья, сестры. Главная роль на этом этапе отводится учителю, именно он заинтересовывает ребят, мотивирует, показывает уже имеющиеся проектные работы, сделанные с детьми предшествующего выпуска.

Задача педагога – дать нужное направление творческому мышлению обучающегося, стимулировать творческий поиск, создавая соответствующие ситуации и условия, дать толчок к систематическому исследованию, анализу, поиску новых, своих собственных путей решения той или иной проблемы.



Правильно сформулированные цели и задачи способствуют развитию творческого мышления. Интерес от проекта к проекту возрастает. Из зоны ближайшего развития их деятельность переходит в актуальную зону развития. То, что изначально доступно для ребенка под руководством взрослых, становится затем его собственным достоянием (навыками, умениями). Ребята учатся работать самостоятельно, находить нужную информацию из огромного потока, правильно ее группировать, выделяя самое важное, полезное, интересное. Учителю постепенно отводится роль соучастника диалога, способного к импровизации, умеющего быстро отреагировать на возможные версии; друга, которому можно доверить даже сомнительную гипотезу, а ход рассуждений так интересен и нов, как он интересен и нов для учащихся.

Остановимся отдельно на следующем виде проектов - исследовательские. Они имеют четкую, продуманную структуру, которая практически совпадает со структурой реального научного исследования. По содержанию наши работы бывают монопредметными либо межпредметными, но встречаются и надпредметные. Известно, что запоминается надолго то, что ребенок открывает сам.

Безусловно, в исследовательской деятельности огромную поддержку детям оказывают родители. Они вместе с детьми обдумывают тему, ищут дополнительный материал, проводят исследования, формулируют вопросы для анкетирования. Создается продуктивный «педагогический треугольник» (учитель – ученик – родитель). Он возникает с того момента, когда ребенок поступает в образовательное учреждение. От того, как складываются отношения между педагогами и обучающимися, зависят и достижения в воспитании и развитии детей. Мы больше времени проводим вместе, обсуждаем, представляем возможность для самостоятельного поиска детьми ответов на различные интересующие вопросы. Тем самым расширяется образовательный кругозор обучающихся, возрастает стойкий познавательный интерес.

Обучающийся при подготовке к исследовательской работе заполняет таблицу. Записывает в ней: о чем надо подумать самому что спросить; какую информацию узнать компьютера, телевизора; у какого специалиста в какой области спросить; что прочитать в книге, справочной литературе; какие наблюдения, опыты и эксперименты провести.

Далее, правильно оформив работу, ребята готовятся к ее представлению заинтересованным слушателям, для этого нужно выбрать самое важное и интересное в работе, подготовить наглядные материалы.



Защиту своих работ обучающиеся проводят сначала перед одноклассниками, затем выходят на школьную конференцию «Ступени познания». Активно принимают участие в конференциях различного уровня «Младшие школьники в научном поиске», «Шаге в будущее», «Юннат», «Вперед в прошлое», большой опыт от этого участия и добиваются высоких результатов. Из года в год растёт не только число участников, но и результативность представленных работ. Глаза горят не только у самого юного исследователя, но и у слушателей, перед кем он выступает. Желание продолжить, пойти дальше является хорошим подтверждением того, что мы на правильном пути. Действия ребенка становятся самостоятельным. Он не боится думать, познавать, ошибаться, радоваться успеху.

Главная цель организации проектной деятельности обучающихся – развитие познавательных интересов обучающихся, умений самостоятельно конструировать свои знания и ориентироваться в информационном пространстве, развивать критическое мышление. Главное, чтобы учащиеся поняли, для чего могут пригодиться знания, полученные самостоятельно[5]. Важно, что в ходе проведения работы у детей возникает интерес. Они начинают рассуждать, думать, высказывать свое мнение, оценивают свою работу.

Литература:

1. Полат Е. С. Метод проектов. - URL: [http:// distait.ioso.ru/project/meth%20project/meto i Dpro.htm](http://distait.ioso.ru/project/meth%20project/meto%Dpro.htm) (дата обращения: 05.03.2017).
2. Пономарева О. Л. Проектная деятельность обучающихся. Из опыта работы. - URL: [https://text.ru/rd/aHR0cGliM6Ly9pbmZvdXJvay5ydS9wcm-91a3RuYXlhLWRleWF0ZWxub3N0LW9idWNoYXl1c2NoaWhzeWEtaXotb3BpdGEtcmFib3RpLTEzMDI40TMuaHRtbA%3D %3D](https://text.ru/rd/aHR0cGliM6Ly9pbmZvdXJvay5ydS9wcm-91a3RuYXlhLWRleWF0ZWxub3N0LW9idWNoYXl1c2NoaWhzeWEtaXotb3BpdGEtcmFib3RpLTEzMDI40TMuaHRtbA%3D%3D) (дата обращения: 11.03.2017).
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. -М.: Педагогика, 1991.
4. Полат Е. С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. - 2000. - № 2, 3. - URL: <http://schools.keldysh.ru/labmro/lib/polat3.htm> (дата обращения: 15.03.2017).
5. Новикова Т. А. Проектные технологии на уроках и во внеурочной деятельности // Народное образование. - 2000. - № 7. - С. 151-157.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNI MA'NAViy-AHLOQiy TARBIYALASHDA MEDIKONTENTLARNING MA'RIFIY FUNKSIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

SH.N. TAYLAKOVA,
O'z JOKU kafedra mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Medianing rivojlanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati naqadar ortib borayotgani bu jabhada ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda. Ko'plab mamlakatlarda yoshlarga oid audiovizual mediamateriallardagi muammolarga o'z vaqtida yechim topilmayotgani sabab yosh avlod tarbiyasi va ruhiyatida namoyon bo'layotgan salbiy ta'sirlar ham bunday tadqiqotlarga nisbatan zaruratni oshirmoqda. Yoshlar qabul qilayotgan har qanday vizual axborotlarni mediata'lim va mediasavodxonlik talablari doirasida tahlil qilish, saralash lozim. Maqolada aynan shu jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda mediakontentlarning ma'rifiy funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, yoshlar, ommaviy axborot vositalari, mediakontentlar, mediata'lim, mediasavodxonlik, axborot

Развитие средств массовой информации и возрастающее их значение в развитии общества требует проведения научных исследований в этой области. В связи с тем, что во многих странах проблемы подростков и аудиовизуальных медиаматериалов, связанных с подростками, своевременно не решаются, негативные последствия, проявляющиеся в воспитании и психике подрастающего поколения, также повышают потребность в подобных исследованиях. Необходимо анализировать и систематизировать любую визуальную информацию, получаемую подростками в рамках требований медиаобразования и медиаграмотности. В статье акцентируется внимание на этих аспектах, и говорится о возможностях использования воспитательных функций медиаконтента в духовно-нравственном воспитании подростков.

Ключевые слова: подростки, СМИ, медиаконтент, медиаобразование, медиаграмотность, информация.

The development of the media and their growing importance in the development of society requires scientific research in this area. Due to the fact that in many countries the problems of adolescents and audiovisual media related to adolescents are not addressed in a timely manner, the negative consequences that are manifested in the upbringing and psyche of the younger generation also increase the need for such studies. It is necessary to analyze and systematize any visual information received by adolescents within the framework of the requirements of media education and media literacy. The article focuses on these aspects, and talks about the possibilities of using the educational functions of media content in the spiritual and moral education of adolescents.

Key words: adolescents, media, media content, media education, media literacy, information.



Ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar O‘zbekistonda medianing rivojlanishiga ham asos bo‘ldi. Yoshlar auditoriyasiga tegishli mediakontenlarning taraqqiy etishini mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan bolalar telekanallarining tashkil topishi va faoliyati ham yaqqol misol bo‘la oladi. O‘quvchi va talaba yoshlarning bilish tahlil qilish, hayotiy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bilan bog‘liq ehtiyojlarini ommaviy axborot vositalari materiallari orqali to‘ldirish mumkin.

Bugun aholi, xususan yoshlar ham kundalik hayotda turli mazmundagi ma‘lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo‘lmoqdalar. Ular ko‘rayotgan filmlar, ko‘rsatuvlar, tinglayotgan musiqa, o‘ynayotgan kompyuter o‘yinlari o‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy olamiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Media vositalari orqali ta‘sir etishning ijobiy va salbiy ko‘rinishlarini hisobga olgan holda, shuni aytish mumkinki, inson ma‘naviy kamolotida u qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, yoshlarning nimani ko‘rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga yetayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta‘lim muassalari e‘tiboridan ham chetda qolishi kerak emas.

Teledasturlar ular hoh ko‘rsatuv, hoh multfilm yoki videoroliklar misolida bo‘lsin, yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta‘sir etish xususiyatiga egadir. Telemahsulotning ta‘sirchanlik xususiyati yoshlar ongida yoki salbiy yoki ijobiy fikr va g‘oyalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, telemahsulot tayyorlaydigan soha vakili o‘quvchilar auditoriyasi uchun material tayyorlash o‘ziga xos yo‘nalish ekanligini hisobga olishi lozim. O‘quvchi-yoshlar teledasturlarining birinchi xususiyati shundaki, tasvir, montaj, musiqa usullaridan mahorat bilan foydalana olishi natijasida ko‘rsatuvni tomosha qilgan yosh tomoshabinda katta ijobiy taassurot qolishiga erishish mumkin.

Teleko‘rsatuvlarning ikkinchi medipedagogik xususiyati-voqeani aynan teletomoshabinning ko‘z o‘ngida sodir etishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat tomoshabin (O‘quvchi-yoshlar) qalbiga taassurotdan tashqari voqea bilan bola o‘rtasida vosita yo‘qolib, olam bilan odam yuzma-yuz bo‘lib qoladi.

O‘quvchi-yoshlar ko‘rsatuvlari olamni anglash orqali ularni hayotga moslashtirish, ijtimoiy ko‘nikmalarni malakaga aylantirish va ma‘naviy tarbiyalash xarakteriga ega bo‘lishi kerak. Mediamahsulotning tarbiyalovchi xususiyatlarga ega bo‘lishi, milliy mentalitetimizga mos kelishi katta ahamiyatga ega. Milliy axborot makonida mediakontenlarning ma‘rifiy funksiyasini bajarilishi ana shunga bog‘liq.

Tadqiqot jarayonida telekanallarda e‘fira uzatiladigan ko‘rsatuvlarning o‘quvchi-yoshlarni ma‘rifiy-ahloqiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi: ogohlantiruvchi, ma‘lumot beruvchi, integrativ, ijtimoiy, madaniy-rekreativ ehtiyojlarni ta‘minlovchi tashkiliy-educativ funksiyalari aniqlashtirildi.



Ogohlantiruvchi funksiyasi – teleko‘rsatuvlarning ogohlantiruvchi funksiyasi bola shaxsida turli shubhali media materiallarga nisbatan sezgir va ogoh bo‘lish, ularga duch kelganda to‘g‘ri harakatlar qilish va ehtiyotkorlik sifatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Integrativ funksiyasi – o‘quvchi-yoshlarni mamlakatda olib borilayotgan islohotlardan xabardor qilish orqali ularda daxldorlik hissini shakllantirish, o‘z manfaatlarini el-yurt manfaatlari bilan birlashtirish (integratsiyalash) vazifasiga xizmat qiladi. Masalan, teledasturlarda yangi qurilayotgan binolar, istirohat bog‘lari, barcha sharoitlarga ega bo‘lgan zamonaviy o‘yingohlar va ularni toza, ozoda saqlashda o‘quvchi-yoshlarning ham hissasi borligi bola tilida sodda va tushunarli tarzda bayon qilinishi mumkin.

Ma‘lumot beruvchi – teleko‘rsatuvlarning ma‘lumot beruvchi funksiyasi o‘quvchi-yoshlar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan qiziqarli yangiliklardan xabardor qilish, ularni ilmiy, badiiy, ma‘naviy bilimlar bilan ta‘minlash hamda axboriy madaniyatni sekin asta shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-tarbiyaviy – teleko‘rsatuvlarning ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyasi bola shaxsida axloqiy sifatlarini shakllantirish, ma‘naviy tarbiyalash, hayotga moslashtirish va ijtimoiy malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Madaniy-rekreativ – teleko‘rsatuvlarning madaniy-rekreativ funksiyasi ko‘rsatuvlar namoyishi orqali madaniy hordiq chiqarish vazifasini o‘taydi hamda O‘quvchi-yoshlarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning estetik ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchi-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlarni tayyorlovchi jumalistlarning mediapedagogik bilimlarini oshirish zarurati kun sayin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchi-yoshlar ko‘rsatuvlarining natijaviyligini oshirish talablari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

t/r	Natijaviyligni oshirish talablari va uning qisqacha mazmuni
1.	Ma‘naviy ehtiyojlarga mosligi. O‘quvchi-yoshlar auditoriyasiga oid materiallarning mazmun-mohiyati, tuzilishi aniqlik va oddiylikka asoslanishi va o‘quvchi-yoshlarning bilish ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.
2.	Mavzular xilma-xilligi. Teleko‘rsatuvlarda beriladigan materiallar mazmuni badiiy, informatsion, ta‘limiy, tarbiyaviy, kreativ fikrlashga undovchi talablarga mos bo‘lishi lozim.
3.	Uyg‘unlik. O‘quvchi-yoshlar ko‘rsatuvlarida beriladigan materiallar mazmuni ma‘naviy-mafkuraviy tarbiya jarayoniga uyg‘un bo‘lishi lozim.
4.	Yosh xususiyatlariga mosligi. O‘quvchi-yoshlar mavzusini yoritadigan mediamateriallar bola shaxsining istak-hohishlari va qiziqishlariga, psixologiyasiga, ijtimoiy tasavvur va qarashlariga mos bo‘lishi lozim.
5.	Mediasavodxonlikni rivojlantirish. Teleko‘rsatuvlar mazmuni o‘quvchi-yoshlarda mediamateriallarni tahlil qila olish, xulosa chiqarish, virtual olamdagi g‘oyaviy munozaralarga o‘z fikrini erkin bildira olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Yuqoridagi mediapedagogik talablarni hisobga olib, o‘quvchi-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlarni tayyorlovchi jumalistlar va ijodiy jamoa bola



psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, ya'ni tarbiyachi-pedagoglar, psixologlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchi-yoshlar auditoriyasiga mos dasturlarining edukativ funksiyasi dasturlar ijodiy guruh hamda mediapedagoglar hamkorligi asosida tayyorlansa ishga tushadi.

Zamonaviy media muhitda har qanday yoshdagi inson axborot iste'molchisidir. Jumladan, o'quvchi-yoshlar axborotni nafaqat TV dan balki ko'p hollarda, internetdan ham olayotganini inobatga olsak, aytish joizki axborotni saralay olish, tushunish va to'g'ri tahlil qila olish ko'nikmalarini kichik yoshdanoq shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. Axboriy savodxonlikni kichik yoshdanoq shakllantirishni boshlashning ahamiyatli tomoni shundaki, bu orqali bolaning o'smirlik davrida turli informatsion oqimlarga ko'r-ko'rona ergashish, axborotlarni noto'g'ri talqin qilishning oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega o'quvchi-yoshlar salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi. Bola shaxsining o'ziga xos xarakteridagi tahdidlarni oldini olishda, ularni internetning bunday salbiy oqibatlaridan asrashda ota-onalar uchun quyidagi takliflarga to'xtalamiz:

bolaga Internetdan foydalanish jarayonida nima qilish mumkin va nima qilish mumkin emasligini tushuntirish;

– bolaning tarmoqda bo'lish vaqtini cheklash, mumkin qadar u bilan do'stona aloqada bo'lish orqali unga kerakli ma'lumotlarni, uning yoshiga mos videokontentlarni u bilan birgalikda qidirish;

– nomaqbul saytlarni brauzerning «qora ruyxatiga» kiritib qo'yish;

– uy kompyuterlari va televizorlariga ota-ona nazorati dasturini o'rnatish; (biroq, buni O'quvchi-yoshlar sezmasligi lozim, bu ularga nisbatan ishonchsizlik holati kabi tuyulishi mumkin)

– bolaga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga ruxsat berilganda, foydalanish etiketini tushuntirish;

– o'ta shaxsiy ma'lumotlarni, masalan, uy manzili, telefon raqami, fotosuratlarini joylashtirmaslikni do'stona tarzda yetkaza olish;

– bolaning virtual olamda ko'rayotgan kontentlari, uynayotgan virtual uyinlari va ularning qanday mavzularda ekanligi haqida xabardor bo'lib turish;

Onglilik va tayyorlik har bir oila xavfsizligining asosiy kalitidir. Yuqorida sanab o'tilgan amaliyotlarni kundalik hayot tarziga aylantirish, bola bilan doimiy ishlash uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlarida ham axboriy savodxonlik yetarli darajada bo'lishi kerak. Sababi, hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib qoldi. Axborotning bunday tartibsizligi ta'sirida bolaning mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadriyatlarini va ideallarini shakllanishi masalalarini tartibga solish axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Jahondagi ta'lim amaliyotida bu sohadagi



izlanishlar mediata'limning shakllanishiga zamin yaratdi. Insoniyat ongini media tomonidan zimdan boshqarilishi chinakam voqelikka aylanganini hisobga olib, kanadalik mashhur sotsiolog Gerbert Mashall Maklyuen ta'бири bilan aytganda, bugungi kunda haqiqiy savodxonlikka erishish uchun «mediaolamida savodli bo'lish» lozimligini anglash dolzarbligicha qolmoqda.

Uzluksiz ta'lim jarayonida mediaresurslardan tarbiyaviy ishlarda foydalana olishda mediata'limning ahamiyati katta. Shu nuqtai nazardan, mediata'limning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

– zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotlarni ta'g'ri tushunishga;

– uning ruhiyatga ta'siri oqibatlarini teran anglashga;

– texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og'zaki bo'lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o'zlashtirishga o'rgatishdir.

Shuningdek, mediata'lim sirlarini chuqurroq o'rgatish maqsadida quyidagi imkoniyatlardan foydalanish mumkin: «Bolajon», «Aqlvoy» kabi bolalar telekanallari qoshida mediata'lim bo'yicha seminar-treninglar, davra suhbatlari, debatlarini tashkil qilish, malaka oshirish jarayonida ta'lim muassasalari xodimlariga mediamadaniyat bo'yicha kurslar doirasida bilim berish, ta'lim muassalarida o'quvchi va talaba yoshlarni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarda ommaviy axborot vositalari mediaresurlaridan foydalangan holda, yoshlarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bolalar telekanallari dasturlarining edukativ-ma'rifiy funksiyasini ishga tushirishda media nazariyotchilar, mediapedagoglar hamda OAV mutaxassislarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish bu yo'nalishdagi ishlarning sifat va samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимова Н., Тошпўлатова Н. Ўзбекистонда оммавий ахборот воситаларида болалар мавзусини ёритишнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2014, -211 б.

2. Рўзиев Ф, Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар. - Т.: Шарқ матбаа акциядорлик компанияси, 2013.

3. Пахрутдинов Ш. Глобал ахборот жамияти ва медиата'лим. Ўқув-услугий кўрсатма. -Т.: 2014.

4. Трубицына Л. Средства массовой информации и психологическая травма. Проблемы медиапсихологии. «Журналистика в 2000 году: Реалии и прогнозы развития», Москва, МГУ, 2001. <http://evartist.narod.ru/text7/41.html>

5. Джураев Р.Х., Кучукбаев Ф.М., Э.М.Азимова, О.Ф.Сотиболдиев. Таълим-тарбия жараёнида дарга салбий муносабатдаги болаларга нисбатан конструктив таъсир этиш. Мактаб педагога ва психологлари учун илмий методик қўлланма. Т:- 2012 - 41-42 бет.



PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

D.S.URUNOVA,

*Navoiy davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim resurslari, axborot texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, tabiiy fanlar, reproduktiv, produktiv, ijodiy izlanishli.*

В данной статье изложена информация об использовании электронных образовательных ресурсов при преподавании предмета анатомия и физиология человека в педагогических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *ресурсы электронного обучения, информационные технологии, образование, естественные науки, репродуктивные, продуктивные, творческие.*

This article presents information about the use of electronic educational resources in teaching the subject of human anatomy and physiology in pedagogical higher educational institutions.

Key words: *e-learning resources, information technologies, education, natural sciences, reproductive, productive, creative.*

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Tabiiy fanlar, shu jumladan, anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish orqali talabalarning o'quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalash tirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning o'zlash tirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin. Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan elektron ta'lim resurslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta'limiy vazifasi – talabalarga o'rganiladigan mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to'g'risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi.



2. Talabalarining o'quv faoliyatini yo'naltirish vazifasi – talabalar axborot texnologiyalari mahsullari bo'lgan ta'lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animatsiyalar vositasida ishlash barobarida, mazkur dasturlar talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o'zida mujas samlashtiradi, ya'ni talabalarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo'naltiradi.

3. Ko'rgazmalilik vazifasi – boshqa o'qitish vositalaridan farq qilib, electron ta'lim resurslarining mahsullari bo'lgan animatsiyalar talabalar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o'qitish jarayonida o'rni beqiyos.

4. Nazorat vazifasi – anatomiya va fiziologiya ta'limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, anatomiya fiziologiya darsining barcha bosqichlarida talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi.

5. Rivojlantiruvchi vazifasi – talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarini bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi, fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratib shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

6. Tarbiyaviy vazifasi – talabalar axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

7. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish vazifasi tabiat va undagi obyektlarni o'rganish ikki olam: makro va mikroolamga ajratilib, biologiya fani o'zining mazmuniga ko'ra, aksar hollarda mikro olam: hujayra, to'qimalarda boradigan jarayon, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, masalan, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir o'quv materiallarni animatsiyalar orqali o'rganib, abstrakt tafakkuri va ilmiy dunyoqarash rivojlanadi va pirovard natijada kengayadi. Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim – tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Anatomiya va fiziologiya o'quv fanini elektron ta'lim



resurslaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

1. Axborot texnologiyalari anatomiya va fiziologiyani o'qitishda ko'zda tutiladigan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan o'quv materialini yig'ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta'lim jarayo nida foydalanishga zamin yaratadi.

2. Har bir talabada mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o'quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tempini belgi lash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. Anatomiya va fiziologiya darslarining strukturasi tubdan o'zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, talabalarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya'ni talabalar o'quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. Talabalarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

5. O'quv yurtida amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollar (kerakli jihozlar bo'lmagan, o'tkaziladigan tajribalar talabalar sog'ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o'rganish)da tajribalami virtual namoyish qilish imkonini beradi.

6. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, talabalarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va o'quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya'ni qisqa muddat ichida talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi. Pedagogika oily ta'limida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri talabalarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi.

Anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin:

– Har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni taqdimot materiallari.

– Biologik jarayonlarning animatsiyasi.

– Virtual laboratoriya va amaliy ishlar.

– Ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya.



- Biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturi.
- Biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari.
- Talabalarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari.
- Talabalarning mustaqil tahsili va ishi uchun o'quv – axborot saytlari.
- Didaktik o'yinga asoslangan animatsiyalar.
- Qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi.

Anatomiya va fiziologiyani o'qitishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi anatomiya va fiziologiyani o'qitishda tabiiy vositalar muhim o'rin tutadi, lekin tasviriy vositalarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.

Ma'lumki, elektron ta'lim resurslari ta'lim – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda ko'zlangan samarani beradi. Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirishda axborot texnologiyalarining axborot, talabaning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini o'rttirish kabi funksiyalari asos qilib olinadi.

Xulosa qilib aytganda anatomiya va fiziologiya fanini o'qitishda xususiy metodik darajada foydalaniladigan didaktik o'yin, modulli, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining imkoniyatlari va ahamiyatini anglagan holda, axborot texnologiyalarining axborot, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini o'rttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O.Tolipova «Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar» Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - «Cho'lpon» - 2011 y.
2. J.O.Tolipova. Pedagogik kvalimetriya moduli bo'yicha ma'ruzalar matni va amaliy mashg'ulotlar. Toshkent - 2015 y.
3. Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o'quv amaliyotining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferen tsiya materiallari. Toshkent 2016 yil 30-b.



ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ

М.Б.МАТНАЗАРОВА,

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
начальник отдела науки и инновации
филиала РГПУ им. А.И.Герцена

Мақола педагогика фанида бўлажак мутахассисларнинг интеллектуал ҳаракатчанлигини ўрганишнинг назарий ва услубий асосларини ўрганишга бағишланган. Мақолада ўрганилаётган ҳодиса икки компонентли атама сифатида кўриб чиқилади, бу одатда одамнинг ўсиб бораётган ахборот оқимларини зудлик билан топиши, таҳлил қилиши, самарали қўллаши, янги ғояларни ишлаб чиқариши ва инновацияларга тоқат қилишга тайёрлигини акс эттиради.

Калит сўзлар: интеллектуал ҳаракатчанлик, ақл, ҳаракатчанлик, талаба ёшлар, бўлажак мутахассислар, олий ўқув юрти, шахсий таълим, ижодий фаолият, ижодий фаолият, билим олишга фаол муносабат, мустақил фикрлашни ўрганиши.

Статья посвящена изучению теоретико-методологических основ исследования интеллектуальной мобильности будущих специалистов в педагогической науке. В статье изучаемое явление рассматривается как двухкомпонентный термин, в целом отражающий готовность личности оперативно находить, анализировать, продуктивно применять растущие потоки информации, продуцировать новые идеи и толерантно воспринимать нововведения.

Ключевые слова: интеллектуальная мобильность, интеллект, мобильность, студенческая молодежь, будущие специалисты, высшее образовательное учреждение, личностное образование, творческая деятельность, креативная деятельность, активное отношение к получению знаний, обучение самостоятельно мыслить.

The article is devoted to the study of the theoretical and methodological foundations of the study of intellectual mobility of future specialists in pedagogical science. In the article, the phenomenon under study is considered as a two-component term, generally reflecting the willingness of a person to promptly find, analyze, productively apply growing information flows, produce new ideas and tolerate innovations.

Keywords: intellectual mobility, intelligence, mobility, student youth, future specialists, higher educational institution, personal education, creative activity, creative activity, active attitude to obtaining knowledge, learning to think independently.



Эпоха новейших технологий и интенсивных потоков информации побуждает педагогическую теорию, а также практику искать более совершенные пути развития интеллектуальных способностей, формирования профессионально важных качеств будущих специалистов. Данная проблема была и остается одной из приоритетных в педагогической науке. В связи с этим одной из основных задач, стоящих перед процессом подготовки будущих специалистов, вступает воспитание активного отношения их к получению знаний, обучение самостоятельно мыслить, оперативно принимать решения, развивать интеллектуальные и творческие способности, умения, т.е. быть интеллектуально мобильным специалистом.

Проведённый анализ научной литературы по данной проблематике показывает, что само понятие интеллектуальная мобильность вступает двухкомпонентным термином. Исходя из этого, его рассмотрение полагается целесообразным реализовывать, в том числе, через раскрытие таких понятий как интеллект и мобильность, связывая их с особенностями мыслительной деятельности современной студенческой молодёжи получающих высшее образование [3, 4, 7 и др.].

Интеллектуальные способности представлены конвергентными и дивергентными умениями. Конвергентные умения отражаются в адапционном потенциале интеллектуальных способностей в аспекте результативности интеллектуального поведения в регламентированных условиях деятельности. Развитие этих умений может осуществляться путем развития:

- уровней свойств интеллекта, т.е. развитие восприятия, внимания, памяти, мышления и речи;
- комбинаторных свойств интеллекта, т.е. развитие образного, пространственного, дедуктивно-индуктивного мышления, в процессе нахождения и установления связей между различными понятиями;
- процессуальных свойств интеллекта, т.е. применение стратегий выполнения интеллектуальной деятельности.

К дивергентным умениям автор относит:

- восприимчивость, т.е. сенситивность к соответствующим деталям, противоречиям, а также готовность гибко и быстро переключаться с одной идеи на другую, при этом отказываясь от стереотипных способов восприятия и мышления;
- оперативность, т.е. готовность за короткий промежуток времени генерировать новые идеи;



- креативність, т.е. умение продуцировать идеи, отличные от общепринятых;
- образность, т.е. умение генерировать фантастические идеи, сохраняя при этом связь с исходной проблемной ситуацией, склонность использовать ассоциативные средства для выражения своих мыслей .

В.П. Иванова в рамках проведённого исследования под интеллектом обучаемого предлагает понимать:

- способности ориентироваться в окружающем пространстве, адекватно преобразовывать, мыслить, учиться, познавать мир и перенимать социальный опыт;
- умение вырабатывать оптимальные решения относительно возникающих задач, принимать оптимальные решения, адекватно действовать, а также прогнозировать, предвидеть;
- общую способность студента преимущественно в познавательной деятельности, обуславливающая успешность деятельности и вступающая основой других способностей;
- систему познавательной сферы личности студента;
- способность к решению проблем без проб и ошибок (в уме).

При этом, автор отмечает, что само понятие интеллект, как правило, применяется преимущественно в аспекте поведенческой характеристики, связанной с результативным процессом адаптации к возникающим жизненным ситуациям или как интегральная функция психики, включающая когнитивную, сенсомоторную, аффективную и языково-смысловую сферу личности студента. Также автор подчеркивает, что традиционные определения интеллекта очень узкие и не охватывают такие аспекты, как счастье, личностный успех или гармония с обществом.

Согласно позиции М.Г. Дубининой, понятие интеллект, как правило, преимущественно употребляют в обозначение мыслительной способности обучаемого, его комплекса поведенческих характеристик, связанных с успешной адаптацией к новым жизненным задачам. В аспекте образовательной деятельности, интеллект представляет умственные способности человека, способность ориентироваться в окружающей среде, адекватно его отражать и преобразовывать, мыслить, обучаться, воспринимать образовательный материал, решать задачи, принимать решения, разумно действовать, познавать мир, перенимать социальный опыт и предвидеть. Известно, что интеллект и личность взаимосвязаны.



симы. От уровня притязаний личности, ее установок, потребностей, интересов, которые влияют на мотивацию умственной деятельности, зависит активность интеллекта. В свою очередь, свойства личности, структура ее мотивов определяются степенью объективности ее отношения к действительности, опыта познания этой действительности и совместного развития интеллекта [5].

В рамках второго образующего понятия – мобильность, как отмечает О. Бочарова, в аспекте профессиональной деятельности отражает преимущественно интегрированное качество личности, проявляющееся в способности успешно переходить к другой деятельности или изменять виды деятельности в сфере экономики и финансов с привлечением правовой сферы, а также умение эффективно применять в практике систему обобщенных профессиональных техник реализации различных задач в упомянутых сферах и оптимально, без относительных преград переходить от одного вида деятельности к другой в соответствии с анализом экономической и социальной ситуации в действующем пространстве. Кроме того, под исследуемым явлением, автор также подразумевает обладание высоким уровнем обобщенных профессиональных знаний, опытом их совершенствования, готовности к оперативному подбору и реализации оптимальных задач в области экономики и финансов [2].

По убеждению Л.Н. Корпачевой, мобильность в академическом контексте выступает одной из важнейших сторон интеграции отечественного образования в глобальное пространство, и отражает довольно сложный и многогранный процесс, отражающий интеллектуальное движение, обмена научным потенциалом, технологиями, ресурсами. Кроме того, рассматриваемое понятие связано с поиском наиболее эффективного пути развития образования и его совершенствования. При этом мобильность обучаемого определяется пространством политических, социально-экономических взаимоотношений, а также взаимосвязей, основывающихся на реализации внутренней потребности интеллектуального потенциала движения в производственную сферу.

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что несмотря на чрезвычайную актуальность, проблема интеллектуальной мобильности будущих специалистов в современных условиях высшего образовательного учреждения недостаточно исследована. Кроме того, в педагогической науке наблюдается дефицит исследований сугубо дидактических аспектов изучаемого явления среди студенческой молодежи. Вместе с тем, интерес к рассматриваемой проблематике связан



в первую очередь с изменением понимания самого понятия мобильность. Наблюдается некий перенос акцентов сущности интеллектуальной мобильности от понимания в аспекте интеллектуальной миграции и обмена мнениями, идеями до понимания ее как преимущественно личностной характеристики, комплексного качества, высокого уровня сформированности которого становится основой мобильности личности и может проявляться в различных сферах жизнедеятельности современного специалиста.

Список литературы:

1. Бахтина О.В. Педагогические условия интеллектуального развития студентов в образовательном процессе вуза. // Воспитательная среда вуза как фактор профессионального становления специалиста: материалы меж. регион. науч.-метод. конф. - Воронеж, гос. ун-т. - Воронеж, 2004. - Вып. 4. - С. 124-127.
2. Бочарова О. Высшее образование в России: вертикальная мобильность и социальная защита. // Высшее образование в России. - 2002. - №1. - С. 34-39.
3. Валеева Р.А., Шакирова А.А. Академическая мобильность студентов в Европе. // Актуальные проблемы педагогики и психологии. Сборник научных трудов преподавателей, молодых ученых и студентов, посвященный 210-летию Казанского университета. Выпуск 18. - Казань: Изд-во «Отечество», 2015. - С. 185-188.
4. Гладкова И.В. Интеллектуальная мобильность в глобальном мире. // Дискурс-Пи, - 2015. - №12 2. - С. 19-23.
5. Дубинина М.Г. Особенности интеллектуального развития студентов технического вуза. // Молодежь и наука – третье тысячелетие. II часть. - Красноярск, 2006. - С. 180-182.
6. Емельянова Э.Л. Одаренный студент: перспективы развития успешной карьеры. // Доклады ТСХА. Сборник статей. Выпуск 281. Москва, 2009. - С. 602-604.
7. Зеера Э.Ф., Заводчикова Д.П. и др. Инновационное профессионально-образовательное пространство человека: Коллективная монография: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2014. - 154 с.



TA'LIMDA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

(«Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fani misolida)

H. TURSINBOYEVA,

TDPU «Zoologiya va anatomiya» kafedresi, stajor oqituvchi

Ta'lim jarayoniga axborotlashgan ta'lim vositalarini joriy etish uzluksiz ta'lim tizimida muhim samaradorlikka erishishga omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur maqola hozirda biologiya fanlarini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish asosida murakkab mavzularni o'rgatishda muhim vosita bo'lishi va bu boradagi fikr mulohazalarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, oliy ta'lim, o'quv jarayonida raqamli vositalar, samaradorlik, biologiya fanlari, odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish, organizm, zamonaviy dasturiy vositalar.

The introduction of informational educational tools into the educational process serves as a factor for achieving significant efficiency in the continuing education system. This article is devoted to the current use of digital tools in the teaching of biological sciences as an important tool in the teaching of complex topics and is devoted to the opinions on this matter.

Key words: educational system, higher education, digital tools in the educational process, effectiveness, teaching of biological sciences, human anatomy and physiology, organism, modern software tools.

Ma'lumki, Oliy ta'lim muassasalarida Odam fiziologiyasi fani biologik fanlar turkumiga kiruvchi eng muxim, mustaqil ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tirik organizmning, undagi organlar, to'qimalar, hujayralar va hujayra strukturasi elementlarining funksiyalarini, ya'ni ularning xayot faoliyati jarayonlarini o'rganadi. Fiziologik funksiyalar (faoliyat) deyilganda organizmda boradigan biror bir natija olishga qaratilgan xayotiy faoliyati tushuniladi. Shunday ekan, tirik organizmda uzluksiz kechib turadigin FUNKSIYA – fiziologiya fanining predmetidir, o'rganish ob'yekti esa, xayotiy jarayonlar kechib turgan, amalda o'z faoliyat – funksiyalarini bajarib turgan tirik organizmdir.

Ta'limni axborotlashtirish tufayli Oliy talim muassasalari talabalari va ta'lim muassasasiga qatnash imkoniyatga ega bo'lmagan talabalar ham zarur bilim va amaliy malakalarni oladilar, bu esa tabiiy hodisalarda, insoniyat jamiyatida, shuningdek insonning hayotiy faoliyatini ta'minlashda axborotning va axborot jarayonlarining hal qiluvchi rolini tushunishga asoslangan yangi dunyoqarashni shakllanishini ta'minlaydi. [4, 5]

O'quv jarayonini turli texnologiyalar asosida tashkil qilish tegishli o'qitish



vositalarini qo'llashni talab qiladi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunda ko'pgina fanlar qatorida «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» o'quv predmetining talabalar tomonidan o'zlashtirishni samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida axborotlashgan muhitning eng maqbul vositalaridan biri raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish ekanligi bugungi kun metoik mazmunini takomillashtirishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda talabalarning raqamli vositalardan mustaqil foydalana olish imkoniyatlarini inoatga olgan holda, mavzu yuzasidan mavjud ta'limiy materiallarni Internet saytlaridan yuklab olish va foydalanish o'quv jarayoni uchun ham o'qituvchiga ham talabaga qulaylik tug'diradi. Ma'lumki biologiya fan bo'limlari orasida «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fani mavzularni qiyinlik darajasi bo'yicha boshqa fanlardan biroz farq qiladi. Ayniqsa, odam fiziologiyasi bo'yicha mavzulardan ichki muhit, ularda boradigan fiziologik jarayonlar, ularning ishlash mexanizmlari haqida ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirishda talaba faqat darslik, o'quv qo'llanma yoki yordamchi vositalar manbaiga tayanib o'rganishi talab etiladi. Lekin ko'pincha, matn va rasmlardan iborat bo'lgan manbalar talabani qabul qilish imkoniyatlarini cheklab quyadi, psixologik nuqtai nazardan talaba faqat fiziologiya faninigina o'zlashtirmaydi, u bilan murakkablik darajasiga ega bo'lgan o'quv fanlari ham anchagina albatta.

Shunday ekan, endilikda mavzularni samarali o'zlashtirish uchun yordamchi vositalar sifatida odam organizmida boradigan fiziologik jarayonlar, ularni tashkil etuvchi organlar faoliyati, shu bilan birga murakkab ishlab mexanizmlarini anglab o'rganish uchun raqamli ta'lim vositalariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Bugungi kunda Internet olamida o'quv fanlarini o'zlashtirishga yordam beradigan ta'limiy portallar, saytlar, ma'lumot bazalari, taqdimot materiallari, testlar, mavzular uchun tayyorlangan dars ishlanmalar ko'plab topiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha o'quv muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlarida, jumladan biologiyani o'rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o'quv jarayoniga joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda. Ya'ni hozirgi kunda o'quv jarayonlarini elektron vositalarsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Davlat ta'lim standartining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablarda quyidagilar o'z aksini topgan: «Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standartari va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy



mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta‘lim resursi hisoblanadi va har bir umumta‘lim o‘quv predmeti mazkur talab asosidagi elektron ta‘lim resursiga ega bo‘lishi lozimligi ta‘kidlanadi .

O‘quv fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan namoyish vositalar ham ayni bir amaliy dasturlar asosida yaratiladi. O‘qituvchidan bunday amaliy dasturiy vositalarni tayyorlash va joriy etish kompetensiyasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Yoki bevosita dasturlovchilar mehnatiga ehtiyoj seziladi. Shunday bo‘lsada, ko‘p hollarda ikki fanning o‘zaro integrativ yondashuvi asosida ko‘plab ilmiy manbalarni o‘zida aks ettirgan elektron vositalar yaratilishiga erishilmoqda.

Hozirgi kunda, o‘quv predmetlari doirasida juda ko‘plab elektron multimediali resurslar yaratilgan. Ular orasida elektron darsliklar, elektron qo‘llanmalar, videodarslar, videoroliklar, taqdimotlar, elektron ishlanmalar, virtual laboratoriya mahsulotlari shular jumlasidandir.

Mazkur materiallarning ko‘pchiligi juda sifatli, markaz studiyasida tayyorlangan, o‘quv jarayoniga joriy etishga tayyor holatga keltirilgan. Mavjud elektron ta‘limiy dasturiy mahsulotlar ta‘lim portallari va saytlariga joylashtirilgan.

«Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fanidan multimedia vositalaridan foydalanish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish o‘ziga xos yangi usulni vujudga keltiradi. Ularni o‘quv materiallarini texnologik reja asosida amalga oshirish, bosqichma-bosqich o‘quv materiallari bazasi ortib borishi, ko‘rgazmalik sifat ko‘rsakichlarini yuqori bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, dars davomida yangi mavzu bo‘yicha talabalarning bilim samarasi nazorat qilinadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, biologiya darslarini o‘qitishda, talabalar bilim-ko‘nikmalarini hosil qilishda, dars samaradorligini oshirish va o‘qituvchi-talaba faoliyatini faollashtirish mazkur vositalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крицкий А.Г. Психологические условия использования компьютера как средства организации совместной учебной деятельности.: Автореф... канд. психол. наук. - М.: АПН СССР, НИИ общ. и пед.-психологии, 1989. -18 с.
2. Lutfullaev M. Oliy ta‘lim jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida): ped.fan.dokt. diss... Toshkent: O‘zPFITI, 2005. - 238 b.
3. Lutfullaev M., Fayziev M. Multimediali elektron darsliklarda o‘qitish metodikasi // Uzluksiz ta‘lim. - Toshkent, 2003. - № 4. - B. 56-59.
4. Ergasheva G. Biologiya ta‘limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish.: pedagogika fan.fals.doktori (DSc) diss. avtoreferati... - Toshkent.: O‘zMU, 2018. - 56-b.



**UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK TOLERANTLIK MULOQOTI:
MUAMMOLAR VA TAVSIYALAR**

F.F.XIDIROV,

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shaxrisabz filiali direktorining
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari*

Maqolada tolerantlik va intolerantlik (murosasizlik) muloqotning asosiy tamoyillari va tushunchalari tahlil qilinadi, intolerantlik (murosasizlik) pedagogik muloqotning madaniy va tarixiy omillari o'rganiladi, muloqotning sifati va o'qituvchilarning kasbiy o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi tavsiflanadi, ularning sabablarini aniqlanadi, kasbiy pedagogik o'zgarishlarning og'zaki va og'zaki bo'lmagan ko'rinishlarini tizimlashtiriladi. O'qituvchining tolerantlik, intolerantlik munosabatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Maqolada pedagogik tolerantlik muloqot atamaları lug'aviy mazmunidan misollar keltiriladi.

Tayanch so'zlar: tolerantlik, intolerantlik muloqot, kasbiy va pedagogik o'zgarishlar, tolerantlik muloqot mezonlari.

В статье анализируются основные принципы и понятия толерантности и интолерантности общения, исследуются культурно-исторические факторы интолерантности педагогического общения, описывается взаимосвязь между качеством общения и профессиональными изменениями педагогов, выявляются их причины, систематизирует вербальные и невербальные проявления профессиональных педагогических изменений. Даны рекомендации по формированию у педагога установки толерантности и нетерпимости. В статье приведены примеры лексики терминов педагогической толерантной коммуникации.

Ключевые слова: толерантность, общение интолерантности, профессионально-педагогические изменения, критерии общения толерантности.

The article analyzes the basic principles and concepts of tolerance and intolerance of communication, examines the cultural and historical factors of intolerance in pedagogical communication, describes the relationship between the quality of communication and professional changes in teachers, identifies their causes, systematizes verbal and non-verbal manifestations of professional pedagogical changes. Recommendations are given on the formation of tolerance and intolerance in the teacher. The article provides examples of vocabulary terms of pedagogical tolerant communication.

Key words: tolerance, communication of intolerance, professional and pedagogical changes, criteria for communication of tolerance.

Zamonaviy pedagogik muloqotda intolerantlik sabablarini tushunish uchun ko'p millatli vatandoshlarimiz muloqotidagi xatti-harakatlari modelini tushuntiradigan ba'zi (va oxir oqibat, mamlakatimizdagi oliy va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari orasida, sobiq



ittifoq davrida hayot kechirgan odamlarning aksariyati) ijtimoiy psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Ushbu o'ziga xos xususiyatlar, birinchi navbatda, muqobilchilikni (deindualizatsiya), o'z aqliy jarayonlarining o'zgarishi (depersonalizatsiya), atrofda olam bilan insoniy munosabatlar tizimini o'z aqliy jarayonlarining o'zgarishini o'z ichiga oladi, bu esa «boshqalar» bilan uchrashish vaziyatidagi shaxs o'zining shaxsiy javobgarligini his qilmaligi mumkinligiga olib keladi. Ayniqsa, bunday shaxslar o'zlarining va boshqa insonlarning madaniyatini, qadriyatlarini, hikoyalarini tushunishga e'tibor qaratmasliklari ya'ni, tashqi atributlarni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida (kiyim, nutq, tumshuk tarzi elementlari va boshqalar) muhim ahamiyatga ega. O'z aqliy jarayonlarining o'zgarishini boshdan kechirayotgan shaxs o'zaro hamkorlikdagi muloqotda sherigining fikrlari, hissiyotlari, istaklari, qiziqishlari, umidlarini topadi. Bunday odamlar muloqotda o'z xatti-harakatlarini asoslash, o'zaro ta'sir jarayonida qaror qabul qilish va hokazolarni rivojlantirmaydi natijada, muloqotda, shu jumladan, pedagogik jihatdan juda qadrlanadi va uni samarali qiladi. Shu o'rinda, pedagogik tolerantlik muloqotiga to'xtalib o'tamiz. Muloqot subyekti sifatida shaxsning ajralmas o'ziga xos xususiyati empatiya (tushunish)dir. Empatiya (tushunish) – bu hamdardlik, hamkorlik, boshqa odamning o'zini egallash, uning ichki dunyosiga kirib borish, uning holati va munosabatlarini tan olish ko'nikmasi hisoblanadi. Aynan bunday munosabatlar shaxsiyat sifati muloqot uchun maqbul bo'lgan shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Intolerantlik o'zaro ta'sir holatida «empatiya (tushunish)ni yo'qotish»ni qayd qiladi. Bunday o'zaro hamkorlikdagi muloqot sherigi uchun himoya funksiyasini bajaradi: bu sizga travmatik hissiy tajribadan qochishga yordam beradi.

Shaxslararo, ishbilarmonlik, pedagogik muloqotga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilish asosida intolerantlik va tolerantlik pedagogik muloqot sub'ektlarining quyidagi xususiyatlari ta'kidlangan.

Intolerantlik subyekti – (ushbu holatda talaba) erkinligini, o'ziga xosligini, qadriyatlarini tan olmaydigan, buni unga hukmronlik qilishga intilishda, obyektiv ma'noda unga nisbatan dushmanlik, adovatda namoyon bo'ladigan murosasizlik subyektida namoyon bo'ladi.

Bunday subyektni tushunishning yetishmasligini, imkoniyatlarni, qiziqishlarni, ehtiyojlarni - o'zining ham, o'z hamkorining ham noto'g'ri baholanishini ko'rsatadi, narsalarning haqiqiy holatini buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. U maqtanchoqlik, takabburlik, o'zini o'ylash bilan ajralib turadi, natijada, ko'pincha u o'zini past baholaydi. Talaba bunday o'qituvchini o'ziga ishongan, talabchan deb biladi, uning boshqasiga qiziqishi yo'qligini, dushmanlik va hukmronlik qilish istagini qayd etadi.

Intolerantlik muloqot subyekti – o'qituvchini, xususan, muloqot sherigi – talaba bilan o'zaro munosabatlar majmuasining asosiylari quyidagilar: dushmanlik, ishonchsizlik, shubha, nafrat, antipatiya, negativizm, rad etish, tajovuzkorlik, begonalashish, masofa, e'tiborsizlik, befarqlik, hukmronlik, bostirish, kuch, nazorat orqali tasvirlash mumkin.

Tolerantlik muloqot subyektni boshqasiga turli xil: hamdardlik, ishonch, qabul qilish, tolerantlik, qiziqish, e'tibor, hissiy yaqinlik, ma'qullash, hurmat, qo'llab-



quvvatlash, bo'ysunish kabi munosabatlar to'plami orqali ham tasvirlash mumkin.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzoqlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzoqlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar kasbiy o'zgarishlarni ma'lum bir kasbiy faoliyat ta'siri ostida shaxs sifatleri va o'ziga xos xususiyatlarining o'zgarishi (idrok stereotiplari, qadriyatli yo'nalishlari, xarakter, muloqat va xulq-atvor usullari) deb hisoblashadi [3; 6; 7; 8]. Mumkin bo'lgan kasbiy o'zgarishlar (o'zingizning ham, muloqot qiladigan Kasbiy faoliyatga stereotiplarni haddan tashqari kiritish kasbiy o'zgarishlarning sabablaridan biri sifatida tan olingan. Ish tajribasi bilan stereotipli yondashuvlar o'rnatiladi, baholashni soddalashtirish, tayyor yechimlar ro'yxati mutlaqlashtiriladi. Rag'batlantirish uchun mutaxassislarning malakasini oshirishda kasbiy o'zgarishlarning ushbu o'ziga xos xususiyatlariga ularni eskirgan stereo turlari va o'rnatishlarini o'z vaqtida tark etish, ularni adekvatlari bilan almashtirish alohida e'tibor beriladi.

O'zaro munosabatlar va shaxslararo muloqotning o'zgarishi, xususan, «charchash» sindromining namoyon bo'lishining natijasi bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda bu boshqalarga qaramlikning, negativizmning kuchayishi, hissiy sovuqqonlik, masofa, muloqat sheriklariga (talabalar, hamkasblar, mijozlar, bemorlar va boshqalar) munosabatning behayoligini ifodalaydi. Ularning shaxslararo munosabatlarga taxshis qilinishi muhim, ularni ko'rib chiqish turli millatlararo muhitda juda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining tolerantlik munosabatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar. O'qituvchilarning shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy va pedagogik mahorati va ularning kasbiy va pedagogik o'zgarishlarini bartaraf etish yoki minimallashtirish usullari o'rnatilgan bog'liqlik mavjudligi tan olingan.

Shuning bilan birga, quyidagi:

– qadriyatlar-maqсадlar yoki terminal, inson o'z hayotida nimaga intilishi yoki u asosiy narsa deb biladigan narsa sifatida belgilanadi;

– qadriyatlar – bu inson afzal ko'rgan harakat usuli sifatida qaraladigan vositalar yoki instrumental vositalar kabi qadriyatlar inson hayotining yetakchi tamoyillari hisoblanadi [7].

Pedagogik muloqotning samaradorligi shakllangan kommunikativ ko'nikmalar, ya'ni, kommunikativ maqsadga erishish uchun shaxsiy ko'nikmalardan foydalanish qobiliyati va og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqat va muloqat «texnologiyasi» ga ega bo'lish bilan ta'minlanadi.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini amalga oshirish ko'p jihatdan uning talabalarga bo'lgan munosabatiga bog'liq. O'qituvchi bilim, ilmiy ufqning kengligi, ilmiy bilimlarning zamonaviy tabiati bilan bir qatorda, uning psixologik imkoniyatlarini belgilaydigan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak,



bunday nomlangan hamkorlik va tolerantlikdan tashqari quyidagi:

– muvofiqlik – talabalarning ma'lum bir pozitsiyasini qabul qilish, ularga samimiylik va ochiqlik;

– ijodkorlik-nostandart vaziyatlarda ijodiy va tezkor munosabatda bo'lish ko'nikmasi, o'ziga xos badiiylik, o'ziga jalb qilish ko'nikmasi, ba'zan hazil bilan neytral munosabatda bo'lish;

– taklif – talabalarning hissiy sohasiga ta'sir qilish, qulay muhit, do'stona mikroiklim yaratish ko'nikmasi;

– aks ettirish ko'nikmasi -o'z xatti-harakatlarini introspeksiya qilish, muloqot jarayonida o'zini o'zi boshqarish kabilardan iborat.

O'qituvchining e'tibori o'zgarishlarning og'zaki va og'zaki bo'lmagan ko'rinishlariga jalb qilish kerak, bu ikkinchisining paydo bo'lishini aniq ko'rsatadi. Pedagogik nutq odobi lingvodidaktik nutqda va o'qituvchining og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarida yorqin namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni ga'kidlash joizki, har bir zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan pedagogik tolerantlik muloqoti zamonaviy ta'lim amaliyotida qadriyatli omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балыхина Т.М., Лыскова М.В., Рыбаков М.А. Учимся общению: учебный курс русского языка и культуры речи для учащихся высших учебных заведений России. - М.: Изд-во РУДН, 2004

2. Балыхина Т.М., Харитоновна О.В. Коммуникативный портрет преподавателя русского языка: профессионально-педагогическая речь как лингводидактический дискурс: Учебное пособие. - М.: Изд-во РУДН, 2006

3. Денисова А.А. Общегуманитарные и этнокультурные проблемы профессиональноделовой коммуникации на русском языке: инновационный подход: Учебное пособие. -М.: РУДН, 2008.

4. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102993/13.mavzu.-Muloqot.htm>.

5. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Психология профессиональных деструкций: Учебное пособие для вузов. - М.: ГРИФ, 2005.

6. Лабунская В.А. Социально-психологические презентации толерантного-интолерантного межличностного общения. - Ростов-на-Дону, 2002.

7. Толерантность – залог успеха в профессиональной и образовательной деятельности: Материалы I Международной научно-практической конференции. Москва, РУДН, 16 ноября 2009 г. / Научн. ред. Т.М. Балыхина, В.И. Казаренков. - М.: РУДН, 2009

8. Холоднова И.В. Организационно-педагогические условия преодоления профессиональных деформаций преподавателей среднего специального учебного заведения: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. - Ростов-на-Дону, 2007.



ISLOM DINI MANBALARI – YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI UCHUN MUHIM TARBIYA VOSITASIDIR

M.M.ISHANOVA,

Andijon davlat chet tillar instituti «Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya» kafedrasida katta o'qituvchisi

Islom dini asrlar davomida xalqimizning nafaqat diniy e'tiqodi, balki turmsh tarzi, ma'naviyatining tarkibiy qismini tashkil etib, milliy xususiyatlarni, kadriyatlarini rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. Bevosita islom dini manbalari asosida yosh avlodni muhim tarbiya vositasi sifatida ko'rsatish o'rinlidir. Mazkur maqola islom manbalari va ular mazmunidagi ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *islom dini manbalari, yoshlar tarbiyasi, ta'lim-tarbiya masalalari, ma'naviyat tushunchasi, axloqiy tarbiya vositalari, diniy e'tiqod, oilaviy tarbiya.*

For centuries, Islam has been a part of not only the religious faith, but also the lifestyle and spirituality of our people, contributing to the development of national characteristics and talents. Directly based on the sources of Islamic religion, it is appropriate to show the young generation as an important means of education. This article is devoted to Islamic sources and issues of spiritual education in their content.

Key words: *sources of Islamic religion, youth education, educational issues, concept of spirituality, means of moral education, religious belief, family education.*

Islom dini yoshlarning estetik madaniyati va ideallarini axloqiy g'oyalar bilan bog'liq holda rivojlantirdi. Islom dini fan, adabiyot, madaniyat va nafosat sohalarini bir-biriga uzviy aloqadorligini o'zida mujassamlashtirdi.

VII asrda paydo bulgan islom dini tez orada ulkan hududga tarqaldi. Arab xalifaligi tashkil bo'lgach, bu davlat tarkibiga kiruvchi mamlakatlar, xalqlar tarixi, madaniyatiga juda katta ta'sir o'tkazdi. Bizning maqsadimiz islom manbashunosligi asoslari Qur'on, Xadis va tafsirlar tarixi ilmi, manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganishdir. Chunki, xalqimiz hayotida XX asr boshlarigacha, hatgo bugungi kunda ham e'tiqod masalalarida musulmonchilik qonun-qoidalari amal kilib kelmoqda. Bundan taiqari aksariyat yozma manbalar islom manbashunosligi qonun, qoidalariga binoan yaratilgan. Mana shuning uchun qam tarixchilar, pedagoglar va psixologik tadqiqot mobaynida albatta islomiy manba asarlarini yaxshi bilishi va o'z pedagogik faoliyatlarini, tadqiqot ishlarida foydalanishi lozim[4, B-55].

Islom dini asrlar davomida xalqimizning nafaqat diniy e'tiqodi, balki turmsh tarzi, ma'naviyatining tarkibiy qismini tashkil etib, milliy xususiyatlarni, kadriyatlarini



rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda. Bugungi kunda yangi fuqarolik jamiyati kurishda islom dini milliy taraqqiyotimizning muhim omili bo‘lib xizmat qilmokda. Zero, millat va diniy kadriyatlarni, ajdodlarimiz merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilish, xususan, islomiy axloq-odob qoidalaridan unumli foydalanish milliy g‘oya va ahloqni shakllantirishga, jamiyatimiz a‘zolari ma‘naviyatini boyitishga, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham ko‘maklashadi.

Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan millat (xalq) yo‘qdir. Chunki dinsiz holda hech bir millat yashayolmas. Yeyish, ichish qanday ehtiyoj bo‘lsa, din ham shunday bir ehtiyojdir. Yer yuzida har millatning, har insonning bir ishonchi bordir. Biroq har din, har e‘tiqod ham to‘g‘ri bo‘lolmaydi. Shu qadar asossiz narsalar borki, bir qancha insonlar ularga bog‘langan va din o‘laroq qabul qilgan[4].

Islomiy qadriyatlarning xalqimiz hayotiga keng targ‘ib qilinishi natijasida mintaqada milliy qadriyatlarning rivojlanish va shakllanishiga ham turtki bo‘ldi. Aksincha, milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, an‘analimiz rivojlanishda davom etdi, islomiy qadriyatlar esa ma‘naviyatimiz boyishiga ko‘maklashdi. Shunday qilib, xalqimiz hayotida milliy kadriyatlar ilm-ma‘rifat va madaniyatning rivojlanishiga islom dini sekin-asta keng imkoniyatlar yaratgan.

Islom dini yoshlarning estetik madaniyati va ideallarini axloqiy g‘oyalar bilan bog‘liq holda rivojlantirdi. Islom dini fan, adabiyot, madaniyat va nafosat sohalarni bir-biriga uzviy aloqadorligini o‘zida mujassamlashtirdi. Unda shaxsning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari diniy go‘zallik tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilib, yoshlarga bilim berish uchun diniy maktablar yaratildi. Islom shaxsni ma‘rifatli, ma‘naviy-axloqiy va estetik didli bo‘lishga chorladi[5].

Shaxs z‘tiqodini, shu jumladan, diniy ongning shakllanishiga xizmat qiladigai vosita bilim va g‘oyalardir. Zero, inson e‘tiqodsiz, g‘oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Insoniyat va jamiyatni maksad sari yetaklaydigan. harakatga keltiradigan kuch g‘oyadir. Ya‘ni muayyan maqsadlar yo‘lida birlashib harakat qilishga olib keluvchi ko‘pchilikning e‘tiqodiga aylangan asosiy maslak g‘oyadir.

Diniy ongni shakllantiruvchi e‘tikod o‘ziga xos muayyan g‘oya sifatida umuminsoniy tabiatga ega. Diniy ong inson zotiga xos bo‘lgan ruhiyatnigp ma‘naviy holat bo‘lib hisoblanadi. Diniy ongning asosiy mohiyatini belgilovchi g‘oya iloxiy zot-yaratuvchiga ishonish va unga sig‘inishni anglatib, unda turli diniy an‘ana va qadriyatlarga rioya qilish orkali ilohiy haqiqat yo‘liga kirish maqsadi namoyon bo‘ladi. Bunday ma‘naviy andozalar – mehnatsevarlik, insonparvarlik adolatlilik. imonlilik. insofillik, odamlarni bir-biriga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘lish diniy



ongni shakllantiradi.

Hamмамizga ma'lumki, bizning hududimizga kiritilgan islomning hanafiya mazhabi eng mo'tadil mazhablardan bo'lgani uchun mahalliy xalqlar ping mavjud milliy urf-odatlari, an'analari bilan uyg'unlashib, diniy g'oyaning shakllanishiga keng yo'l ochdi

Har bir o'smir oilada, maktabda olgan saboqlari-yu, pand-nasihatlarining qanchalik haqqoniy ekanligini mahallada o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan amaliy muloqotlarda sinab ko'radi. «Sinov» dan o'tmagan har qanday pandu-nasihatlar ba'zan behuda ketishi hech gap emas. Vaholanki, mahalla bu-ijtimoy hayot beshigi, Vatan timsolidir. Agar oila, ta'lim maskani o'smir uchun ma'lum tarbiya o'chog'i bo'lsa, mahalla uning uchun bir umr tarbiya mayog'i bo'lib qoladi. hatto ota-ona va tarbiyachining o'zi ham mahallada tarbiyalanadi, undan doimiy ravishda ma'naviy ozuqa oladi.

Islom estetik madaniyati doimo shaxsning, qolaversa yoshlarning ilohiy sevgisi, diniy ilm xazinasi, ma'naviy madaniyatini yuksalishiga katta ta'sir etgan. Islom estetik madaniyatini ilm-fan, bilimlar, odob-axloq, huquqiy vositalar, nafosat olami asosida anglamas ekanmiz, uning mohiyatini hech qachon tushunolmaymiz! Shunday ekan, islom madaniyati shaxsni har tomonlama rivojlanishiga, uni ham diniy, ham dunyoviy bilimlarga, ulug'vor tuyg'ularga ega bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirishda islom manbalaridan foydalanish axloqiy ahamiyat kasb etadi. Unda ajdodlarimizning buyuk merosi islom dini negizida vujudga kelganligi o'zining yorqin ifodasini topadi[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Ziyomuxammadov. «Komillika eltuvchi kitob». Turon-iqbol 2006 y 83 bet
2. N.R G'aybulaev va boshqalar. «Pedagogika». Toshkent O'ZMU 2005.
3. Madraimov A., G.Fuzailova. «Manbashunoslik». Darslik. -Toshkent. O'zRFA «Fan» nashriyoti. 2007 yil. 294-b.
4. <https://siyrat.uz/maqola/1213>
5. Islom dini manbalari orqali yoshlar estetik madaniyatini rivojlantirish masalalari \ \ <https://www.bukhari.uz/?cat=1>



TA'LIM JARAYONIDA TADBIRKORLIKNING MAZMUN-MOHIIYATI, TASHKILIIY SHAKLLARI, RIVOJLANISHI VA ASOSIY QOIDALARINING ILMIIY MAZMUNI

A.A.ABDURASHIDOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)

M.KARIMOVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma'rifiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'laqonli foydalanish, innovatsiyalarni iqtisodiyotga keng tadbiiq etish orqali mamlakatning barcha sohalarini rivojlantirish, ayniqsa, kichik tadbirkorlik va milliy xunarmandchilikni har tomonlama qo'llab quvvatlash, yoshlarga bu sohada zaruriy imtiyozlar yaratish orqali ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar va iboralar: Rivojlanishning globallashuvi, davlatning raqobatbardoshligi, ilmiy-ma'rifiy va ilmiy-texnikaviy salohiyat, innovatsiyalar, kichik tadbirkorlik, milliy xunarmandchilik, zaruriy imtiyozlar, tadbirkorlik ko'nikmalari.

В условиях глобализации экономического развития в Республике Узбекистан конкурентоспособность государства заключается в полном использовании имеющегося у него научно-образовательного и научно-технического потенциала, развитии всех отраслей страны за счет широкого применения инноваций. В экономике, особенно всестороннюю поддержку малого предпринимательства и народных промыслов, создание необходимых льгот для молодежи в этой сфере. Особое внимание уделяется развитию у них предпринимательских способностей.

Ключевые слова: Глобализация развития, конкурентоспособность государства, научно-образовательный и научно-технический потенциал, инновации, малое предпринимательство, народное мастерство, необходимые льготы, предпринимательские способности.

In the context of globalization of economic development in the Republic of Uzbekistan, the competitiveness of the state lies in the full use of its scientific, educational and scientific and technical potential, the development of all sectors of the country through the widespread use of innovations. in the economy, especially comprehensive support for small business and folk crafts, the creation of the necessary benefits for young people in this area. Particular attention is paid to the development of their entrepreneurial abilities.

Key words and concepts: Globalization of development, competitiveness of the state, scientific and educational and scientific and technical potential, innovations, small business, folk craftsmanship, necessary benefits, entrepreneurial abilities.

Jahon miqyosida mustaqil ta'limni tashkil etish va pedagogik ijodkorlikning rivojlanganlik darajasi qator ta'lim standartlari mazmuniga singdirilgan, jumladan, ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA), Ming yillik rivojlanish maqsadlari



(Millennium Development Goals (MDGs), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) mustaqil ta'lim olish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma'rifiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'laqonli foydalanish, innovatsiyalarni iqtisodiyotga keng tadbiiq etish orqali mamlakatning barcha sohalarini rivojlantirish, ayniqsa, kichik tadbirkorlik va milliy xunarmandchilikni har tomonlama qo'llab quvvatlash, yoshlarga bu sohada zaruriy imtiyozlar yaratish orqali ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mehnat qilish va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash – kichik va o'rta biznes faoliyati bilan bevosita bog'liqlikda amalga oshiriladi. Xorij olimlaridan K.McConnel, S.Brew, Wood Robin, Macqueen W.M., Schnepf, J.Gerald, R.Howard kabilar iqtisodiy tarbiya, hunarmandchilik vositasida ijodkorlik va mustaqil ta'limni rivojlantirish muammolari ustida tadqiqotlarni amalga oshirgan.

MDH olimlaridan I.L.Timonina, I.V.Jijina, A.A.Filozop, Ye.I.Pakulova kabilarning tadqiqotlarida milliy hunarmandchilik masalalari umumiy tarzda yoritilgan. E.M.Pesherova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo hududidagi badiiy hunarmandchilik, xususan, Qadimgi va O'rta asrlardagi kulolchilik tarixini tahlil qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari va uni rivojlantirish muammolari o'zbekistonlik olimlar B.Yu.Xodiev, I.A.Bakieva, A.Yo.Ostonov, S.Pammonov, Q.H.Muftaydinov, N.S.Kasimova, M.S.Qosimova kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Talaba va yoshlarda iqtisodiy bilim va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari N.A.Kamalova, S.Boboqulov, R.R.Hakimov va A.B.Nizamov kabilarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Milliy hunarmandchilikka oid tahlillar shuni ko'rsatdiki, mamlakati-mizda hunarmandchilik va tadbirkorlikning ma'lum jihatlari ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan H.Z.Ziyoev, G'.A.Ahmadjonov, H.N.Bobobekov, Sh.X.Vohidov, Q.Rajabov, N.Abdurahimova, Z.E.Azimova, M.B.Artiqova, X.T.Azizov, G.A.Agzamova va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Psixolog olimlardan G.I.Shchukina, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalar muammoning psixologik jihatlari haqida fikr bildirgan bo'lsa, pedagogik fasilitatsiya masalasi esa P.Nummi, D.Yo'ldosheva, N.M.Egamberdieva kabilarning ishlarida yoritilgan.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik, psixologik va ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarni (DTS, nizomlar, namunaviy o'quv reja va fan dasturlari) tahlil, milliy hunarmandchilik, tadbirkorlik, loyiha, fasilitatsiya va vaziyatli rolli o'yin, nazorat, amaliy topshiriqlar bajarish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish,



suhbat, anketa-so‘rov, test), biznes-rejalar tuzish, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning kognitiv, munosabatli va faoliyatga yo‘naltirilgan mezonlari ishlab chiqilgan;

– talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini mustaqil ta‘lim orqali rivojlantirishning fasilitativ yondashuvga asoslangan modeli ishlab chiqilgan;

– talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyasining (beshta) tashkiliy, izlanuvchi, shakllantiruvchi, faoliyatli, yechim topishga yo‘naltirilgan bosqichlarning mazmuni belgilandi hamda amalga oshirilgan;

– tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmi ma‘naviy, axloqiy, fasilitativ, faoliyatli, madaniyatga oid komponentlarni mutaxassislik fanlari bilan hamda iqtisodiy tarbiya va ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish komponentlarini o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

– milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, intellektual faoliyatni rivojlantirishning didaktik parametrlari aniqlangan;

– fasilitativ yondashuv asosida milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik tizimi takomillashtirilgan;

– innovatsion ta‘lim muhiti sharoitida milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Milliy hunarmandchilik vositasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

– milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik mezonlari asosida «Umumiy pedagogika» nomli darslik (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi buyrug‘i asosidagi 892-004-sonli guvohnomasi) ishlab chiqilgan. Natijada, yoshlarni hunarmandchilikka jalb etish, hunar orqali tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlab borish, usta-shogird maktablarini tashkil etish jarayonlari takomillashgan;

– milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini mustaqil ta‘lim orqali rivojlantirishning fasilitativ yondashuvga asoslangan modeli «Umumiy pedagogika» nomli o‘quv qo‘llanmasi ishlab chiqilgan (Oliy va o‘rta



maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27-martdagi 274-sonli buyrug' i asosidagi 274-016m guvohnomasi). Natijada, kasbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalarning kasb tanlashi va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilgan;

– tadqiqotning milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmini ma'naviy, axloqiy, fasilitativ, faoliyati, madaniyatga oid komponentlarni mutaxassislik fanlari bilan integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirish bo'yicha olingan natijalari «O'zstandart» agentligining 2015-yil 15-fevraldagi 2-540-son qarori bilan tasdiqlangan bakalavriat yo'nalishlari Davlat ta'lim standarti mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 19 iyuldagi №89-03-2822-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy pedagogik ta'lim mazmunini modernizatsiyalashtirishga, o'quv dasturlarini takomillashtirishga erishilgan.

– tashkiliy, izlanuvchi, shakllantiruvchi, faoliyatli va yechim topishga yo'naltirilgan bosqichlarni loyihalashtirish asosida ishlab chiqilgan milliy hunarmandchilik vositasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasidan OT-F1-36 - «Talabalar ma'naviyatini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 19-iyuldagi №89-03-2822-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar ma'naviyatini diagnostika qilish mezonlari takomillashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schnepf, Gerald J. and Howard R. Bowen. 2007. «Social Responsibilities of the Businessman.» *The American Catholic Sociological Review* 15(1):42.
2. Katherine M. B. 2006. «Knowledge as a Marketing Strategy: Cultural Information and Ethnic Crafts in the Retail Environment» A thesis submitted in partial satisfaction of the requirements for the degree Master of Arts in Latin American Studies. University of California, San Diego 2006. P103.
3. Courtney Lee Weida. «Crafting Creativity & Creating Craft» Adelphi University, New York, USA. 2014 Sense Publishers.p-82.
4. «The EFA movement». United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved 11 Sep 2010.
5. United Nations Millennium Development Goals website, retrieved 21 September 2013.
6. UNESCO. «Word Education Form Press Kid» (PDF). Retrieved 3 March 2013.
7. Ромашина С.Я.Майер А.А. Педагогическая фасилитация сущность и пути реализации в образовании. Учеб. Пос. -М. 2010-63 с.



TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH (Alixonto'ra Sog'uniy risolalarini o'qitish misolida)

D.B. MAMADJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto'ra Sog'uniy risolalarini o'qitishda interfaol usul web-kvest usulidan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Alixonto'ra Sog'uniy, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar, pedagogik faoliyat, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosi, web-kvest usuli.*

This article about the advantages of using the interactive web-quest method in teaching the works of Alikhontora Soguni in the preparation of future primary school teachers for pedagogical activities.

Key words: *Alikhontora Soguni, future primary school teachers, pedagogical activity, rich scientific and spiritual heritage of our great ancestors, web-quest method.*

Данная статья о преимуществах использования интерактивного метода веб-квеста в обучении произведениям Алихонтора Согуня при подготовке будущих учителей начальных классов к педагогической деятельности.

Ключевые слова: *Алихонтора Согуня, будущие учителя начальных классов, педагогическая деятельность, богатое научное и духовное наследие наших великих предков, метод веб-квеста.*

XX asr Sharqiy Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan davlat arbobi, yirik allo-ma, adib, shoir va ulamo, tarixiy shaxs Alixonto'ra Sog'uniy bo'lib, o'z asarlarida mustaqillikning qanchalik ulug' ne'mat ekanligi, ta'lim-tarbiyaga qanchalik e'tibor kuchaysa jamiyat va davlat shunchalik rivojlanishi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Bu inson vatanparvar, komil inson, ko'p ilmlarni mukammal egallagan buyuk allomalarimizdan biri bo'lib, uning elparvarlik, vatan ravnaqi haqidagi ta'limoti ta'lim - tarbiya sohasida ham katta ahamiyatga ega. Bu buyuk ajdodimiz asarlarida insonning vatanga muhabbati, insonparvarlik, ma'rifat, mehroqibat kabi yuksak tuyg'ularni tarannum etganligi bilan izohlanadi.

Alixonto'ra Sog'uniy risolalarini o'qitishda interfaol usullardan biri bo'lgan Web-kvestlar hisoblanib, u juda qulay vositaga aylanadi. Web-kvest o'zlashtirish, tadqiq qilish, qayta ishlash va taqdim etish jarayonida talabalarning izlanish va tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan individual yoki guruhli ta'limning axborot shaklidir. Web-kvest texnologiyasini o'qitishning turli xil kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan materiallar bilan sezilarli



darajada to'ldirish, internet resurslari imkoniyatlaridan foydalanish, o'quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta'limni oshirish, professional kommunikativ va axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun foydali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Alixonto'ra Sog'uniy risolalarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning ijobiy motivlarini tarbiyalash, ularni qo'llash va yangilarini o'zlashtirish uchun bilim hamda faoliyat usullari tizimini shakllantirish; shuningdek, ixtiyoriy sa'y-harakatlarning keskinligi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.[1;81-b.] Alixonto'ra Sog'uniy risolalarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish hamda shaxsiy-motivatsion yo'nalganligiga ustuvorlik berish omillarini o'zaro samarali optimallashtirish asosida takomillashtirishga yordam beradi. Masalan «Taqdimot» usulida ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqdimot qiladi. Masalan, «Alixonto'ra Sog'uniy hayoti va ijodi» mavzusida taqdimot darsi o'tkazilganda o'quvchilarni avvaldan guruhlariga bo'lib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alixonto'ra Sog'uniy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alixonto'ra Sog'uniy ijodini «Klaster» usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alixonto'ra Sog'uniy she'rларini «Kungaboqar» usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alixonto'ra Sog'uniyning «Turkiston qayg'usi» asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo'nalishlar bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumot to'playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

«Taqdimot» darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllan-tirishga erishish mumkin:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;
- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olish;
- o'qib o'rganish, bilimni mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish, o'zini nazorat qila bilish kabi sifatlarga ega bo'lish;
- sinfda va jamiyatda o'z o'rnini anglay olish va boshqalar.

Na'muna:



Xronologik jadval

1885 yil 21 mart	<ul style="list-style-type: none"> •Sobiq Turkiston o'lkasining To'qmoq shahrida o'zbek oilasida dunyoga kelgan
1914-1916	<ul style="list-style-type: none"> •chor hukumatining mardkorlikka olish siyosatiga ommaviy qarshi chiqishlarda •hamda qirg'iz xalqining 1916-yilgi qo'zg'olonida faol ishtirok etgan
1956-yil	<ul style="list-style-type: none"> • "Tarixi Muhammadiy" asarini yozib tugallagan
1966-1973	<ul style="list-style-type: none"> •"Turkiston qayg'usi" Toshkentda yozilgan
Boshqa asarlari	<ul style="list-style-type: none"> •"Devoni Sog'uniiy"-she'rilar to'plami •"Shifo ul ilal" hastaliklar shifosi
Tarjimalari	<ul style="list-style-type: none"> •"Temur Tuzuklari" (forsiydan tarjma) •«Buxoro va Movarounnahr tarixi» (Herman Vamberi)

Konseptual jadval

Sog'uniiy asarlari va tarjimalari	Ta'riflar, toifalar, xususiyatlar va b.				
	Yil	Hajm	Asosiy mavzusi	Tarbiyaviy ahamiyati	Bosh qahramonlari
«Tarixi Muhammadiy»	1959-yil	495 bet	Payg'ambarimiz Tarixi	Kelajak avlod ichki dunyosi qashshoqlanishining oldini olish, azaliy qadriyatlar qimmatini payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) tarixi bilan tanishtirish	Muhammad (s.a.v) va sahobalar
«Turkiston qayg'usi»	1966-1973-yil	700 bet	Tarixiy-tarbiyaviy asar	Turkiston xalqi qanday qilib mustabid tuzumga qaram bo'lib qolganini davlat arbobi sifatida siyosiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilib ochiq qilgan	Alixonto'ra Sog'uniiy, Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asr oxirlarigacha bo'lgan davrdagi davlatchilik. Sharqiy Turkiston Jumhuriyati



«Devoni Sogʻuniy»	-	113 bet	Sheʼriy toʻplam	Asosan vatanparvarlik, ilm, adolat, halolikka undovchi, nasihat va gʻayratbaxsh ruhda yozilgan sheʼrlar	Alixontoʻra Sogʻuniyning koʻngil kechinmalari
«Shifo ul -ilab» (Xastaliklar davosi)	1937-yil		Tajribadan oʻtkazilgan tabobatga oid asar	Sharq tabobatini asrab qolish yoʻlida yozilgan	Yashil tabobat
«Buxoro va Movarounnahr tarixi» (Herman Vamberi)			Tarixiy asar tarjimasi	Mojor sharqshunosi Herman Yulius Vamberining qimmatli asari boʻlmish ushbu asarni usmonli turk tilidan oʻzbekchalashtirgan.	Buxoro va Movarounnahr

«Temur Tuzuklari» (Amir Temur)	1967		Tarixiy-tarbiyaviy asar tarjimasi (fors tilidan tarjima)	Amir Temur haqidagi haqiqatni ochib bergan Uni qonxoʻr, johil emas, insonparvar, odil boʻlganini va oqil va fozil jahongir boʻlganini dalillar bilan yoritgan	Amir Temur
«Musiqa risolasi» (Darvesh Ali Changiy)	-		Musiqashunoslikka oid asar tarjimasi	Musiqa nazariyasi boʻyicha qimmatli asarni oʻzbekchaga forsiydan tarjima qilgan	Musiqa nazariyasi
«Navodir ul -vaqoye» Ahmad Donish	-		Taʼlimiy-tarbiyaviy asar tarjimasi	Asarda insonni kamolotga yetish omillari, tarbiya haqida qimmatli fikr-mulohazalar, Barkamolikka yetishishda tarbiyaning qoidalariga eʼtibor qaratish zarurligini koʻrsatib oʻtadi.	Nodir voqealar

Alixontoʻra Sogʻuniy risolalarini oʻqitishda interfaol usullardan foydalanish imkoniyati Metodik tayyorgarligikni takomillashtirishda oʻquv materiallarini



mediaresurslar orqali masofaviy ta'lim sharoitida taqdim etishning yuqoridagi turli shakllari bevosita boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy-motivatsion o'zlashtirishini elektron nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Web-kvestlardan foydalanish talabalarni metodik tayyorgarligini oshirishga, turli vaziyatlarda harakatlana oladigan qilishga ko'mak beradi. Qolaversa, ijodiy Web-kvestlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kognitiv, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, tanqidiy fikrlashga, axborot faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga, ma'lumotlarda navigatsiya qilish jarayoniga yordam beradi, asosiy afzalligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mustaqil tahliliy va ijodiy fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетенции (на примере студентов неязыкового вуза: дис. ... канд. пед. наук. - М., 2011. - С. 81.
2. «Turkiston qayg'usi» Alixonto'ra Sog'uniiy - «Sharq» 2021.
3. «Baxtlik nedur'» Alixonto'ra Sog'uniiy- «Munir» 2021.
4. Qutlug'xon Shokirov. Ikki Turkiston g'ururi (1992)- <https://www.ziyouz.com/>



BOLALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH – PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TADQIQOT MUAMMOSI SIFATIDA

X.A.ABDUVALIYEVA,

Guliston davlat universiteti doktoranti

Ushbu maqola bolaning xalq qo'shiqlarini kuylash, xalq cholg'ularida chalish, xalq musiqalarini tinglashga munosabati yoshligidan boshlanishi kerakligi va ularni naqadar bolaning tarbiya va o'qishida muhimligini aks ettirgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va ota-onalarni qamrab olgan tadqiqotimizdan maqsad oilalar va bog'cha sinflari xalq qo'shiqlarini kuylash yoki tinglash, xalq cholg'ulari chalishga qancha vaqt sarflayotganini, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar; ularning ota-onalari o'rtasida xalq musiqasiga qiziqish darajasini aniqlash va ularni tahlilidan iborat.

Kalit so'zlar: *xalq musiqasi, musiqa faoliyati, maktabgacha yoshdagi bolalar, bolalar bog'chasi.*

This article highlights the importance of involving children in folk songs, participating in folk games, and listening to folk music from an early age, emphasizing the significance of these activities in a child's upbringing and education. Based on our research involving educators and parents from primary educational institutions, the aim is to determine the frequency of singing or listening to folk songs, the amount of time spent on folk games, as well as to identify the level of interest in folk music among children of school age and to analyze them among their parents.

Key words: *folk music, music activities, children of school age, children's group.*

Данная статья подчеркивает важность вовлечения детей в исполнение народных песен, участие в народных играх и прослушивание народной музыки с самого раннего возраста, подчеркивая значимость этих активностей в воспитании и образовании ребенка. На основе нашего исследования, в которое были вовлечены педагоги и родители из начальных образовательных учреждений, целью является определение частоты пения или прослушивания народных песен, количество времени, проводимого на народных играх, а также выявление уровня интереса к народной музыке среди детей школьного возраста и анализ этого интереса у их родителей.

Ключевые слова: *народная музыка, музыкальные мероприятия, дети школьного возраста, детская группа.*

Musiqa madaniyatining ko'rinishlaridan biri bu musiqa san'ati bo'lib, u boshqa san'at turlari qatorida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Musiqa yunonchadan san'at ma'nosini bildirib, mashhur bastakor, olim va o'qituvchi B.V.Asafiev ta'biri bilan aytganda, intonik san'atdir [1].

Musiqa sohasidagi bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, eng avvalo, unga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Zamonaviy jamiyatning turli xil inson ehtiyojlari orasida estetik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni estetik qadriyatlarni amaliy yaratish muhim o'rinni egallaydi.



Estetik ehtiyoj ko'p funktsiyali xususiyatni namoyon qiladi, shaxsning estetik rivojlanishining butun jarayonining asosi hisoblanadi va shunga mos ravishda shaxsni estetik tarbiyalashning eng muhim omilidir.

Axborotning quyi tizimi musiqa haqidagi bilimlar tizimidir. Bularga musiqiy tuyg'ular, idrok, g'oyalalar, tushunchalar, qarashlar kiradi. Ularning barchasi musiqa san'ati olamining hodisalari, xususiyatlari, munosabatlari shaxsning musiqiy ongidagi aksidir.

Asosiy qism: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asta-sekin, majoziy shaklda musiqa haqida tushuncha berish, uning tilida boshlang'ich yo'nalishlarni to'plashga hissa qo'shish, musiqiy ekspressiv vositalarning imkoniyatlarini amalga oshirish muhimdir. Musiqani idrok etishda bolalar uning kayfiyati, o'zgarishi, vizual elementlari, musiqiy ifodaning yorqin vositalari va boshqalarni farqlaydilar. Shu bilan birga, taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish kabi fikrlash mexanizmlari ishlaydi va rivojlanadi, bolalarning majoziy nutqi rivojlanadi. Shunday qilib, musiqani idrok etish bolaning diqqatini jalb qilishni talab qiladigan faol jarayondir. Bolalarni turli madaniyatlar va mintaqalarning xalq musiqasi bilan tanishtirish qiziqarli va ma'rifiy tajriba bo'lishi mumkin. Buni qanday qilish bo'yicha bir nechta tavsiyalar:

1. Turli xalq qo'shiqlarini tadqiq qiling va tanlang: Dunyoning turli madaniyatlari va mintaqalaridan xalq qo'shiqlarini qidiring. Siz ma'lum mamlakatlarga e'tibor qaratishingiz yoki kengroq madaniyatlarni o'rganishingiz mumkin. Bolalar uchun mos va jozibali ohanglarga ega bo'lgan qo'shiqlarni tanlang.

2. Yozuvlar va asboblarni to'plang: gitara, banjo, skripka, akkordeon yoki an'anaviy zarbli cholg'u asboblari kabi xalq musiqasida keng qo'llaniladigan turli xil asboblarni ko'rsatadigan xalq qo'shiqlarining yozuvlarini toping. Shuningdek, siz ushbu asboblarning bolalar uchun mos versiyalaridan foydalanishni ko'rib chiqishingiz yoki bolalarni yanada ko'proq jalb qilish uchun uy qurilishi asboblarni yaratishingiz mumkin.

3. Musiqiy muhitni yarating: bolalar xalq musiqasini tinglashlari, qo'shiq aytishlari va raqsga tushishlari mumkin bo'lgan maxsus joy o'rnatish. Hududni bayroqlar, an'anaviy kiyim yoki musiqa asboblari kabi turli madaniyatlarni ifodalovchi ingl.

4. Bolalarni jalb qiling: xalq qo'shiqlarining yozuvlarini ijro eting va bolalarni faol ishtirok etishga undash. Agar mavjud bo'lsa, ularni diqqat bilan tinglashga, qo'shiq aytishga va hatto o'z ovozlari yoki asboblari bilan ritm yoki ohanglarga taqlid qilishga undash.

5. Muhokama qiling va o'rganing: Har bir qo'shiqdan so'ng, musiqaning madaniy kontekstini muhokama qilish uchun bir oz vaqt ajrating. Amaldagi asboblari, qo'shiqning tarixi va u ifodalovchi madaniyat haqida qiziqarli faktlar haqida gapiring. Shuningdek, siz bolalarni o'z fikrlari va taassurotlari bilan bo'lishishga undashingiz mumkin.

6. Harakat va raqsni birlashtiring: xalq musiqasi ko'pincha an'anaviy raqslar



bilan birga keladi. Bolalarga oddiy raqs qadamlarini yoki musiqa bilan bog'liq harakatlarni o'rgating. Bu nafaqat musiqani qadrlashiga yordam beradi, balki tajribani yanada interaktiv va yoqimli qiladi.

Mashg'ulotlarni yoshga mos ravishda o'tkazishni va mashg'ulotlarni bolalarning qiziqishlari va qobiliyatiga qarab moslashtirishni unutmang. Bolalarni turli madaniyatlar va mintaqalardagi xalq musiqalari bilan tanishtirish orqali siz ularga xilma-xillikni qadrlash va dunyoning turli burchaklaridan kelgan musiqaga muhabbatni rivojlantirishga yordam berasiz.

Bolalarga an'anaviy qo'shiq va raqslarni o'rgatish ularning madaniy merosi bilan bog'lanish va turli xalq an'alarini qadrlashda yordam berishning ajoyib usuli hisoblanadi. 2. Resurslarni to'plang: Qo'shiq va raqslarni tanlaganingizdan so'ng, kerakli resurslarni to'plang. Bular ijro etilayotgan qo'shiqlarning audio yoki video yozuvlari, notalar, qo'shiq matnlari va raqsar uchun zarur bo'lgan har qanday rekvizit yoki asboblarni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Qo'shiq bilan tanishtiring: Bolalarni qo'shiq bilan tanishtirishdan boshlang. Yozuvni o'ynang yoki o'zingiz kuylang va bolalarni tinglashga va kuzatib borishga undash. Ularga qo'shiq so'zlarini asta-sekin o'rgating, agar kerak bo'lsa, ularni kichikroq qismlarga ajrating. Qo'shiq matnlarini aks ettirish va bolalarga ularni eslab qolishlariga yordam berish uchun plakatlar yoki tarqatma materiallar kabi ko'rgazmali qurollardan foydalanishingiz mumkin.

4. Raqsni o'rgating: Bolalar qo'shiq bilan tanishib chiqqandan so'ng, tegishli raqs bilan tanishtiring. Oddiy harakatlar bilan boshlang va bolalar qulay bo'lganda asta-sekin murakkablikni qo'shing. Raqs qadamlarini aniq ko'rsating va bolalarni sizning harakatlaringizga taqlid qilishga undash. Raqsni kichikroq qismlarga bo'ling va ularni birlashtirishdan oldin har bir qismni mashq qiling.

5. Asboblarni qo'shing: Agar an'anaviy qo'shiqlar daf yoki ksilofon kabi an'anaviy asboblarni o'z ichiga olsa, bu asboblarni bolalar bilan tanishtiring. Asboblarni yordamida asosiy ritm yoki ohanglarni qanday ijro etishni o'rgating. Bolalarga o'zlari yaratishi mumkin bo'lgan tovushlarni sinab ko'rish va o'rganishga ruxsat bering.

6. Amaliyot va mashq: Bolalar qo'shiq va raqsni o'rganganlaridan so'ng, ularning tushunishlarini mustahkamlash va ish faoliyatini yaxshilash uchun muntazam ravishda mashq qiling. Ularni uyda ham mashq qilishga undash. Bolalar guruh sifatida birgalikda qo'shiq va raqslarni ijro etishlari mumkin bo'lgan mashqlarni tashkil qilishni ko'rib chiqing.

Xulosa: Bolalar o'zlarini qulay his qilishlari va o'quv jarayonidan zavqlanishlari uchun qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhit yaratish. An'anaviy qo'shiq va raqslarni o'rgatish orqali siz bolalarda madaniy o'zlikni anglash, xilma-xillikni qadrlash, musiqa va harakatga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam berasiz.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, inson amaliy faoliyatda musiqa asari orqali insoniyatning ruhiy tajribasi bilan muloqot qiladi.



Musiqiy asarning shakli va mazmuni o'rtasidagi aloqalarning dialektikaga kirib borishi inson uchun shaxsan muhim bo'lgan yangi badiiy ma'noni keltirib chiqaradi.

1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyati biz uchun tizimli, maqsadli ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadigan integral shaxsiy sifat sifatida tushuniladi, uning mazmuni turli darajada musiqaga ongli qadriyat munosabati bilan namoyon bo'ladi.

2. Musiqa madaniyatining rivojlanishi shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning zaruriy shartidir. Musiqiy madaniyatning tuzilishiga ko'ra quyidagi yo'nalishlar ajratiladi: musiqiylik, motivatsiya, axborot, operativlik, baholash (R.A.Telcharova).

3. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyati estetik yo'nalishga ega bo'lib, fikrlash va tasavvurni, ijodiy faoliyatga hissiy-baholovchi munosabatni o'z ichiga oladi.

4. Musiqa madaniyati shaxsning biopsixologik xususiyatlari (musiqiy qobiliyatlar, tasavvur qilish qobiliyati, aql-zakovat, fikrlash qobiliyati va boshqalar) tufayli aniq shaxsiy-individual xususiyatga ega.

5. Musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi darhol sodir bo'lmaydi, balki asta-sekin, ma'lum bosqichlarni bosib o'tadi, ular aniq chegaralarga ega bo'lmasa-da, birining ikkinchisidan aniq ajralishi u yoki bu darajada farqlanadi. Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, musiqaning san'at sifatidagi xususiyatlarini, musiqiy va estetik idrok etish xususiyatlarini, shuningdek, musiqiy faoliyatning xususiyatlarini ajratib ko'rsatish ularning maktabgacha katta yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishga ta'sirini asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borota B. (2010). Raziskava o pevskem repertoarju v vrtcu, v oddelkih otrok prvegastarostnega obdobja [Survey on Song Repertoire in Kindergarten, among Children in the First Age Group]. Glasba v soli in vrtcu, 15, 6-14.

2. Cvetko I. (1991). Med godci in glasbili na Slovenskem [Among Folk Musicians and Instruments in Slovenia]. Ljubljana: Sekcija za glasbeno narodopisje.

3. Fu L. (2010). Folk Music Plays a Crucial Role in Children's Development: Research on How to Effectively Integrate Folk Music into Kindergarten Music Education, ISME. http://G-citation.allacademic.com/G/metaG-p406168_index.html



СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЁЖИ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ТУРИЗМЕ

Н.А. КОДИРОВА,
университет AMITY

В статье представлены особенности формирования представлений у молодёжи о туризме. Автором раскрыты особенности современного туризма и развитие туризма как показатель качественного развития государства. Автор подробно раскрыл мотивы для человека путешествовать.

Ключевые слова: социально-психологические аспекты, туризм, качество, мотив, суггестия, стресс, анимация, досуг.

Maqolada yoshlarda turizm haqidagi g'oyalarni shakllantirish xususiyatlari ko'rsatilgan. Muallif zamonaviy turizmning xususiyatlarini va turizmning rivojlanishini davlatning sifat jihatdan rivojlanishining ko'rsatkichi sifatida ochib beradi. Muallif insonning sayohat qilish sabablarini batafsil ochib bergan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-psixologik jihatlar, turizm, sifat, motiv, taklif, stress, animatsiya, bo'sh vaqt.

The article presents the features of the formation of youth ideas about tourism. The author reveals the features of modern tourism and the development of tourism as an indicator of the qualitative development of the state. The author revealed in detail the motives for a person to travel.

Key words: socio-psychological aspects, tourism, quality, motive, suggestion, stress, animation, leisure.

Сфера туристических интересов в Узбекистане включает как активные виды отдыха и спортивного туризма, типа скалолазания и горнолыжного спорта, так и путешествия с познавательными целями, где объектом познания является богатая археологическая и религиозная история этой страны.

Растёт количество туристов, ежегодно приезжающих в Узбекистан: в 2005 году количество туристов, посетивших Узбекистан, составило 240 тысяч человек из 117 стран мира, а в 2017 году Узбекистан посетили более 2,5 миллиона туристов. Количество туристов в 2018 году составил 5,3 миллиона, из них 5 миллионов из стран СНГ, 325 тысяч из дальнего зарубежья.

Каждую осень в Узбекистане проводится Международная туристическая ярмарка. Большинство туристов желают посетить: исторические места, памятники, музеи и художественные галереи, древние здания и сооружения (например, древние крепости, мечети, медресе, библиотеки, бывшие тюрьмы и колодцы), а также парки, национальные фестивали и другие культурные мероприятия.



Офис Всемирной туристской организации (ВТО) был открыт в Самарканде в 2004 году. Этот офис призван координировать усилия международных организаций и национальных туристических организаций стран, расположенных на Великом шёлковом пути.

Согласно данным Госдепартамента США, Узбекистан находится в группе безопасных стран для туризма, в которых следует принимать обычные меры предосторожности.

«В стране последовательно реализуются комплексные меры по развитию туризма как одной из стратегических отраслей национальной экономики, обеспечивающей ее диверсификацию и ускоренное развитие регионов, создание новых рабочих мест, повышение доходов и качества жизни населения, а также улучшение инвестиционной привлекательности.

Ускоренному развитию туризма также препятствует нехватка средств размещения и объектов инфраструктуры, особенно в туристский сезон, недостаточная скоординированность системы перевозок пассажиров различными видами транспорта, а также низкая организация информационной поддержки туристов об имеющемся туристском потенциале, неэффективность маркетинговых кампаний по пропаганде внутреннего туризма, особенностей объектов культурного наследия и паломничества в регионах страны.»

Туризм можно рассматривать как фактор совершенствования качества жизни. В данном случае туристическая деятельность связана не только с прямым экономическим эффектом в виде дополнительных доходов, создания новых рабочих мест, развития инфраструктуры, но и с влиянием туризма на социально-психологическое состояние человека, улучшение его здоровья и уровня благосостояния.

Таким образом, возможность смены обстановки, гарантируемой мозаичной разнообразностью стран и регионов – одно из важнейших преимуществ туристической деятельности, способствующей укреплению тела и духа человека.

Но современный турист не удовлетворяется только сменой обстановки. Теперь помимо размещения и питания он стал включать и другие элементы, направленные на удовлетворение потребностей в развлечениях, веселом проведении досуга, в эмоциональной разгрузке. Поэтому в обиходе туристической деятельности и технологии гостиничного обслуживания появилось такое понятие, как анимация, – вид деятельности, обеспечивающий улучшение психологического состояния туриста, улучшающий его физическое состояние.



Булыгина, рекреационная анимация включает досуговую анимацию (с местными жителями); анимационные туристские маршруты; гостиничную анимацию (игры, викторины и т.п.); дополнительные анимационные услуги в технологических перерывах.

Аниматорами являются, как правило, молодые люди, которые как бы передают свою энергетику гостям. Аниматоры задают настроение отдыхающим, стараются контактировать с туристами, играют ключевую роль в развлекательных программах. Эти люди ответственны за улучшение социально-психологического климата среди отдыхающих.

Кроме аниматоров в некоторых отелях функционирует служба «паблик рилейшнз», работники которой решают проблемы, возникающие у отдыхающих. Хорошая работа этой службы является залогом уверенности и устойчивого социально-психологического состояния туристов. Учитывая, что в туристическом, гостиничном бизнесе приходится общаться с иностранными туристами из многих стран, специалисты отмечают важность владения социально-психологическими средствами общения, в частности, межкультурными коммуникациями, знанием обычаев, особенностей различных религий.

К психологическим методам, применяемым в туризме, можно отнести психотехнологию продаж турпродукта, то есть действия турагента (туроператора), основанные на знании социально-психологических закономерностей взаимодействия с клиентом, умении управлять им в интересах деятельности фирмы.

Можно выделить следующие мотивы путешествий.

Забота о сохранении здоровья. В данном случае поездка связана с лечением, пляжным отдыхом, занятием оздоровительными видами спорта. Во время таких поездок появляется возможность заниматься регулярно теми видами спорта, которые лишь эпизодически доступны в течение года, а также систематически получать медицинские процедуры.

Образовательные цели. Практикуются туры с целью изучения иностранных языков, получения бизнес-образования (менеджмент, маркетинг и др.); распространенными становятся обучающие туры по интересам (кулинария, искусство, экология и др.).

Важным мотивом является возможность для самовыражения и самоутверждения. Это так называемые приключенческие туры: покорение горных вершин, кругосветные путешествия, подводная охота, различные экспедиции и т.д.



Стимулом поездки также может стать возможность заняться любимым делом (хобби) в среде единомышленников. Такие туристы предпочитают специальные туры (для автолюбителей, спортивных болельщиков, паломников и т.д.).

Деловой туризм. Сюда можно отнести деловые и конгресс-туры.

Распространены поездки с целью развлечений и потребности общения с другими людьми. Такие поездки часто осуществляются в праздничные дни.

Важной составляющей международных путешествий являются поездки с целью повышения культурного уровня. Так, организуются туры по знаменитым городам, столицам, историческим и культурным центрам.

Событийный туризм предполагает поездки с целью посещения определенных мероприятий.

Мотивы также определяются и типом личности туриста: возраст, образование, социальная принадлежность, менталитет, вероисповедание, доход, семейное положение. Можно также выделить антимотивы – барьеры, препятствующие путешествию. К их числу стоит отнести стоимость турпродукта, дефицит времени, ограничения по здоровью, жизненный цикл семьи, дефицит интересов, страх и безопасность.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О туризме» от 10.07.2019 ЗРУ-549.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию туризма в Республике Узбекистан» от 13.08.2020 года УП-5781.
3. Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в республике Узбекистан», от 05.01.2019 г. № УП-5611.
4. Богатырева Т.Г., Воскресенский В.Ю. Качество жизни и культурно-образовательный туризм. М., 2002
5. Глушкова В.Г., Симагин Ю.А. Тесты и задания по экономической и социальной географии мира. М.: Владос, 2000
6. Филипповский Е.Е., Шмарова Л.В. Экономика и организация гостиничного хозяйства. М.: Финансы и статистика, 2003.



TALABALARDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

A.B. MAMANAZAROV

*M.V. Lomonosov nomidagi MDU
Toshkent shahridagi Filiali
direktor o'rinbosari, DSc, dotsent*

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, pedagogika fani, rivojlantirish, iqtisodiy madaniyat, imkoniyat, shart-sharoit, savodxonlik, ta'lim, tarbiya, jarayon.*

This article reveals important aspects of the development of economic culture in students of higher education institutions.

Key words: *higher education, pedagogical science, development, economic culture, opportunity, conditions, literacy, education, upbringing, process.*

В данной статье раскрыты важные аспекты развития экономической культуры у студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: *высшее образование, педагогическая наука, развитие, экономическая культура, возможность, условие, грамотность, образование, воспитание, процесс.*

Jahon oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning ijodiy texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu iqtisodiy ta'lim mazmunini o'zgartirish, talabalarning iqtisodiy bilimlarini yuksaltirish, ularni iqtisodiy faoliyatga tayyorlash, mehnat, tadbirkorlik, biznes va nazoratga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, taqsimlash, tanlash, innovatsiyalar, integratsiya, aksiologik va moslashuvchanlikni hamda raqamli ta'lim kontentini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida iqtisodiy ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarda iqtisodiy savodxonlikni oshirish, iqtisodiy ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirish, talabalarni raqamli iqtisodiyotda mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash, talabalarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik jarayonni takomillashtirish, iqtisodiy ongliklik va tanqidiy fikrlashni oshirish, raqamli ta'limda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish modellari va texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Respublikamizda soʻnggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar, rivojlangan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, yoshlarda iqtisodiy bilimdonlikni shakllantirish, maqbullik prinsipiga asoslangan yuksak axloq va iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. «Jismonan sogʻlom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qatʼiy hayotiy nuqtai-nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada, boʻlajak mutaxassislar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaymoqda. Mazkur masalani ruyobga chiqarishda bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar asos boʻlish mumkin. Ular qatorida: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-con «2022-2026-yillarda Yangi Oʻzbekiston rivojlantirishning harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida» Farmoni [1], 2017-yil 20-aprelda PQ-2909-son «Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» [2], 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son «Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» [3], 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» [4], 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son «Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida» [5] Qarorlari.

Jahonda yoshlarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish, ularda iqtisodiy bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish bilan bogʻliq izlanishlar etakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy taʼlim muassasalarida, jumladan, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federasiyasi), University of Shisago (AQSh), Belaruski dzyarjaoʻni ekanamichni universitet (Belorussiya), Polonia University in Szesosthova (Polʼsha), V.Getman nomidagi Kiyev milliy iqtisodiyot universiteti (Ukraina)da va Rezekne academy of teshnologies (Latviya) kabilarda amalga oshirilmoqda.

Talaba-yoshlarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish boʻyicha jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar orqali qator natijalarga erishilgan. Jumladan: yoshlarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish usullari bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti); talaba-yoshlarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishning modellari raqamli iqtisodiy talablarga uygʻun moslashtirilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti); oʻquvchi-yoshlarga iqtisodiy bilimlarni oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalar shaxs, jamiyat talablariga adekvat moslashtirishgan (Moskva davlat pedagogika universiteti); insonlarning iqtisodiy qarorlarni toʻgʻri qabul qilishlarida bozor munosabatlarining taʼsiri hamda ularning



ijtimoiy afzalliklari va kamchiliklari faktorli tahlillar asosida aniqlangan (University of Chicago); talabalar iqtisodiy madaniyatini shakllantirish jarayonining samaradorligi monitoringi psixologik-pedagogik jarayonlar barqarorligini ta'minlash asosida aniqlangan (Belarus Davlat iqtisodiyot universiteti); jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy tuzilishi va uning iqtisodiy madaniyatga ta'siriga yo'naltirilgan integrativ ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan (Polonia University in Szestoshowa); iste'mol madaniyati tushunchasini iqtisodiyot nazariyasi va ijtimoiy fanlar mazmuniga singdirish asosida yoshlarning iqtisodiy madaniyati dinamikasi aniqlangan (V.Getman nomidagi Kiyev milliy iqtisodiyot universiteti); talaba-yoshlarda turizm, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik va biznesni boshqarish ko'nikmalarini amaliyot bilan hamohang olib borish metodlari takomillashtirilgan (Rezekne texnologiya akademiyasi, Latviya).

Dunyoning etakchi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: oliy ta'lim tizimida iqtisodiy ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini innovasion yondashuvlar asosida takomillashtirish; bo'lajak mutaxassislarining iqtisodiy madaniyatini rivojlangan bozor munosabatlari talablari asosida rivojlantirish; oliy ta'lim muassasalari talabalarining jamiyat iqtisodiy hayotiga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida iqtisodiy ta'lim mazmunini takomillashtirish; talabalarda inson kapitalining mohiyatini anglash va shu asosida ijtimoiy munosabatlar ko'lamini kengaytirish kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Talabalarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni subyektlar dunyoqarashi, kasbiy kompetentligi, iqtisodiy munosabat jarayonlari, xo'jalik infratuzilmasining optimalligi, barqarorligi hamda shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unligi darajasini oshirishga qaratilgan effektiv moliyaviy tizim bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini intensiv aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan; talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari muammoli treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari, ommaviy disputlar, individual taqdimotlar, yangi keyslar, emotsional-qadriyatli munosabatlar va iqtisodiy faoliyat turlarini ijodiy sahnalashtirish, imitatsiyalashtirish hamda mantiqiy-analitik tafakkurni kichik tadqiqotlar o'tkazishga bosqichma-bosqich yo'naltirish asosida takomillashtirilgan; talabalarning iqtisodiy madaniyatini pedagogik korreksiyalash mezonlari kognitiv-qadriyatli, intellektual-ijodiy, amaliy-faollikka yo'naltirilgan iqtisodiy tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda inson munosabatlari va xulq-atvorini tartibga soluvchi me'yorlar, ehtiyojlar hamda manfaatlarni ta'lim maqsadlariga ko'ra optimallashtirish asosida takomillashtirilgan; talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish modeli bilimlarning variativligi, ijtimoiy-pedagogik shakl xilma-xilligi, individual rivojlanish imkoniyatlari, ma'naviy fazilatlar hamda nazariy bilimlar, iqtisodiy dunyoqarash, ustuvor iqtisodiy vazifalarni ajratish va anglash ko'nikmasini izchil shakllantirish asosida takomil-



lashtirilgan; noiqtidosiy ta'lim yo'nalishlari talabalari iqtisodiy madaniyatining rivojlanganlik monitoringi iqtisodiy munosabatlardagi adekvatlik va mikrososiumga moslashuvshanlik hamda elektiv kurslar va mustaqil ishlab chiqarish kognitiv axborot, qadriyatli yo'nalganlik va intellektual-ijobiy faoliyatining yaxlitligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

O'zbekistonda doimiy rivojlanib borayotgan bozor dinamikasi jismoniy shaxslarni iqtisodiy landshaftda mustahkam o'rin egallashga chaqiradi, bunga faqat ularning iqtisodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Shuning uchun talabalarga iqtisodiy tushunchalarni uslubiy va har tomonlama tushunish hamda ularda iqtisodiy bilimlarni, analitik fikrlashni va iqtisodiy munosabatlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan shaxslararo vakolatlarni rivojlantirish vositalari bilan jihozlash juda muhimdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisod fakul'teti talabalariga nafaqat iqtisodiy tamoyillar haqida chuqur tushuncha berish, balki boshqa sohalarning bo'lajak mutaxassislariga jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti to'g'risida aniq tasavvurni shakllantirishga yordam beradigan yangi iqtisodiy bilimlar berish hamda pedagogik imkoniyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-con «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston rivojlantirishning harakatlar strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarori.



OILALARDA O'SMIR YOSHLARNI IJTIMOYIY-MA'NAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

B.XUSANOV,

«Oila va xotin-qizlar» ilmiy tadqiqot
instituti mustaqil izlanuvchisi

Maqolada o'smirlik davridagi ijtimoiy-ma'naviy kompetensiya jamiyat tuzilishi, ularda ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyaning namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'smir fazilatlarini tarkibida individualizmning kuchayishi bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. *Ijtimoiy-ma'naviy kompetensiya, xususiyat, ijtimoiy-ma'naviy vaziyatlar, fazilat, element, qadriyat sifatida, muvaffaqiyat.*

В статье размышляется о социально-духовной компетентности подростков, о структуре общества, особенностях проявления социально-духовной компетентности у них. Автор также дал рекомендации по усилению индивидуализма в структуре подростковых качеств.

Ключевые слова. *Социально-духовная компетентность, черта характера, социально-духовные ситуации, добродетель, элемент, как ценность, успех.*

The article reflects on the social-spiritual competence of adolescence on the structure of society, the peculiarities of the manifestation of socio-spiritual competence in them. The author also made recommendations on the strengthening of individualism in the structure of adolescent qualities.

Key words. *Socio-spiritual competence, trait, socio-spiritual situations, virtue, element, as value, success.*

O'smirlar va yoshlarning qadriyat yo'nalishlarida o'zgarishlar yuz berdi. Sotsiologik tadqiqotlar natijalari (yigirmanchi asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab) yoshlar orasida shaxsiy, shaxsiy-hayotiy qadriyatlarining roli oshganligini qayd etdi (oila asosiy qadriyat sifatida, moddiy ta'minot, muvaffaqiyatli nikoh, sog'lom bolalar, uy-joy va boshqalar.).

Shu bilan birga, tadqiqotchilar hayotiy qadriyatlar va manfaatlarning asosan ko'ngilochar va rekreatsion yo'nalishiga ishora qiladilar; madaniy ehtiyojlar va manfaatlarni g'arblashtirish, milliy madaniyat qadriyatlarini G'arb xulq-atvori va ramzlari bilan almashtirish va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining qadriyatlar tizimida ustunlik qilishiga qaramay: muvaffaqiyatga intilish, moddiy farovonlikka erishish, yuqori ijtimoiy mavqe sifatida tushuniladi; tadbirkorlik, tashabbuskorlik, tavakkal qilishga tayyorlik, hayotda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida zukkolik, shaxsning muhim xususiyati – mustaqillik oiladagi o'smirlar uchun xos emas, ular muayyan hayotiy vaziyatlarda yoshlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan



qadriyatlar haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar.

Boshqa tadqiqotchilar ham xuddi shunday xulosaga kelishadi. O'smirlik muhitida bilim, ijodkorlik, faollik, faol hayot, tabiat va san'at go'zalligi qadrlan-maydi. Bu pozitsiya yosh avlodning kattalar hayotiga nisbatan negativizmini, keng tarqalgan infantilizmni ifodalaydi. O'z faoliyatining rolini noto'g'ri tushunish hayotda mas'uliyat yetarli emasligini va bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni istamasligini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi da'volar bilan zamonaviy yoshlar ko'pincha o'zlarining maqsadlariga erishishda, ushbu rejalarini amalga oshirishda infantilizmni namoyon etadilar.

O'smirning ijtimoiy qobiliyatsizligi quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

- ijtimoiy o'zaro munosabatlarda shaxslararo refleksiyaning yetishmasligi;
- boshqa odamning o'rni egallay olmaslik, uning holatini tushunish, uning xatti-harakatlariga munosabatini oldindan bilish, o'zaro ta'sir paytida yetarli qaror qabul qilish va hokazo.

Bu tabiiy ravishda ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlarga olib keladi, buning oqibati kamida do'stlar, sinfdoshlar doirasidan qisman ajralishi mumkin.

Ota-onalarga, o'qituvchilarga doimiy qo'pol javoblar, ularga e'tibor bermaslik, ularning va'dalari va majburiyatlarini bajarmaslik, sabablarini maqbul tushuntirishsiz ularning so'rovlariga javoban yordam yetishmasligi - ijtimoiy muhit bilan munosabatlarning yomonlashishiga olib keladi va oxir-oqibat, tegishli ijtimoiy muhitdan to'liq chiqarib tashlash yuz berishi mumkin.

Ijtimoiy-ma'naviy kompetensiya har bir o'smir uchun vaziyatni, boshqa odamlarning – ota-onalarning, o'qituvchilarning holatini, ularning reaksiyalarini tushunish va tahlil qilish, mojaroni hal qilishning yanada konstruktiv usulini tanlash, voqealar oqibatlarini oldindan bilish qobiliyati sifatida muhimdir.

Bugungi kunda o'smirlar aholining eng jinoiy faol qismi bo'lib qolmoqda. O'smirlar tomonidan alkogol ta'sirida sodir etilgan jinoyatlar soni ortib bormoqda.

Shunday qilib, muammoning tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'smir-larning muhim qismi past ijtimoiy-ma'naviy kompetensiya bilan ajralib turadi. Yoshlarining aksariyati zarur ijtimoiy rollarni bajarishga tayyor emas, mustaqil tanlov qila olmaydi, o'z harakatlarining oqibatlarini bashorat qila olmaydi va xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi, shaxsning erkinligi va mustaqilligini noto'g'ri talqin qiladi. Mas'uliyatsizlik, o'z harakatlarini tahlil qila olmaslik va qaror qabul qila olmaslik, past refleksivlik, yuzaki o'z-o'zini anglash, o'z maqsadlariga erishish va hayot rejalarini amalga oshirishda infantilizm, haddan tashqari da'volar, egoistik munosabat, pragmatik qadriyatlar va tavakkal qilishga tayyorlik nisbatan farovon oilalardan bo'lgan o'smirlarga xosdir.

Infantilizm, past ijtimoiy kompetensiya ko'pincha deviant harakatlarni sodir etish uchun sabab bo'ladi, shuningdek, barcha o'smirlarni ijtimoiy-ma'naviy kompetensiya yetishmovchiligining rivojlanishi bilan bog'liq xavf guruhiga kiritish mumkinligi sababli, uni shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish muammosi juda dolzarb bo'lib qoladi.

Mavjud ijtimoiylashuv nazariyalarining har bir inson qanday qilib jamiyatda



ishlashi uchun zarur bo'lgan ma'lum bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlariga ega bo'lishini, ya'ni ijtimoiy jihatdan barkamol, ijtimoiy o'zaro aloqaga qodir bo'lishini ko'rib chiqadi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiylashuv natijasining mohiyatini tushunishga yagona yondashuv mavjud yemas. Shunday qilib, K.V. Minina insonning ijtimoiylashuvini olingan qarashlar tizimining barqarorligi va uyg'unligi, o'zini boshqarish, atrof-muhitni his qilish, ma'lum bir maqomga erishish qobiliyati, deb tushunadi. O.V. Kuchmanova ijtimoiylashuv ko'rsatkichlari sifatida hayotning turli sohalarida ijtimoiy va shaxsiy qadriyat munosabatlarining mos kelish darajasini belgilaydi. Shuningdek, u odamlar tomonidan ijtimoiy fazilatlar majmuini egallashini ko'rsatadi, ularning boyligi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning kengligiga, ma'lum bir qadriyatlar to'plamini o'zlashtirish natijasida shaxsni aniqlash darajasiga bog'liq.

Ijtimoiylashuv samaradorligini adabiyotda ajralib turadigan ushbu jarayonga ikkita asosiy yondashuv – subyekt-obyekt va subyekt-subyekt yondashuvlari asosida ko'rib chiqish mumkin. Birinchi yondashuv subyekt-obyekt – tizimli-tarkibiy, funksional paradigma, ijtimoiy-tarixiy determinizmga muvofiq shakllanadi. Ushbu paradigma vakillarini mikrosotsiologik hodisalarni o'rganishga qiziqish birlashtiradi, shaxs ular tomonidan birinchi navbatda tashqi sharoitlar bilan belgilanadi, bu ularning natijasidir. U ma'lum ijtimoiy-ma'naviy rollarning tashuvchisi va ijtimoiy tuzilmaning bir qismidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida faol prinsip jamiyatga (subyekt ijtimoiylashuvi) tegishli bo'lib, shaxsga passiv rol (obyekt) beriladi va ijtimoiylashuvning o'zi insonning jamiyatga moslashish jarayoni sifatida qaraladi, bu uning har bir a'zosini o'ziga xos madaniyatiga muvofiq shakllantiradi.

Ikkinchi, individual-yo'naltirilgan, subyekt-subyekt yondashuvi kontekstida ijtimoiylashuv jarayoni uzoq davom etadi vva bu bir qator bosqichlarga ega bo'lib, ular davomida shaxs o'zi bilan aloqada bo'lgan boshqa odamlarning reaksiyalari asosida o'zining «men»ini quradi. Shaxsning «men»ini qurish jamiyat normalari va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonida faolligini oshiradi.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda ijtimoiylashuv samaradorligi ko'pincha subyekt-obyekt yondashuviga muvofiq ko'rib chiqiladi. Ijtimoiylashgan, ya'ni ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyali shaxs – bu jamiyatning qadriyatlarini va me'yorlarini o'zlashtirgan, maqomlar to'plamiga ega bo'lgan, tegishli rol kutishlarini bajaradigan shaxs. Ijtimoiylashuv natijalarining so'nggi tadqiqotlari zamonaviy sharoitda insonning aynan shu xususiyatlarini ochib beradi.

Biroq, bugungi kunda, jamiyatimizning o'zgarishi sharoitida, insonning jamiyatda muvaffaqiyatli ishlashiga imkon beradigan majburiy ijtimoiy rollarni o'zlashtirishning muhimligi insondan yanada mas'uliyatli, mustaqil, mulohazali va vaziyatlarga tanqidiy munosabatda bo'lish talab etiladi. Bu ijtimoiy o'zgarishlarning tezkorligi, noaniqlik va beqarorlik, ijtimoiy muhitning murakkablashishi, yangi xavf omillarining paydo bo'lishi va davlatning o'z fuqarolariga bo'lgan tashvishini kamaytirishning umumiy tendensiyasi bilan bog'liq.



Shaxsning kompetensiya belgisi bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini tahlil qilish ko'proq darajada subyekt-subyekt yondashuvi doirasida amalga oshiriladi, uning tarafdorlari ijtimoiylashgan shaxs nafaqat jamiyatga moslashgan, balki o'z rivojlanishining subhekti bo'lishga qodir deb hisoblashadi.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy tizimda va mamlakatdagi har qanday iqtisodiy vaziyatda mavjud bo'lgan o'smirlarning ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyasini shakllantirishning eng muhim omili ota-onalarning o'smirlar bilan o'zaro munosabatlar turidir. Mustaqil, mas'uliyatli, refleksiv shaxsning rivojlanishi uchun noqulay vaziyat – bu ham qattiq, ham avtoritar tarbiya bo'lib, o'smir e'tiborsiz qolganda deyarli to'liq nazorat yetishmaydi. Shubhasiz, ota-onaning ortiqcha g'amxo'rliqi o'smirming o'zi qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda ham to'siq bo'lishi mumkin.

Ota-onaning befarq munosabati, o'smirming nazorat qilmasligi ham ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyani rivojlantirishga hissa qo'shmaydi. O'smirlarga xohlagan narsani qilishga ruxsat beriladi, ularning ishlari hech kimni qiziqitmaydi. Ko'rinishidan, bu variant o'smirming mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq o'smirlar ba'zan isyon qilsalar ham, ota-onalarining yordamiga muhtoj. Bundan tashqari, ular o'z farzandlariga g'amxo'rlik yetishmasligi mas'uliyatsizlikning eng yuqori darajasidir. Shuningdek, har qanday tarbiya turi bilan ota-onalarning xulq-atvori – o'z hayotiga beparvo munosabat, tasodif bilan hisoblashish, voqealarni rejalashtira olmaslik, o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan bilish – ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyaning zarur tarkibiy qismlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Ota-ona sevgisi barkamol shaxsni tarbiyalash uchun mutlaqo zarur, ammo judayam shart emas. Haddan tashqari himoya – bolaga g'amxo'rlik qilish, uning butun hayotini haddan tashqari nazorat qilish – passivlikka, mustaqillikning yetishmasligiga, ota-onalar yo'qligida qaror qabul qila olmaslikka olib keladi. Shunday qilib oila va maktab, siz bilganingizdek, ijtimoiylashuv jarayoni va yosh avlodning ijtimoiy-ma'naviy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni sodir bo'ladigan asosiy ijtimoiy muhitdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T.:O'zbekiston, 2021.-B.280.
2. Musurmonova O., Quronov M., Abdujabbarova M. Mahalla-hayot ko'zgusi. -T.:YOSHLAR MEDIAPRINT, 2021.-B.4-5.
3. Jonixonov M., Maxsumov S. O'zbekistonda zamonaviy va malakali tibbiy xizmat tizimi yaratilgan // Xalq so'zi. 2011 yil 26 noyabr.
4. Xidirova B., Umarova I., Manzurova N., Umarova M. O'zbekistonning tibbiyot sohasidagi yutuqlariga havas qilsa arziydi // Xalq so'zi. 2011 yil 25 noyabr.
5. Jonixonov M., Maxsumov S. O'zbekistonda buyuk kelajak va yosh avlod istiqbolini o'ylab ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tufayli yuksak natijalarga erishilmoqda // Xalq so'zi. 2011 yil 30 noyabr.



O'QUVCHILARDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI HOSIL QILISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

E. Y. DAVLETOV,

*Urganch davlat pedagogika instituti
«Pedagogika, boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim metodikasi» kafedrası v.b. dotsenti*

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumiy o'quv harakatlarini hosil qilish yangi bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirish uchun o'quvchilarning mustaqil muvaffaqiyat qozonishlariga qulay sharoit yaratish haqida fikr yuritilgan bo'lib, pedagog olimlar, o'qituvchilar, dastur va darslik mualliflari, tadqiqotchilar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: *hayotiy kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, kommunikativ, axborot, ijtimoiy, milliy va umummadaniy, shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish.*

В данной статье рассматривается идея формирования у младших школьников общих учебных действий по формированию новых знаний, умений и компетенций, созданию благоприятных условий для самостоятельного успеха учащихся, которая служит руководством для ученых-педагогов, педагогов, авторов программ и учебников, исследователей.

Ключевые слова: *жизненных компетенций, базовые компетенции, коммуникативная, информационная, социальная, национальная и общая, личностное саморазвитие.*

In this article, it is given creating a conducive environment for students to succeed independently in order to form general learning movements, form new knowledge, skills and competencies in primary school students. In turn, it serves as a programming tool for pedagogical scholars, teachers, program and textbook authors, and researchers.

Keywords: *life competencies, basic competencies, communicative, informational, social, national and cultural, personal self-development.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan kompetensiyalar ular uchun faoliyat manbai bo'lib, ta'lim oluvchilar shaxsiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Universal o'quv harakatlari konsepsiyasi doirasida kompetentlik harakatdagi bilimlar sifatida baholanadi. U o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash layoqatidir. Kompetensiyalar bilim, ko'nikma, malakalar, sifatning tayanch majmui hisoblanadi.

Matematik kompetentlik bilimlarni tashkil etish shakli bo'lib, quyidagilarni taqozo etadi. Ular:

– tarkiblashtirish;



- tezkorlik;
- moslashuvchanlik;
- tushunchaviy xarakterga egalik;
- bir shakldan boshqasiga ko‘chirish layoqatiga egalik;
- turli amaliy vaziyatlarda ularni qo‘llashga tayyorlik kabilardan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish vositasi sifatida matematika darslarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan yondashgan holda darsliklarda berilgan o‘quv materiallari mazmunida o‘z ifodasini topadi. Darsliklarda beriladigan shartli belgilar kompetensiyaviy yondashuv asosida ta‘lim berish uchun qulay vaziyatlarni yaratadi. Masalan, matematika darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun juftliklarda ishlash metodidan foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda mazkur darslarda ijtimoiy, o‘quv-biluv kompetensiyalari shakllantirilib, o‘quvchilar uchun nostandart vaziyatlarda ishlash imkoniyatlari kengaytiriladi. Jumladan, o‘quv-biluv kompetensiyalari o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: maqsadga intilish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiyalash, o‘quv-biluv faoliyatini mustaqil baholash kompetensiyalari.

Aynan, o‘qishga o‘rganish kompetensiyasi doirasiga:

- maqsad qo‘ya olish, unga erishish jarayonini tashkil etish, uni oydinlashtira olish;
- o‘z o‘quv-biluv faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiyalash, baholashni tashkil eta olish;
- kuzatilgan dalillar asosida savollar berish, hodisalarning sabablarini izlash, o‘rganilayotgan muammoga nisbatan o‘zining tushunishi yoki tushunmasligini ifodalash;
- bilish vazifalarini qo‘yish va farazlarni ilgari surish;
- kuzatishlar yoki tajribalarni o‘tkazish shart-sharoitlarini aniqlash, natijalarni yozish, xulosalarni shakllantirish;
- o‘z tadqiqoti natijalari haqida yozma yoki og‘zaki chiqishlar qilish;
- moddiy borliq manzarasini idrok eta olish kabilar kiradi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi doirasida aniq obyektlar hamda axborot texnologiyalari yordamida zarur axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, tashkil etish, qayta shakllantirish, saqlash va uzatish kompetensiyalari shakllantiriladi. Bunday aniq obyektlar sirasiga televizor, audio-, video-DVD, telefon, faks, kompyuter, printer, modem kabilarni kiritish mumkin. Axborot texnologiyalariga esa ovozli hamda ko‘rgazmali yozuvlar, elektron manzillar, Internet kabilar kiritiladi. Bu jarayonda matematik masalalar va misollardan foydalaniladi. Masalan:



- turli axborot manbalari bilan ishlay olish ko‘nikmasini egallash;
- zarur axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tizimlashtirish va muhimlarini tanlab olish, tashkil etish, qayta shakllantirish va o‘zaro uzatish;
- axborot oqimlari ichida to‘g‘ri yo‘nalish olish, ular orasidan eng muhimlari va zururlarini tanlay olish;
- axborot qurilmalaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallash;
- o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish kabilar.

O‘quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini modulli o‘quv vositalari yordamida hosil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular:

- muayyan mavzuga qiziqtirish uchun beriladigan savollarni tanlash;
- muayyan mavzuga oid aniq, qiziqarli dalillarni izlab topish;
- intellektual jihatdan rivojlangan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan savol va topshiriqlar tanlash;
- qiziqarli masalalar taqdim etish;
- chizmalı konspektlar bilan ishlash;
- oson va murakkab savollar ustida ishlash;
- shartli belgilar bilan ishlash kabilardan iborat.

O‘quvchilarda turli manbalardan axborot olish ko‘nikmasini hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi doirasida maqsadli-fikriy kompetensiyalarni shakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur kompetensiya o‘quvchini o‘z mavqeini aniqlash vaziyatiga olib kiradi. O‘quvchilarda mazkur kompetensiyani shakllantirish uchun o‘qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin. Ular:

- ishonchli hamda ishonchsiz da‘volar ustida ishlash;
- tugallanmagan frazalar yordamida mashqlar bajarish;
- fikriy vaziyatlar hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘zligini namoyon qilishlari uchun qulay sharoit yaratish;
- o‘zi va sinfdoshlarining ishlarini baholash vaziyatlarini tashkil qilish;
- sabab-oqibat bog‘lanishlari orasidagi aloqadorlikni izohlashga oid mashqlar ustida ishlash;
- o‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish imkonini beradigan topshiriqlarni bajartirish;
- o‘quvchilarni bir-biriga maslahat berishga undovchi didaktik vaziyatlarga olib kirish;
- xavfsiz hayot faoliyatiga oid tushunchalarni singdirish;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;



– matematik mashqlarning qay darajada bajarilganligini tekshirib ko‘rish kabilardan iborat.

Matematika darslarida mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar mavzuni mustaqil o‘rganadilar va tegishli algoritmlar yordamida misollarni yechadilar. O‘quvchilar oldingi o‘qiganlarini aytib berish, oydinlashtirish vazifasi turadi. Bu jarayonda ular ajratish, ifodalash, natijalarni umumlashtirish, sanab ko‘rsatish kabi amaliy harakatlarni bajaradilar. Natijada o‘quvchilar o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish bilan bir qatorda asosiy hodisalarni ajratish, ularning o‘zlari va boshqalar uchun muhimligini asoslash ko‘nikmalarini ham hosil qiladilar.

Nostandart masalalar o‘quvchilarda o‘quv predmeti mantiqini o‘rgatishga xizmat qiladi. Ushbu kompetensiya doirasiga o‘quvchilarning matematik nutqi, matematik muloqot ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Natijada ular tahlil qilish, qiyoslash, asosiy holatni ajratish, muammolarni yechish, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘ziga mos tarzda baho berish, mas’uliyatlilik, mustaqil fikrlash, ijod qilish va hamkorlikka kirishish ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Mazkur ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini va bilish faoliyatlarini rivojlantirish uchun nihoyatda zurrur hisoblanadi.

Ishlashlari uchun ularga muayyan topshiriqlarni taqdim qilish mumkin. Jumladan, partadoshiga to‘g‘ri qoidalar, aniqlovchilar, javoblarni tinglash, guruhda muammoni muhokama qilish haqida maslahatlar berishga oid topshiriqlar.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi doirasida ijtimoiy mehnat ko‘nikmalarini egallashning muhimligini o‘quvchilarga yetkazish talab qilinadi. Chunki mazkur ko‘nikma o‘quvchilardan ijtimoiy fuqarolik faoliyatiga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi. O‘quvchilarda ijtimoiy mehnat, oilaviy hayot, oilaviy munosabatlar, iqtisod va huquq sohasidagi dastlabki ko‘nikmalar, kasbiy mavqeni aniqlashga oid tushunchalar hosil qilish nazarda tutiladi. Buning uchun:

– O‘quvchilarga ijtimoiy rollarni bajarishga oid bilimlar va tajribalarni taqdim qilish; bunday rollar sirasiga oila a’zosi, ijtimoiy faol fuqaro, kundalik oilaviy turmush bilan bog‘liq vaziyatlarda harakat qila oluvchi shaxs kiradi.

– Atrof-muhit, oila, jamoa va mamlakatda o‘z o‘rnini aniqlay olish;

– O‘zbek xalqining an’analari va madaniy me’yorlari o‘zlashtirishlari;

– Bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish yo‘llaridan xabardor bo‘lishlari;

– O‘zbekiston jamiyatidagi ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlardan xabardor bo‘lishlari;

– Shaxs va jamiyat manfaatlari uchun mehnat munosabatlari doirasida harakatlana olishlari;

– Mehnat hamda fuqarolik munosabatlari axloqiga oid ma’lumotlarni egallagan bo‘lishlari talab qilinadi.



Quyida mazkur kompetensiyani shakllantirishga ko‘maklashadigan bir qator usullarni ko‘rsatib o‘tamiz. Ular:

1. O‘quvchilarda savodli, mantiqiy jihatdan ishonchli nutqni hosil qilish uchun darslarda matematik atamalar lug‘ati bilan ishlash, matematik diktantlar yozdirish, topshiriqlarni bajartirish, savodli yozishga yo‘naltirish, son nomlari, matematik atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilishlarini ta‘minlash. Masalan, diktantda son nomlari, atamalarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini hosil qilish talab etiladi.

2. Qo‘shimcha material sifatida ertaklar, xayoliy tarixiy voqealar, matematik atamalar, sonlar ishtirok etgan hikoyalar yozdirish;

Matnli masalalarni yechishda ataylab tashlab ketilgan sonlarni fikran tasavvur qilish imkoniyatini yaratish; bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yozuv doskasida ifodalangan sonlardan mosini tanlab olishni tavsiya qiladi. Bunday sonlar buyumlarning narxi, hajmi, og‘irligi, tarixiy voqealarning ro‘y bergan yili bo‘lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda yashirin axborot qismiga ega bo‘lgan matnli topshiriqlarni ham o‘quvchilarga taqdim qilish mumkin. Bunday masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar beixtiyor umumqabul qilingan madaniy-axloqiy me‘yorlarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Foqdalanganilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi «Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4708-sonli Qarori // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi» to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni // www.lex.uz.

3. Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi. // tuzuvchilar:p.f.d, prof. R.G.Safarova, p.f.d., prof. B.S.Abdullaeva, fiz.-mat.f.n. A.D.Bahromov, N.T.Axmedova, F.I.Yusupova.- T.: RTM, 2015 yil.

4. Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. - 12 декабря. <http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm>. - В надзаг: Центр дистанционного образования «Эйдос», e-mail: list@eidos.ru.



O'QUVCHILARDA TAYANCH VA BIOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

D. R. SHARIPOVA,

*Navoiy davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrası o'qituvchisi*

Ushbu maqolada maktablarda biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda tayanch va biologik kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari haqida gi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, tayanch va maxsus kompetensiya, kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiya, biologik bilimlarni amaliyotda qo'llash, matematik savodxonlik kompetensiyalari .

В этой статье изложены данные о способах формирования у учащихся базовых и биологических компетенций при преподавании биологии в школах.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, базовая и специальная компетентность, коммуникативная, информационная работа, саморазвитие как личность, социально активная гражданская компетентность, общекультурная компетентность, применение биологических знаний на практике, компетенции математической грамотности .

This article presents the data on ways to form students' basic and biological competencies when teaching biology in schools.

Key words: competence, competence, basic and special competence, communicative, informational work, self-development as a person, socially active civic competence, general cultural competence, application of biological knowledge in practice, competence of mathematical literacy.

Ma'lumki, umumta'lim muassasalari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan. Ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

Kompetensiyali o'qitish jarayonida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud:

– Davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish;



– O‘quvchilarning fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish;

– O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalarini aniq obyektarga qaratish va mavjud muammolarni hal etish;

– O‘quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo‘nalishiga yo‘llash;

– Biologiyadan o‘zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq va jarayonli muam moli vaziyatlarda amaliyotda qo‘llash orqali o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyor lash kabi funksiyalarni kiritish mumkin;

– Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi. O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlay-digan kompeten siyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Bizga ma‘lumki kompetensiyalar uch darajada bo‘ladi.

Biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompe tensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o‘quv fani mazmunini tahlil etishi, o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari, ekskursiyalar va sinfdan tash qari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizimli va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Xususiy kompetensiyalar esa tayanch kompetensiyalardan foydalanilgan hol da shakllantiriladi. Bunda o‘quv rejada belgilangan har bir fanning xususiyati dan, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘qitish jarayonida, ya‘ni o‘quv mashg‘ulotlarida – dars, laboratoriya, amaliy darslar, darsdan va sinfdan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mustaqil ishlarni bajarish davomida o‘quvchilarda xususiy kompetensiyalar yuzaga kelishi ta‘minlanadi.

Har bir fan doirasida o‘ziga xos xususiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Buning uchun o‘quvchilarda faqat bitta fan doirasidagi bilimlar emas, balki qator fanlardan majmuaviy tarzda amalga oshirishi lozim. Masalan, o‘quvchining bio logiya fanidan egallagan ilmiy-nazariy ma‘lumotlaridan kelgusida olib boradigan hayot faoliyatida qo‘llay olishi talab qilinadi. Tayanch va xususiy kompeten siyalarning uygu‘nligi va bir-birini taqozo qilishi esa o‘quvchida haqiqiy biologik kompetensiyalar rivojlanishiga olib keladi .

Shuni qayd etish kerakki, o‘quvchilar o‘quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilishi uchun didaktikada o‘quv materialini saralash bo‘yicha ishlab chiqilgan quyidagi prinsiplarga amal qilish lozim:

1. G‘oyaviy yo‘naltirilganlik;
2. Ilmiylik;
3. Fundamentallik;
4. Tushunarlilik;
5. Tizimlilik;
6. Mantiqiy ketma -ketlik;



7. Uzviylik;
8. Ta'limning izchilligi;
9. Fanlararo bog'lanish;

O'quvchilarda tasavvur qilishi, abstrakt tafakkurini rivojlantirish uchun didaktikada ishlab chiqilgan yuqorida qayd etilgan prinsiplar bilan bir qatorda ko'rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi prinsiplarga amal qilish lozim. O'rganilgan ma'lumotlarni o'quvchilar yodda saqlashi va uni nazorat qilish uchun har bir mavzu yakunida xulosa chiqarish va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish uchun savol-topshiriqlar, mashq-masalalar berilishi lozim. Bilimlarni shakllantirishning keyingi bosqichlarini amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan bilimlarni tanish odatiy, kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash uchun muammoli tarzda savol-topshiriqlar, mashq-masalalar ishlab chiqilishi lozim.

O'quvchilarda ta'lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan faoliyat usullari – ko'nikmalarni tarkib toptirish, uni malaka darajasiga yetkazish uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun topshiriqlar, ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Ko'nikma tarkibiga kiradigan ish usullarini aniqlash, mazkur ish usullarini bajarish, takror bajarish, amalda qo'llanishiga (1-chizma) e'tibor qaratish lozim.

Mazkur bosqichlarga to'liq amal qilingandagina ko'nikmalar malakaga aylanishini yodda tutish zarur. O'quvchilarda ko'nikmalarni tarkib toptirish ma'lum yuqorida chizmadagidek (1-chizma) bosqichlarda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida kompetensiyali yondashuv o'quvchilarning mustaqil ishlashiga, ijodiy fikrlashiga va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda o'quv amaliyoti ning o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent 2016-yil 30-b.

2. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya o'qitish metodikasi (akademik litsey va kasb-hunar kolleji biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) Toshkent. Bilim. -2016y.

3. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma «O'qituvchi», Toshkent. 2002-y.

4. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov «Biologiya o'qitish metodikasi» Toshkent, «Iqtisod-moliya»-2013y.

5. Ibodova Mahfuza Namozovna. IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT «ZOOLOGY» IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In Volume 4, Issue 2 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) February 2023.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

N.ABDULLAYEVA,
FarDU o'qituvchisi

Ushbu maqolada bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik ko'nikmalari mohiyatini ochib berish, sifatleri bilan aloqalarini aniqlashga imkon beruvchi asosiy nazariy qoidalar, malakali bo'lajak kasb ta'limi pedagogining qaror topishi muhim sifatlarining shakllantirish va yuqori malakali bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini zamonaviy tayyorlashga talablar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, ko'nikma, rivojlantirish, komponent, qobiliyat, ta'lim, sifatlar, tadqiqotchilik ko'nikmasi, tadqiqotchilik faoliyati, funksionalfaoliyatli yondashuv.

The current stage of development of higher education implies a qualitative change of approaches to the definition of its content, as well as the forms of teaching and learning and research activity of students. This is due to the formation of a new paradigm of higher education, which is based on the idea of the creative personality of the student. This article deals with the preparation for the research activity of the future teachers of vocational training in the education process.

Key words: training, research, the process of vocational education teacher, Development, principle, skill, of functional-active approach.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassisni mustaqil ta'lim olishga va o'zini o'zi tashxis etishga, bilim va ko'nikmalarni uzluksiz kengaytirish hamda chuqurlashtirishga o'rgatishdan iborat bo'lib, u butun hayot davomida o'qishni davom ettirishga tayanch hisoblanadi. Agar talaba oliy ta'lim muassasasida tahsil olish davomida o'zining shaxsiy tajribasiga tayanib, bilimlarni tayyor holda egallamasdan unga mustaqil ravishda erishsa, u holda u o'zining bo'lajak faoliyatida ham xuddi shunday harakat qilishga intiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ijodiy va mustaqil fikrlovchi mutaxassisni tayyorlashni esa talabalarni ilmiy-tadqiqot ishiga jalb etish orqali amalga oshirish mumkin. Tadqiqotchilik kompetensiyalarini egallagan mutaxassis esa, nafaqat tayyor, shuningdek eskirgan algoritmlar va dalillardan foydalanmasdan, balki mavjud axborotlarni faol va mahsuldor tahlil qilish, yangi yanada samarali algoritmlar, resurs va texnologiyalarni yaratish va tanlashni uddalay oladi. Ammo, oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'quvchi-talabalarida ilmiytadqiqotchilik ko'nikmasini shakllantirishning mavjud darajasi zamonaviy talablarga to'lasincha javob bera olmaydi. Shuning uchun ham o'quv – tarbiya



jarayonida ilmiy-pedagogik eksperiment o'tkazish texnologiyasini egallagan kompetentli o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Psixologiya fanidan ma'lumki, ilmiy dunyoqarash bilimlar negizida paydo bo'ladi. Bola tug'ilib, vaqt o'tishi bilan dunyoni, atrofini anglab yetishga qiziqadi, intiladi. Go'daklik, bolalik, o'spirinlik, o'smirlik yoshida o'quvchi yoshlar ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabatga kirishish qonuniyatlari bilan birgalikda, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'zlashtiradilar. Jamiyatdagi mavjud bo'lgan muammolarni hal etish yo'llarini izlaydilar. Bunga esa talabalik yillarida imkoniyat tug'iladi. Bu davr inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. Talabalik davrida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, yoshlarning muayyan ijtimoiy faoliyati davomida, ularda ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror, mustahkam ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Shaxsda izchil vujudga keladigan ruhiy o'zgarishlar, shakllanayotgan ilmiy dunyoqarash va uning rivojlanishi talabalar faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. Bu davrda talaba-yoshlar maktab o'quvchisidan farqli ravishda hayotni ilk bor shaxs sifatida faol ilmiy bilish asosida anglay boshlaydi.

Shaxsning har tomonlama, uyg'un rivojlanishiga ilmiy-ijodiy faoliyati salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning dars va darsdan tashqaridagi ilmiy-ijodiy faoliyati o'z mohiyati bilan zarur axborot va ma'lumotlar murakkablashib, ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, mehnat samarasi, mahsulidan lazzatlanish his-tuyg'ularini qaror toptira boshlaydi. Jamoa bo'lib amalga oshiriladigan ilmiy-ijodiy ishlar (ilmiy maktablardagi faoliyati) va ularning keng ko'lamda o'tkazilishi, ilmiy faoliyatga kirishish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi. Yoshlarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanishlari jarayonida dunyoni ilmiy bilishlari, idrok etishlari uchun keng yo'l ochiladi. Mazkur faoliyat yoshlarning aqliy jihatdan rivojlanishi, o'z nuqtai nazarlarini bayon etishlari va uni himoya qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanish talabalarning fahmlash, eslab qolish, izlanish olib borish uchun uni rejalashtirish va diqqatni tadqiqot obyektiga qaratishga odatlantiradi. Ularda tadqiqotchi uchun zarur bo'lgan xislatlar, ziyraklik, tezkorlik qaror topadi. Bu davrda talabalarni o'zlarini qiziqqan muammoning yechimiga maqsadli yo'naltirish, uning mohiyatini to'g'ri anglab yetishlariga ko'maklashish zarur. Bunday yordam talabaga ilmiy rahbari, yosh olimlar uyushmasi hamda to'garak rahbarlari tomonidan beriladi.



Bosqichma-bosqich amalga oshadigan bu jarayonni biz quyidagicha tizimlashtirdik (qaralsin 1- chizma).

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonida quyidagilarga amal qilinishi lozim, deb hisoblaymiz:

- Talabalarning qiziqishlarini o‘rganish;
- Ilmiy mavzulardagi suhbatlarga jalb qilish;
- Ilmiy mavzuda ma‘ruza tayyorlashni topshirish;
- Referat, kurs ishlari tayyorlashni topshirish;

Bunday faoliyatlar, o‘z navbatida, bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Quyida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonida bajariladigan ishlarga izoh berilgan va tegishli aniqliklar kiritilgan:

Talabalarning qiziqishlarini o‘rganish: Talabalarning ilmiy yo‘nalishini aniqlash uchun umumiy savollar asosida suhbat o‘tkaziladi va talaba tadqiqot sohasining qaysi yo‘nalishlariga qiziqishi belgilanadi. Uning bu sohadagi bilimi, dunyoqarashi, ko‘nikma va malakalari darajasi aniqlanadi.

Ilmiy mavzulardagi suhbatlarga jalb qilish: Talaba kafedrada tashkil etilgan ilmiy seminarlar, suhbatlar, ilmiy munozaralar, konferensiyalarga jalb etiladi. Ilmiy bahslarda shaxsiy munosabati va qarashlarini bayon etadi.

Ilmiy mavzuda ma‘ruza tayyorlash: Qiziqqan sohasi bo‘yicha o‘rgangan materiallari, tadqiq qilingan ilmiy izlanishlar xulosalari, ilmiy tadqiqotlar, manbalar tahlili asosida maqola va ma‘ruza matni tayyorlaydi.

Referat, kurs ishlari tayyorlash: Tadqiqot ishlarining mazmuni asosida o‘quv rejasidan tashqari referat, kurs ishi, taqriz, rezyume, annotatsiya tayyorlaydi.

Ilmiy materiallarni tahlil qilish: talabaning ilmiy yo‘nalishi aniqlanganidan so‘ng unga shu yo‘nalishda bajarilgan tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish malakasini egallashi uchun ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy maqolalar tavsiya etiladi. Talabaning shu yo‘nalishda bajargan ishlari belgilangan muddatlarda o‘rganib chiqiladi va tegishli yig‘ilishlarda muhokama qilinadi.

Ilmiy tadqiqotchilik hujjatlarini tayyorlash: Ilmiy ishning maqsadi va mohiyatini anglaganidan so‘ng talabaga tadqiqot ishlarining me‘yoriy (nizom, qaror, konsepsiya va b.), joriy (buyruq, dastur va b.), ishchi (chora-tadbir, reja va b.) hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va tartib-qoidalari o‘rgatiladi.

Tadqiqot rejasini ishlab chiqish: tadqiqot ishining ishchi rejasini ishlab chiqish, unda e‘tiborga olinadigan holatlar va tartibga rioya qilish, tadqiqot ishi davrining umumiy va yillik hisobot rejalari belgilash topshiriladi.



Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash: tadqiqot, izlanish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kartotekasini ishlab chiqish, adabiyotlardan kerakli materiallarni olish, ularni turi va maqomiga qarab ajratishga o'rgatiladi.

Oliy ta'lim tizimida yoshlarning ilmiy tadqiqotchilik imkoniyatlari ro'yobga chiqarishi respublikamizning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida oliy ta'limda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan bakalavriat ta'limidan keyin magistratura mutaxassisliklari va aspirantura ixtisosliklarida tahsil olish hamda mustaqil tadqiqotchilikni olib borish amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - №5. - С. 34-42.
2. Комарова Ю.А. Научно-исследовательская компетентность специалистов: функционально-содержательное описание // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Выпуск 11 (68). - СПб, 2008, сентябрь. - С. 69-77.
3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Тошкент, 2015. - Б.120.
4. Хуторской А.В. Определение общепредметного содержания и ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов. Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423/htm>.



РАБОТА СПЕЦИАЛИСТОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ СРЕДЫ

Б.Р.ДЖУРАЕВА,
к.п.н. УзНИИПН

В статье дается определение инновационной образовательной среды дошкольной образовательной организации и описывается подготовка специалистов к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, раннее обучение иностранным языкам, подготовка специалистов к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды.

The article provides a definition of the innovative educational environment of a preschool educational organization and describes the preparation of specialists for work in preschool educational organizations in an innovative educational environment.

Key words: innovative educational environment, early teaching of foreign languages, training of specialists for work in preschool educational institutions in an innovative educational environment.

В настоящее время стремительно протекают процессы реформирования во всех сферах общественной жизни, динамичное развитие общества требует постоянной модернизации образовательной системы и совершенствования личности специалиста, работающего в сфере образования. Особое значение в современных условиях имеет преемственность ступеней образования. Дошкольное образование становится первой ступенью образовательной системы республики.

В связи с этим еще более актуальной становится задача подготовки будущего специалиста, способного к саморазвитию и самосовершенствованию, к работе в постоянно меняющихся условиях, в условиях инновационной образовательной среды дошкольной образовательной организации.

Современное образование предполагает отказ от знаниевого подхода. Основной его целью становятся не сумма знаний, хотя знание остаётся универсальным критерием образованности, а набор необходимых компетенций в интеллектуальной, социальной, коммуникативной и др. сферах.

Главными сегодня считаются способность к самообразованию, социальная активность, умение отстаивать свои взгляды, правовую культуру и т.д., т.е. инновационный подход к образованию [1, с 104].



Инновационная образовательная среда при этом понимается как триединство следующих компонентов:

1) пространство развития детей – предметно-развивающая среда группы и детского сада в целом, которая способствует решению вопросов развития и воспитания детей в соответствии с Основной общеобразовательной программой учреждения; вариативность дополнительных образовательных услуг в соответствии с запросами социума (наличие широкого спектра предложений кружковой деятельности: эстетической, спортивной, языковой, общеразвивающей направленностей) и необходимостью построения индивидуальных образовательных маршрутов детей (ориентированность на личность ребенка); комплексное медико-психолого-педагогическое сопровождение детей; безопасная и здоровьесберегающая среда;

2) пространство развития педагогов – организация повышения квалификации и потребность в саморазвитии педагогов учреждения; система стимулирования и мотивации педагогов; сотрудничество, сотворчество и интеграция специалистов; взаимодействие с коллективами образовательных учреждений- социальных партнеров; педагогическое сообщество (социально-психологический климат, сплоченность коллектива);

3) пространство развития родителей – включенность семей в воспитательно-образовательный процесс ДОУ, педагогическое просвещение родителей, преемственность семейного и общественного воспитания, родительское сообщество [3].

Модели дошкольных образовательных организаций в качестве инновации была предложена всестороннего развития дошкольника посредством раннего обучения иностранным языкам (на материале немецкого языка).

Многочисленные исследования подтверждают, что сензитивным периодом для развития речи является период от 0 до 6 лет. Если в данном возрасте ребенок часто слышит иностранную речь или воспитывается в ситуации многоязычия, то он, как правило, овладевает 2 и более языками. При этом процесс изучения иностранного языка (вне зависимости от того, тот ли это язык, который ребенок слышал в детстве, или другой) протекает легче (С.И. Рубинштейн, Л.С. Выготский, Ю.П. Азаров, Т.Элиот, Дж. Брунер, Б. Уайт, Р. Робертс и др.).

Ранее изучение иностранного языка положительно влияет на общее речевое развитие ребенка, развитие его памяти, внимания, мышления и ус-



воение родного языка. При изучении иностранного языка закладываются также элементы культуры, развивается логика и догадка, воспитывается толерантность, происходит знакомство с другим менталитетом, развивается способность самоидентификации к группе, народу – все то, что необходимо для формирования гармонично развитой целостной личности.

Первым этапом развития модели особой инновационной образовательной среды дошкольных образовательных организаций стал этап открытия нового профиля в рамках программы подготовки бакалавров по направлению «Педагогическое образование» – Дошкольное образование и иностранный (немецкий) язык. В рамках данной программы осуществляется подготовка специалистов дошкольных образовательных организаций – воспитателей, которые одновременно будут являться учителями немецкого языка, что позволит им в будущем создать на месте работы особую инновационную образовательную среду посредством иноязычного общения.

Проведена работа по поиску партнеров, заинтересованных в создании особой инновационной образовательной среды на базе курируемых дошкольных образовательных организаций. Было найдено 2 партнера – 2 детских сада городского образования.

На базе данных дошкольных образовательных организаций в средних группах 2 раза в неделю проводятся занятия по немецкому языку. В общей сложности занятия посещают более 50 детей. Продолжительность занятия – 15-30 мин (в зависимости от настроения детей, форм и тематики работы, сложности материала). Количество детей, посещающих занятие одновременно, составляет 6-15 человек. Во время занятий к детям приходит маленький Зайчишка Ханс (надеваемая на руку кукла), который говорит только по-немецки. Он играет с детьми, танцует, делает поделки, рисует, поет, ставит эксперименты и таким образом становится малышам другом и начинает ассоциироваться в их сознании с немецким языком, позволяя сделать первые шаги к его изучению. Так, по итогам 3 месяцев занятий были изучены 100 лексических единиц, дети знают 10 песен, 1 ритмический диалог, они реагируют на обращения на немецком языке, показывают заинтересованность в продолжении изучения немецкого языка.

Отрадно, что в стороне не остаются и родители, даже те, кто никогда не учил немецкого языка. Дети рассказывают им, как проходят занятия, говорят то, что выучили, поют песни, показывают то, что сделали собственными



руками. Это нравится родителям, многие из них, стараясь поддержать интерес ребенка, начинают сами изучать язык, с удовольствием посещают открытые занятия, занимаются с детьми по карточкам.

Параллельно с проведением занятий для дошкольников осуществляется работа со студентами: организованы занятия по методике и дидактике для студентов, обучающихся на факультете психологии.

Они развиваются творчески, получают мотивацию на самосовершенствование, развитие, обучаются навыкам самостоятельной творческой работы, получают не только теорию, но и возможность постоянной практики. Посредством поддержания интереса студентов на достаточно высоком уровне происходит их практическое вхождение в профессию, расширяется кругозор, способность адаптироваться, развивается нравственное сознание, компетенции, различные инновационные способности и, конечно же, повышается уровень конкурентоспособности – то есть решается целый ряд вопросов, связанных с подготовкой современных специалистов дошкольных образовательных организаций. Данные специалисты подготавливаются к работе в дошкольных образовательных организациях в условиях инновационной образовательной среды творчески, практико-ориентированно, следовательно, и сами будут создавать подобные условия в будущем.

Литература:

1. Пидкасистый П.И., Педагогика. - URL: http://eusi.ru/lib/pidkasyj_pedagogika/index.shtml
2. Формирование инновационной образовательной среды дошкольного учреждения через реализацию целевых проектов. - URL: <http://pandia.ru/text/78/491/83635.php>
3. Morvai E., Vercss B. Deutsch mit hans hasc - in kindergarten und vorschulc.leitfaden. - URL: <https://wmv.goethc.de/lhr/pro/Hans%20Hase/lchrerheft.pdf>



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**